

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

YORQIN TOSHMURODOV QAXRAMONOVICH
ZAMIRA BEKNOZAROVA FARMANOVNA

**«FIZIKA» FANIDAN LABORATORIYA
ISHLARINI BAJARISH BO`YICHA
O`QUV Q O`LLANMA**

**5430600- Qishloq va suv xojaligida energiya ta`minoti va
bosqa bakalavr yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo`ljallangan.**

TOSHKENT – 2019

**YORQIN TOSHNURODOV QAXRAMONOVICH
ZAMIRA BEKNOZAROVA FARMANOVNA**
Fizikadan laboratoriya ishlari - T. TIQXMMI. 2019. - 180 b.

ANNOTASIYA

Mazkur o`quv qo'llanma, O`zbekiston Respublikasi texnika oliy o`quv yurtlarining fizika kafedralarida uzoq yillar davomida to`planilgan tajribalar va rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy o`quv yurtlarining keyingi yillarda qo`llayotgan fizika fanining dasturlaridan foydalanildi.

Qo'llanmaga kiritilgan har bir laboratoriya ishida qat'iy ketma-ketlikka rioya qilingan. Dastlab ishning maqsadi, so`ngra ish to`g`risida qisqa va aniq nazariy ma'lumot bayon etiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, mualliflar talabalarning vaqtini tejasz maqsadida imkon boricha ishning nazariyasini uning tafsifida yetarli darajada to`la yoritishga harakat qilganlar. Laboratoriya mashg`ulotlarni bajarishda, mos ravishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari namuna sifatida yoritilgan. Talaba yanada chuqurroq va atroflicha keng nazariy bilimlarni qo'llanmada hamda, har bir laboratoriya ishi uchun tavsija etilgan darslik va o`quv qo'llanmalardan ham o`zlashtirishi mumkin.

ANNOTATION

This training manual has been used in many years of experience in physics departments of the technical high schools of the Republic of Uzbekistan, as well as in recent years the programs of physics of advanced foreign countries have been used.

Each laboratory included in the application is strictly adhered to. Initially, the purpose of the work is to summarize the work briefly and clearly. It should be noted that the authors have tried to adequately describe the theory of work in its description so as to save time. The laboratory has been described as a model for the proper use of pedagogical technologies in implementing the exercises. The student may also be able to apply a broader and broader theoretical knowledge, and also provide the textbooks and tutorials recommended for each laboratory work.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие использовалось на многолетнем опыте на физических факультетах технических вузов Республики Узбекистан, а также в последние годы были использованы программы по физике передовых зарубежных стран.

Каждая лаборатория, включенная в заявку, строго соблюдается. Первоначально целью работы является краткое и четкое подведение итогов работы. Следует отметить, что авторы постарались адекватно описать теорию труда в ее описании, чтобы сэкономить время. Лаборатория была описана как модель для правильного использования педагогических технологий при выполнении упражнений. Студент также может применять более широкие теоретические знания, а также предоставлять учебники и учебные пособия, рекомендуемые для каждой лабораторной работы.

Taqrizchilar:

Toshkent To`qimachilik va Yengil
Sanoat instituti, "Fizika va elektrotexnika"
kafedrasи dotsenti X.I. Isaev
TIQXMMI, dotsent. ф.м. ф.н., A.Axmedov

KIRISH

O`zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida, Oliy O`quv yurtlarining asosiy vazifasi har tomonlama yetuk, jamiyat hayotiga moslashgan va o`z kasbi bo`yicha fanni yuqori saviyada o`zlashtirgan kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Hozirgi paytda davlat andozalari (standartlari) asosida barcha yo`nalishlar bo`yicha bakalavrular tayyorlash uchun o`quv rejalarini va fanlarning namunaviy dasturlari ishlab chiqilmoqda. Unda halqaro umum ta'lim andozalarining qo`llanilishi yoshlarni o`qitishda o`zbek xalqining boy ma`naviy merosidan, hamda jahonning ilg`or tajribalaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Mazkur o`quv qo`llanma, O`zbekiston Respublikasi texnika oliv o`quv yurtlarining fizika kafedralarida uzoq yillar davomida to`planilgan tajribalar va rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliv o`quv yurtlarining keyingi yillarda qo`llayotgan fizika fanining dasturlaridan foydalanildi.

Talabalarning fizika fanini o`zlashtirish uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Laboratoriya darslarida mos ravishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Texnika yo`nalishdagi institutlarning barcha ixtisosliklari bo`yicha talabalarga tavsiya etilayotgan o`quv qo`llanma mualliflarning ko`p yillik ish tajribasi samarasidir. Mualliflar qo`llanmani tayyorlashda, birinchidan, talabalarni hozirgi zamon fizikasi yutuqlarini hisobga olgan holda tayyorlangan laboratoriya mashg`ulotlari bo`yicha o`zbek tilidagi zamonaviy qo`llanma bilan ta'minlashni, ikkinchidan, bo`lajak muhandislarning fizikaviy qonun, hodisa va jarayonlarni chuqurroq o`rganishlarga, ularning tajriba o`tkazish va o`lchashlarning oddiy uslublarini o`zlashtirishlariga ko`maklashishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`yishdi.

Qo`llanmaga kiritilgan har bir laboratoriya ishida qat`iy ketma-ketlikka rioxaliga qilingan. Dastlab ishning maqsadi, so`ngra ish to`g`risida qisqa va aniq nazariy ma'lumot bayon etiladi. Bu o`rinda shuni ta'kidlash kerakki, mualliflar talabalarning vaqtini tejash maqsadida imkon boricha ishning nazariyasini uning tavsifida yetarli darajada to`la yoritishga harakat qilganlar. Laboratoriya mashg`ulotlarni bajarishda, mos ravishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari namuna sifatida yoritilgan.

Har bir mashqda ishni bajarish uchun zarur quroq va asboblarning nomlari, ish-ning bajarilish tartibi hamda talaba o`zini tekshirib ko`rishi uchun sinash savollari keltirilgan. Talabalarga yengillik yaratish maqsadida qo`llanmaning oxirida fizikaviy kattaliklarning turli sharoitdagi qiymatlarini jadvallari bilan birga ularning Halqaro tizimdagisi o`lchov birlklari ham keltirilgan. Shuningdek, fizikaviy va matematik doimiylarning jadvallari ham ilova qilingan.

1 - LABORATORIYA ISHI
MAVZU: SILINDRIK SHAKLDAGI QATTIQ JISMNING
ZICHLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Silindrik shakldagi qattiq jism zichligini aniqlash yordamida natijalarni o`lchash va hisoblash uslubi bilan tanishish hamda o`lchov asboblaridan foydalanish va xatoliklarni aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Shtangensirkul.
2. Mikrometr.
3. Silindrik jism.
4. Tarozi va tarozi toshlari.

NAZARIY MUQADDIMA

Hajm birligidagi jismning massasiga zichlik (ρ) deyiladi, ya`ni

$$\rho = \frac{m}{V} \quad (1)$$

bunda ρ -jism zichligi,

Ayrim moddalarning zichliklari jadvalda keltirilgan. Jadvalda temperatura va atmosfera bosimi ham ko`rsatilgan (ularning ta`siri suyuqliklar va qattiq jismlar uchun sezilarli darajada kichik). Havoning zichligi suvning zichligidan 1000 baravar kichikligiga e'tibor bering [1].

Jismlarning zichliklari					
Qattiq jismlar		Suyuqliklar		Gazlar	
Modda	zichligi (kg/m ³)	Modda	zichligi (kg/m ³)	modda	zichligi (kg/m ³)
Alyuminiy	$2,70 \times 10^3$	Suv (4 ⁰ S)	$1,000 \times 10^3$	Havo	1,29
Temir va po`lat	$7,8 \times 10^3$	Dengiz suvi	$1,025 \times 10^3$	Geliy	0,179
Mis	$8,9 \times 10^3$	Plazma	$1,03 \times 10^3$	Karbonat angidrid	1,98
Qo`rg`oshin	$11,3 \times 10^3$	Qon	$1,05 \times 10^3$	Suv bug`i (100 ⁰ S)	0,598
Oltin	$19,3 \times 10^3$	Simob	$13,6 \times 10^3$		

m- jism massasi, V-jism hajmi.

$$\text{Silindrsimon jism hajmi } V = \frac{\pi D^2}{4} h \quad (2)$$

formula bo`yicha hisoblanadi. Bunda D- silindrning diametri, h- silindrning balandligi.

Silindrning har xil kesimida va har xil yo`nalishida uning diametri va balandligini bir necha marta o`lchab, ularning o`rtacha arifmetik qiymatini olish kerak.

Diametr va balandlikni besh marta o`lchab, ularning o`rtacha arifmetik qiymatlari hisoblanadi:

$$D_{o`rt} = \frac{D_1 + D_2 + D_3 + D_4 + D_5}{5} \quad (3)$$

$$h_{o`rt} = \frac{h_1 + h_2 + h_3 + h_4 + h_5}{5} \quad (4)$$

D_1, D_2, D_3, D_4, D_5 lar silindr diametrining har bir o'lchashdagi qiymatlari bo`lib, mikrometr yordamida, h_1, h_2, h_3, h_4, h_5 lar esa balandlik qiymatlari bo`lib, shtangensirkul yordamida o`lchanadi.

Diametr va balandliklarning bu o`rtacha qiymatlarini (2) ga qo`yib silindrning hajmi topiladi, massasi esa tarozida tortiladi. Natijani qanday darajada aniqligini bilish uchun maksimal absolyut xato va nisbiy xatolarini aniqlash kerak.

O`rtacha diametr uchun maksimal absolyut xato quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned}\Delta D_1 &= |D_{\text{o'r}} - D_1| \\ \Delta D_2 &= |D_{\text{o'r}} - D_2| \\ \Delta D_3 &= |D_{\text{o'r}} - D_3| \\ \Delta D_4 &= |D_{\text{o'r}} - D_4| \\ \Delta D_5 &= |D_{\text{o'r}} - D_5|\end{aligned}\quad (5)$$

(5) formula bo`yicha diametrning o`rtacha qiymati va alohida o`lchangan qiymatlari orasidagi ayirmalar hisoblanadi. Bu ayirmalar absolyut xato deyiladi. O`rtacha absolyut xato:

$$\Delta D_{\text{ur}} = \frac{\Delta D_1 + \Delta D_2 + \Delta D_3 + \Delta D_4 + \Delta D_5}{5} \quad (6)$$

formula bo`yicha hisoblanadi. Keyin diametrining o`rtacha maksimal nisbiy xatosi

$$E_D = \frac{\Delta D_{\text{yp}}}{D_{\text{yp}}} \cdot 100\%$$

formula bo`yicha hisoblanadi. Bu yo`l bilan hisoblangan silindr balandligining absolyut $\Delta h_{\text{o'r}}$ va maksimal nisbiy xatosi

$$E_h = \frac{\Delta h_{\text{yp}}}{h_{\text{yp}}} \cdot 100\% \quad \text{hisoblanadi.}$$

Hisoblangan hajmi V-uchun maksimal nisbiy xatoni topishda quyidagi qoidani tadbiq qilamiz:

Ko`paytmaning nisbiy xatosi ko`paytuvchilar nisbiy xatolarining yig`indisiga teng. Bu qoida bo`yicha:

$$E_V = \frac{\Delta V_{\text{yp}}}{V_{\text{yp}}} = 2 \frac{\Delta D_{\text{yp}}}{D_{\text{yp}}} + \frac{\Delta h_{\text{yp}}}{h_{\text{yp}}} + \frac{\Delta \pi}{\pi} \quad (7)$$

E_V -hajmnинг maksimal nisbiy xatosi. E_p ni topish uchun (1) formulaga quyidagi qoidani tadbiq qilamiz:

Kasrning nisbiy xatosi sur`at va maxrajlarning nisbiy xatolarining yig`indisiga teng, ya`ni

$$E_p = \frac{\Delta \rho_{\text{yp}}}{\rho_{\text{yp}}} = \frac{\Delta m}{m} + \frac{\Delta V_{\text{yp}}}{V_{\text{yp}}} \quad (8)$$

Silindr massasini tarozida tortishda uning sezgirligiga bog`liq bo`lgan maksimal absolyut xatolik $\Delta m = 0,1$ gr ga teng. (8) formula bo`yicha zichlikning maksimal nisbiy xatoligi aniqlanadi. Uni zichlikning o`rtacha qiymatiga ko`paytirib, zichlikning maksimal absolyut xatosi $\Delta \rho_{\text{o'r}}$ aniqlanadi, ya`ni:

$$\rho_{\text{yp}} = \frac{m}{V_{\text{yp}}} ; \quad \Delta \rho_{\text{yp}} = E_p \cdot \rho_{\text{yp}} \quad (9)$$


Zichlikning haqiqiy qiymati ($\rho_{\text{xak.}}$) shartli ravishda quyidagicha ko`rsatiladi:

$$\rho_{\text{xak.}} = \rho_{\text{yp}} \pm \Delta \rho_{\text{yp}} \quad (10)$$

O'LCHOV ASBOBLARI BILAN ISHLASH

Shtangensirkul. Detallarning o`lchamlarini millimetrnning o`ndan bir ulushi qadar aniqligigacha o`lhash uchun shtangensirkul ishlataladi (1-rasm). Shtangensirkul- ning asosiy qismi santimetr va millimetrlarga bo`lingan (bo`linma qiymati 1mm) chizg`ichdir. Chizg`ichning bir uchiga oyoqcha mahkamlangan. Chizg`ich bo`ylab oyoqchali ramka sirpanadi. Ramkaga darcha ochilgan. Darcha chekkasiga (chizg`ich shkalasi tomondan) shkala-nonius kiritilgan. Bu shkalaning o`n bo`limi 9 mm ga teng, demak har bir bo`limi 0,9 mm ga teng. Ba`zi shtangensirkullarning ramkasida 20 ta bo`linmasi bo`lib, ular chizg`ich shkalasining 19 mm ga mos keladi.

Shtangensirkul oyoqchalari bir-biriga jipslashtirilganda ikkala shkala nollari ustma-ust tushadi. Berilgan detal o`lchamlarini aniqlash usuli uchun u shtangensirkul oyoqlari orasiga qisiladi va noniusning nolinchi shtrixi vaziyatidan boshlab chizg`ich shkalasidan butun millimetrlar soni aniqlanadi. So`ngra nonius shkalasi shtrixlaridan noldan boshlab qaysi biri chizg`ich shkalasi shtrixlardan biri bilan mos kelishi qaraladi.



1-rasm. Shtangensirkul

Noldan boshlab sanalgan bo`linmalar soni millemetrning o`ndan bir bo`lagidagi songa mos keladi. Detalning o`lchamini aniq topish uchun chizg`ich bo`yicha hisoblangan butun millimetrlar o`ndan bir bo`laklari qo`shiladi.

Mikrometr: Mikrometr yordamida detallar o`lchamlarini shtangensirkulga nisbatan kattaroq aniqlik bilan o`lhash mumkin (2-rasm).

Mikrometrning asosiy qismi 1-po`lat skobadan iborat. Uning bir tomoniga 2 qo`zg`almas tayanch, ikkinchi tomoniga 3 vtulka mahkamlangan. Vtulka ichiga 4 mikrometrik vint kiritilgan. Mikrometrik vintning o`ng tomoni mikrometr vtulkasini qoplab turuvchi 5 baraban bilan birikkan. Baraban aylantirilganda mikrometrik vint ham aylanadi. Vint qadami 0,5 mm ga teng bo`lgani uchun vintning o`lhash sirti barabanning bir marta aylanganda mikrometrning qo`zg`almas tayanchiga nisbatan 0,5 mm siljiydi.



2-rasm. Mikrometr

Vtulkaning sirtiga bo`ylama ariqcha o`yilgan. Uning yuqorisida millimetrlarga bo`lingan shkala, pastida esa yuqorigi shkalaning har bir millimetrnini ikkiga bo`lувчи shtrixli shkala joylashgan. Barabanning chap cheti 50 ga teng bo`lakka bo`lingan. Bu esa mikrometrik vintning burilishida bir aylanishning 1/50 ulushigacha aniqlik bilan o`lhashga imkon beradi.

Mikrometrik vintning o`lhash tekisligi qo`zg`almas tayanch tekisligiga teyganda barabanning nolinchi chizig`i vtulka shkalasidagi nolinchi chiziq qarshisida to`xtaydi. Detallarning o`lchamlarida o`lhashda uni qo`zg`almas tayanch bilan mikrometrik vintning o`lhash tekisligi orasiga joylashtiriladi va barabanni aylantirib, tayanch hamda mikrometrik vint tekisliklari detalning o`lchanishi kerak bo`lgan nuqtalariga tegiziladi.

O`lchanayotgan detal deformatsiyalanmasligi uchun mikrometrik vintning o`lchanadigan detalni kesish kuchi shaqqildoq vositasida cheklanadi. Mikrometr yordamida detal o`lchamlarini vtulka shkalasi bo`yicha 0,5 mm aniqlikgacha hisoblash mumkin. Millimetrnинг yuzdan bir ulushlari esa vtulkadagi “bo`ylama ariqcha” qarshisiga to`g`ri kelgan mikrometr barabanidagi shkala bo`yicha hisoblanadi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Mikrometr bilan silindrning har xil joyidan diametrini o`lchang.
(D₁, D₂, D₃, D₄, D₅).
2. Shtangensirkul bilan silindr balandligini besh marta har xil joyidan o`lchang
(h₁, h₂, h₃, h₄, h₅).
3. (3) formula bo`yicha silindrning o`rtacha diametrini toping.
4. (5) formula bo`yicha har xil o`lchashdagi absolyut xatolar ΔD₁, ΔD₂, ΔD₃, ΔD₄, ΔD₅ larni hisoblang.
5. (6) formula bo`yicha o`rtacha diametrning maksimal absolyut xatosi (ΔD_{o`rt}) ni toping.
6. Diametrning o`rtacha maksimal nisbiy xatosi $E_D = \frac{\Delta D}{D_{ypt}} \cdot 100\%$ ni toping.
7. Shu aytilgan usulda silindrning o`rtacha balandligi (h_{o`rt}), absolyut xatolar (Δh₁, Δh₂, Δh₃, Δh₄, Δh₅), maksimal absolyut xato (Δh_{o`rt}) va maksimal nisbiy xato $E_h = \frac{\Delta h}{h_{ypt}} \cdot 100\%$ larni hisoblang.
8. (2) formulaga diametr va balandlikning o`rtacha qiymatlarini qo`yib silindr hajmini hisoblang.
9. (7) formulalar bo`yicha silindr hajmining maksimal nisbiy xatosini toping.
10. Tarozida jismning massasi m- ni o`lchang.
11. (8) va (9) formulalar bo`yicha zichlikning nisbiy va absolyut xatolarini aniqlang.
12. (1) formula bo`yicha silindrning zichligini aniqlang.
13. (10) formula yordamida zichlikning haqiqiy qiymati (ρ_{xak}) ni hisoblang.

KUZATISH JADVALI

Nº	h	Δh	E _h	D	ΔD	E _D	V _{o`rt}	E _V	m	Δm	ρ _{o`rt}	E _ρ	Δρ	ρ _{xak}
1														
2														
3														
4														
5														
o`rt														

NAZORAT SAVOLLARI

1. Zichlik deb nimaga aytiladi?
2. Shtangensirkul va mikrometr qanday asbob?
3. Maksimal absolyut xato qanday formulada hisoblanadi?
4. Maksimal nisbiy xato qanday formulada topiladi?
5. Nisbiy xato bo`yicha absolyut xato qanday topiladi?
6. Ko`paytmaning nisbiy xatosi deb nimaga aytiladi?
7. Kasning nisbiy xatosi deb nimaga aytiladi?
8. Asbobning aniqligi deb nimaga aytiladi?

Mashg`ulotga pedagogik texnologiya metodlarini qo`llash
«Blits» metodi

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		(3) formula bo`yicha silindrning o`rtacha diametrini toping.
		(6) formula bo`yicha o`rtacha diametrning maksimal absolyut xatosi ($\Delta D_{o`rt}$) ni toping.
		(5) formula bo`yicha har xil o`lchashdagi absolyut xatolar $\Delta D_1, \Delta D_2, \Delta D_3, \Delta D_4, \Delta D_5$ larni hisoblang.
		Diametrning o`rtacha maksimal nisbiy xatosi $E_D = \frac{\Delta D_{ypt}}{D_{ypt}} \cdot 100\%$
		Shu usulda silindrning o`rtacha balandligi ($h_{o`rt}$), absolyut xatolar ($\Delta h_1, \Delta h_2, \Delta h_3, \Delta h_4, \Delta h_5$), maksimal absolyut xato ($\Delta h_{o`rt}$) va maksimal nisbiy xato $E_h = \frac{\Delta h_{ypt}}{h_{ypt}} \cdot 100\%$ larni hisoblang.
		(2) formulaga diametr va balandlikning o`rtacha qiymatlarini qo`yib silindr hajmini hisoblang.
		Tarozida jismning massasi m- ni o`lchang.
		(8) va (9) formulalar bo`yicha zichlikning nisbiy va absolyut xatolarini aniqlang.
		(7) formulalar bo`yicha silindr hajmining maksimal nisbiy xatosini toping.
		formula bo`yicha silindrning zichligini aniqlang.
		(10) formula yordamida zichlikning haqiqiy qiymati (ρ_{xag}) ni hisoblang.

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

Nº	Nazariy savollar
1	Zichlik deb nimaga aytildi?
2	Zichlik qanday o`lchov birlikda o`lchanadi?
3	Maksimal absolyut xato qanday aniqlanadi?
4	Maksimal nisbiy xato qanday aniqlanadi?
5	Ko`paytmaning nisbiy xatosi deb nimaga aytildi?
6	Kasrning nisbiy xatosi deb nimaga aytildi?
7	Zichlikning nisbiy xatosi qanday hisoblanadi?
8	Asbobning aniqligi deb nimaga aytildi?

2-LABORATORIYA ISHI

MAVZU: GALILEY TARNOVIDA YUMALAB ISHQALANISH KOEFFITSIENTINI VA SHAR TO`SIQQA URILGANDAGI KUCH IMPULSINI ANIQLASH


Ishning maqsadi:

Qiya tekislikdagi jism harakati hamda yumalab ishqalanish koeffitsienti va shar to`siqqa urilgandagi kuch impulsini tajriba yo`li bilan aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Galiley tarnovi
2. Chizg`ich
3. Sharcha
4. Sekundomer
5. Tarozi va toshlari

NAZARIY MUQADDIMA




1-rasm.

F_{fr} – ishqalanish kuchi,
 F_A – tortishish kuchi,
 F_N – reaksiya kuchi,
 mg – og`irlilik kuchi [1].

Mexanikaga oid masalalarni hal etishda ishqalanish kuchlari bilan ish ko`rishga to`g`ri keladi. Bir-biriga tegib turgan jismlar yoki bir jismning o`zaro tegib turgan bo`laklari bir-biriga nisbatan ko`chchganda hosil bo`ladigan **kuchlar ishqalanish kuchlari deb ataladi**.

Tarnovdan yumalab tushayotgan sharga bir necha kuch ta’sir etadi: og`irlilik kuchi, ishqalanish va havoning qarshilik kuchi.



2-rasm.

$$\text{Og`irlilik kuchi } P=mg \quad (1)$$

Og`irlilik kuchini ikkita tashkil etuvchilarga ajratish mumkin: R_n - sharni qiya tekislikka siuvchchi kuch

$$P_n=P\cos\alpha \quad (2)$$

va qiya tekislik bo`ylab harakatlantiruvchi kuch

$$F = P \sin \alpha \quad (3)$$

Qiya tekislik bo`ylab harakatlanayotgan shar harakat yo`nalishiga qarshi ishqalanish kuchi ta'sir etadi. Bu ishqalanish kuchi normal bosim kuchiga (ushbu holda P_n), ishqalanish koefitsienti va shar radiusiga (r) bog`liqdir.

$$F_{ishk} = \frac{k}{r} \cdot P_n = \frac{k}{r} P \cos \alpha \quad (4)$$

k- dumalanish ishqalanish koefitsienti bo`lib, shar hamda qiya tekislik materialiga bog`liq va uzunlik birligiga ega.

Quyidagi mulohazalar asosida ham (4) formulaga ega bo`lish mumkin. Dumalayotgan sharga bir necha kuch ta'sir etadi.

P- og`irlilik kuchi

F_{ishq} - ishqalanish kuchi

F- ta'sir etuvchi kuch


Sharga ta'sir etuvchi kuchlarning teng ta'sir etuvchisi $\vec{N} = \vec{F}_{ishq} + \vec{P} + \vec{F}$ orqa tomonga ortgan bo`ladi, chunki shar manfiy chiziqli tezlanishga ega. N kuch chizig`i shar markazidan yuqoriroqda o'tishi kerak, aks holda kuch musbat tezlanish beradi. Kuchlarning teng ta'sir etuvchisining qo`yilish nuqtasi “k” masofaga siljigan $k < r$ bo`lganligi uchun qiya tekislik burchagi ham juda kichik bo`ladi, shu sababli $\sin \alpha \approx \alpha$. Shuning uchun 3- rasmdan og`irlilik kuchi reaksiya kuchiga taxminan teng bo`ladi, ya'ni $N \approx P$ yoki $N = P \cos \alpha$. Sharga ta'sir etuvchi kuch va ishqalanish kuchi orasida quyidagi bog`lanish mavjud: $F = N \sin \alpha \approx F_{ishq}$ yoki $F = N \alpha \approx F_{ishq}$. Rasmdan $\sin \alpha = \frac{k}{r}$

$$\text{bo`lganligi uchun } F_{ishq} = N \alpha = N \frac{k}{r} \text{ yoki } F_{ishq} = P \frac{k}{r} \cos \alpha \text{ yoki } F_{ishq} = P \frac{k}{r} \cos \alpha .$$

Bundan $F_{ishq} \cdot r = P \cdot k$

Bu tengliklardan ko`rinadiki “k” kuchi yelkasi vazifasini bajarar ekan. Shu sababli uzunlik birligida o`lchanadi.

Ishqalanish kuchi momenti normal bosim kuchini “k” ga ko`paytmasiga teng. “k” kattalikni dumalanish kuchlari momentining koefitsienti deyiladi.



3-rasm. Galiley tarnovi

$$F_{ishq} = \frac{k}{r} \cdot P_n$$

Qarshilik kuchi (F_{qar}) esa jism shakli va uni muhitdagi harakat tezligiga bog`liq. Ushbu ishda kuchni qiymati kichik bo`lganligi sababli unga ta'sir etuvchi qarshilik kuchini hisobga olmasa ham bo`ladi.

Dumalayotgan shar ishqalanish (F_{ishq}) va kuchlarning teng ta'sir etuvchisi tufayli tezlanish olib tekis tezlanuvchan harakatlanadi, ya'ni

$$ma = F - F_{ishq} \quad (5)$$

(1) dan “m” ni, (3) dan F ni va (4) dan F_{ishq} qiymatlarini hisobga olinsa:

$$\frac{P}{g}a = P \sin \alpha - \frac{k}{r}P \cos \alpha \quad (6) \quad \text{dan}$$

$$a = g(\sin \alpha - \frac{k}{r} \cos \alpha) \quad (7)$$

Dumalayotgan sharni tezlanishi qiya tekislikni og'ish burchagi (α), ishqalanish koeffitsienti va shar radiusiga bog'liq. Agar $F=F_{ishq}$ va $\alpha=0$ bolsa, shar tekis dumalaydi, ya'ni

$$Psina = \frac{k}{r} P \cos \alpha \quad \frac{k}{r} = \operatorname{tg} \alpha$$


$$F > F_{ishq} \text{ da esa}$$

$$Psina > \frac{k}{r} P \cos \alpha$$

$$\frac{k}{r} > \operatorname{tg} \alpha \text{ da harakat sekinlanuvchan,}$$

$$\frac{k}{r} < \operatorname{tg} \alpha \text{ da harakat tezlanuvchan bo'ladi,}$$

(7) formuladan ishqalanish koeffitsientini aniqlash mumkin:



4-rasm. Dumalayotgan shar

$$k = \frac{r}{\cos \alpha} \left(\sin \alpha - \frac{a}{g} \right) \vartheta_0 = 0 \quad \text{da} \quad l = \frac{at^2}{2} \quad \text{va} \quad a = \frac{2l}{t^2}$$

bu yerda l - sharni bosib o'tgan yo`li, t - uni harakatlanish vaqt, "a" ni qiyamatini hisobga olsak:

$$k = \frac{r}{\cos \alpha} \left(\sin \alpha - \frac{2l}{gt^2} \right)$$

yoki

$$k = r \left(\operatorname{tg} \alpha - \frac{2l}{gt^2 \cos \alpha} \right) \quad (8)$$

Bu "k" ni hisoblash formulasidir. Unga shar radiusi (r), masofaga (l) harakatlanish vaqt (t) va qiya tekislik burchagi (α) o'lchab qo'yiladi. Sharni to'siqqa urilgandagi kuch impulsini o'lchash uchun Nyutonning ikkinchi qonunidan foydalanamiz.

$$\vec{F}\Delta t = m\vec{\vartheta}_1 + m\vartheta_1 \quad (9)$$

Jism impulsining o'zgarishi **kuch impulsiga** teng.

Jism massasini uning tezligiga ko'paytmasi bilan o'lchanadigan kattalikka jism **impulsi deyiladi** ($m\vartheta$). Moduli bo'yicha

$$\Delta(F \cdot t) = m(\vartheta_1^1 - \vartheta_1) \quad (6)$$

ga teng, chunki shar to'siqqa urilib qaytganida tezligi yo'naliishi o'zgaradi.

ϑ_1 -sharni urilguncha bo'lgan tezligi

ϑ_1^1 -sharni to'siqqa urilib qaytish vaqtidagi tezligi.

$$\text{Sharni urilguncha bo'lgan tezligi} \quad \vartheta_1 = a t = \frac{2l}{t^2} t = \frac{2l}{t^2}$$

urilgandan keyingi tezligi

$$\vartheta_1 = \frac{2l}{t_1}$$

l - qaytish masofasi, t_1 - o'sha masofani bosib o'tish uchun ketgan vaqt, t_1 ni tajribada o'lhash qiyin bo'lganligi uchun ϑ_1 aniqlashda sharni to'siqqa urilguncha va urilgandan keyingi kinetik energiyalarining nisbatlaridan foydalanamiz. E_k -sharni urilguncha to`liq kinetik energiyasi bo`lib, h_3 balandlikda potensial energiya bilan ishqalanish kuchi bajargan ishi ayirmasiga teng:

$$E_k = E_{pot} - A$$

$$E_k = mgh_3 - \frac{k}{r} Pl \cos \alpha$$

$$h_3 = l \sin \alpha \text{ ga teng (4-rasm).}$$

Urilgandan keyingi shar kinetik energiyasi l_1 masofadagi ishqalanish kuchini yengish vaqtdagi bajarilgan ishga, h_3 - balandlikka ko'tarilishdagi berilgan potensial energiyalarga sarf bo'ladi (4-rasm), ya'ni

$$h_4 = l_1 \sin \alpha$$

$$E_k^1 = mgh_4 + \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha$$

$$E_k = mgl_1 \sin \alpha + \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha$$

Sharni urilguncha to`liq kinetik energiyasi:

$$E_k = \frac{m\vartheta_1^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2}$$

Bu yerda J - sharni inersiya momenti bo`lib

$$J = \frac{5}{2} mr^2 \text{ ga teng.}$$

$\vartheta = \omega r$ bog`lanishni hisobga olsak

$$E_k = \frac{m\vartheta_1^2}{2} + \frac{2m\vartheta_1^2}{10} = \frac{7m\vartheta_1^2}{10}$$

Shunga o'xshash shar urilgandan keyingi kinetik energiyasi

$$E_k = \frac{m\vartheta_1^2}{2} + \frac{Jw^2}{2} = \frac{7m\vartheta_1^2}{10}$$

nisbat

$$\frac{E_k}{E_k} = \frac{mgl_1 \sin \alpha + \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha}{mgl_1 \sin \alpha - \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha} \quad \text{dan}$$

$$\frac{\vartheta_1^2}{\vartheta_1^2} = \frac{mgl_1 \sin \alpha + \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha}{mgl_1 \sin \alpha - \frac{k}{r} mgl_1 \cos \alpha} = \frac{l_1 \left(\sin \alpha + \frac{k}{r} \cos \alpha \right)}{l \left(\sin \alpha - \frac{k}{r} \cos \alpha \right)}$$

$$\dot{\vartheta}_1 = \vartheta_1 \sqrt{\frac{l_1 \left(\sin \alpha + \frac{k}{r} \cos \alpha \right)}{l \left(\sin \alpha - \frac{k}{r} \cos \alpha \right)}} = \vartheta_1 \sqrt{\frac{l_1}{l} \left(1 + \frac{2k}{rtg\alpha - k} \right)}$$

Shunday qilib,

$$F\Delta t = m(\dot{\vartheta}_1 + \vartheta_1) = m\vartheta_1 \left[1 + \sqrt{\frac{l_1}{l} \left(1 + \frac{2k}{rtg\alpha - k} \right)} \right]$$

yoki

$$F\Delta t = m \frac{2l}{t} \left[1 + \sqrt{\frac{l_1}{l} \left(1 + \frac{2k}{rtg\alpha - k} \right)} \right] \quad (10)$$

(10) formula bo`yicha kuch impulsi hisoblanadi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Galiley tarnovini o`qituvchi tomonidan berilgan uzunlikka (l) qo`ying. h_1 va h_2 balandliklarni o`lchang va $h_2 - h_1$ qiymatini jadvalga yozing.
2. Shar radiusini (r) o`lchang.
3. Sharni tortib, uni massasini (m) aniqlang.
4. To`sinq qo`yib shar dumalanishi vaqtida bosib o`tgan masofani o`lchang (l).
5. Sekundomer ishlashini tekshiring va shar dumalanishi uchun ketgan vaqt (t) ni o`lchang.
6. Sharning to`sinqqa urilib qaytish masofasi (l_1) ni o`lchang.
7. Hamma o`lhashlarni kamida 5 marta takrorlang va ularni qiymatini jadvalga yozing.
8. $\frac{h_2 - h_1}{l} = \sin \alpha$, α qiymati bo`yicha $\cos \alpha$ va $\operatorname{tg} \alpha$ lar topiladi.
9. (8) formula bo`yicha dumalanish ishqalanish koeffitsientini, (10) formula bo`yicha kuch impulsini hisoblang.

KUZATISH JADVALI

Nº	m	$h_2 - h_1$	l	l_1	T	r	K	Δk	E_k	$F\Delta t$
1										
2										
3										
4										
5										
o`rt										

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishqalanish kuchlari nimalarga bog`liq? Dumalanish ishqalanishchi?
2. Tarnovdan dumalayotgan shar tezlanishi nimalarga bog`liq?

3. Jism impulsi deb nimaga aytildi?
4. Kuch impulsi nima?
5. Jism impulsi, kuch impulsi o`lchov birligi?
6. "k" ni hisoblash formulasini keltirib chiqaring.
7. "k" nimalarga bog`liq?

*Mashg`ulotga pedagogik texnologiya metodlarini qo`llash
«Blits» metodi*

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Sharni tortib, uni massasini (m) aniqlang</i>
		<i>Sekundomer ishlashini tekshiring va shar dumalanishi uchun ketgan vaqt (t) ni o`lchang.</i>
		<i>Galiley tarnovini o`qituvchi tomonidan berilgan uzunlikka (l) qo`ying. h_1 va h_2 balandliklarni o`lchang va h_2-h_1 qiymatini jadvalga yozing.</i>
		<i>Sharning to`sinqqa urilib qaytish masofasi (l_1) ni o`lchang</i>
		<i>To`sinq qo`yib shar dumalanishi vaqtida bosib o`tgan masofani o`lchang (l).</i>
		<i>Shar radiusini (r) o`lchang.</i>
		<i>Hamma o`lchashlarni kamida 5 marta takrorlang va ularni qiymatini jadvalga yozing.</i>
		<i>(8) formula bo`yicha dumalanish ishqalanish koeffitsientini, (10) formula bo`yicha kuch impulsini hisoblang.</i>
		$\frac{h_2 - h_1}{l} = \sin \alpha, \alpha \text{ qiymati bo`yicha } \cos \alpha \text{ va } \operatorname{tg} \alpha \text{ lar topiladi.}$

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

Nº	Nazariy savollar
1	<i>Ishqalanish kuchi deb nimaga aytildi?</i>
2	<i>Ishqalanish kuchlari nimalarga bog`liq?</i>
3	<i>Dumalanish Ishqalanish kuchi nimalarga bog`liq??</i>
4	<i>Tarnovdan dumalayotgan shar tezlanishi nimalarga bog`liq?</i>
5	<i>Jism impulsi deb nimaga aytildi?</i>
6	<i>Kuch impulsi nima?</i>
7	<i>Jism impulsi, kuch impulsi o`lchov birligi?</i>

3 - LABORATORIYA ISHI
MAVZU: HALQANING TEBRANISHI METODI BILAN OG'IRLIK
KUCHINING TEZLANISHINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Fizik mayatnik tebranish qonunlarini tebranayotgan halqa misolida o'r ganish va tebranayotgan halqa yordamida erkin tushish tezlanishini o'lchash.

Kerakli asboblar va materiallar:

1. Halqalar to`plami
2. Shtangensirkul
3. Sekundomer

NAZARIY MUQADDIMA

Qattiq jismni aylanma harakatga keltirish uchun aylanish o`qiga parallel bo`lмаган va aylanish o`qidan o`tmaydigan tashqi F kuch bilan qattiq jismning biror nuqtasiga ta'sir etish kerak.

Masalan, F kuch aylanish o`qiga ko`ndalang (perpendikular) bo`lмаган tekislikda yotsin. Bu vaqtda jismning aylanma harakati kuch kattaligiga va kuch yo`nalishidan aylanish o`qigacha bo`lgan masofasiga (kuch yelkasiga) bog`liq bo`ladi.

Kuchning kuch yelkasiga ko`paytmasi bilan o`lchanadigan kattalikka aylanish o`qiga nisbatan **kuch momenti** deyiladi.

$$M=F \cdot r \quad (1)$$

Agarda aylanma harakatlanayotgan jismni xayolan bir necha m_i massali bo`laklardan iborat deb hisoblasak va har bir massa aylanish o`qidan r_i masofada joylashgan bo`lsa, u vaqtda elementar bo`lakcha, masofaning aylanish o`qidan joylashish masofasining kvadratiga ko`paytmasi elementar bo`lakcha **inersiya momenti** deyiladi.









$$J_i = m_i r_i^2 \quad (2)$$

Jismning inersiya momenti jismni tashkil etuvchi bo`laklar inersiya momentlarining yig`indisiga teng.

$$J = \sum_{i=1}^T m_i r_i^2$$

Jism inersiya momenti faqatgina massasiga bog`liq bo`lmay, aylanish o`qiga nisbatan jism joylanishiga ham bog`liqdir. Shuning uchun turli jismlarning inersiya momentlari aylanish o`qi turiga qarab har xil bo`ladi. Har bir xol uchun alohida hisoblanadi (1-rasm).

Ba`zi bir jismlarning inersiya momentlarini quyida rasmda keltiramiz [1]:

	MR^2		$\frac{2}{5}MR^2$
	$\frac{1}{2}MR^2 + \frac{1}{12}Mw^2$		$\frac{1}{12}M\ell^2$
	$\frac{1}{2}MR^2$		$\frac{1}{3}M\ell^2$
	$\frac{1}{2}M(R_1^2 + R_2^2)$		$\frac{1}{12}M(\ell^2 + w^2)$

1-rasm

Masalan, yupqa halqa uchun $J=mr^2$, disk uchun $J=\frac{1}{2}mr^2$ qalin halqa uchun

$$J = \frac{1}{2} m(R_1^2 + R_2^2) \quad \text{ko`rinishda bo`ladi.}$$

Agar biror jismning og`irlilik markazidan o`tuvchi o`qqa nisbatan inersiya momenti ma'lum (J_0) bo`lsa, Shteyner teoremasi bo`yicha o`sha o`qqa parallel bo`lgan har qanday o`qqa nisbatan inersiya momentini topish mumkin.

$$J = J_0 + md^2 \quad (3)$$

Bunda J - og`irlilik markazidan o`tuvchi o`qqa parallel bo`lgan har qanday o`qqa nisbatan inersiya momenti

m - jism massasi

d - og`irlilik markazidan aylanish o`qigacha bo`lgan masofa.

Jismga ta'sir etuvchi kuch momenti bilan jism inersiya momentlari o`zaro bog`liqdir, ya'ni

$$M = J\epsilon \quad (4)$$

Bunda ϵ - jismning burchak tezlanishi

J - jismning inersiya momenti

(4) tenglama **aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunini** ifodalaydi.

Agar ixtiyoriy shakldagi jismni gorizontal o`qqa osib, muvozanat holatidan chetga chiqarsak, kuch momenti ta'sirida tebranadi. Og`irlilik kuchi $P = mg$ ni normal P_n va urinma P_t tashkil etuvchilarga ajratsak (2) rasmda ko`rinib turibdiki, jism P_t -kuch ta'sirida muvozanat vaziyati tomon harakatlanadi:

$$P_t = Psina = mgsina$$

Aylanish o`qiga nisbatan og`irlilik kuchining momenti.

$$M = P_t r = r \cdot mgsina \quad \text{ga teng bo`ladi.}$$

Kuch momenti (M) ta'sirida tebranma harakatlanayotgan har qanday jism **fizik mayatnik deyiladi**.


Kichik burchakka og`dirilgan **fizik mayatnik tebranish davri**

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{J}{mgr}} \quad (5) \quad \text{dan topiladi.}$$

Bu yerda J - mayatnik inersiya momenti


r - og`irlilik markazidan aylanish o`qigacha bo`lgan masofa

g - og`irlilik kuchining tezlanishi



2-rasm.

Aylanma harakatlanayotgan jism




3-rasm.

Tebranayotgan jism

(5) tenglamani “ g ” ga nisbatan yechsak:

$$g = \frac{4\pi^2 J}{T^2 rm} \quad (6)$$

bo`ladi.



4-rasm.Fizik mayatnik

J_0 - qiymatini (7) qo`ysak halqani O nuqtadan o`tuvchi o`qqa nisbatan inersiya momenti:

$$J = \frac{1}{2} m(R_1^2 + R_2^2) + mR_1^2 = \frac{1}{2} m(3R_1^2 + R_2^2) \quad (8)$$

ko`rinishga ega bo`ladi.

Inersiya momentining qiymatini (6) formulaga qo`ysak:

$$g = \frac{4\pi^2 m(3R_1^2 + R_2^2)}{2R_1 m T^2} = \frac{2\pi^2 (3R_1^2 + R_2^2)}{R_1 T^2} \quad (9)$$

Halqaning tebranish davrini, ichki va tashqi radiuslarini o`lchab, so`ngra og`irlilik kuchi tezlanishini aniqlash ishning asosiy maqsadidir.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Shtangensirkul bilan halqaning ichki D_1 va tashqi D_2 diametrlarini o`lchab, so`ngra R_1 va R_2 larni toping.
2. Sekundomer bilan “n” ta tebranish uchun sarflangan vaqtini, so`ngra tebranish davrini $T = \frac{t}{n}$ dan toping.
3. Halqaning radiusi va tebranish davrini kamida 3 marta o`lchab o`rtacha qiymatini (9) ga qo`yib “g” topiladi.
4. Tajribani 2 ta halqa bilan bajarib, qiymatlari jadvalga yoziladi.
5. Hisoblarning absolyut va nisbiy xatolari topiladi.
6. O`lchash va hisoblash natijalarini quyidagi jadvalga albatta yozing.

KUZATISH JADVALI

Nº	R₁	R₂	t	N	T	g	Δg	E_g
1								
2								
1								
2								

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday mayatnikga fizik mayatnik deyiladi?
2. Qanday mayatnikga matematik mayatnik deyiladi?
3. Qanday kuch tasirida mayatnik tebranma harakatlanadi?
4. Kuch momenti va inersiya momenti deb nimaga aytildi?
5. Shteyner teoremasining mazmuni nimadan iborat?
6. Og`irlilik kuchi tezlanishi deb nimaga aytildi va u turli sistemalarda qanday birliklarda o`lchanadi?
7. Fizik mayatnik tebranish davri massasiga bog`liqmi?

***Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits» metodi***

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Tajribani 2 ta halqa bilan bajarib, qiymatlari jadvalga yoziladi</i>
		<i>O`lchash va hisoblash natijalarini quyidagi jadvalga albatta yozing</i>
		<i>Halqaning radiusi va tebranish davrini kamida 3 marta o`lchab o`rtacha qiymatini (9) ga qo`yib “g” topiladi</i>
		<i>Hisoblarning absolyut va nisbiy xatolari topiladi</i>
		<i>Shtangensirkul bilan halqaning ichki D_1 va tashqi D_2 diametrlarini o`lchab, so`ngra R_1 va R_2 larni toping</i>
		<i>Sekundomer bilan “n” ta tebranish uchun sarflangan vaqtni, so`ngra tebranish davrini $T = \frac{t}{n}$ dan toping</i>

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

Nº	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Qanday mayatnikga fizik mayatnik deyiladi?</i>
2	<i>Qanday mayatnikga matematik mayatnik deyiladi?</i>
3	<i>Qanday kuch ta'sirida mayatnik tebranma harakatlanadi?</i>
4	<i>Kuch momenti va inersiya momenti deb nimaga aytildi?</i>
5	<i>Shteyner teoremasining mazmuni nimadan iborat?</i>
6	<i>Og`irlilik kuchi tezlanishi deb nimaga aytildi va u turli sistemalarda o`lchanadi?</i>
7	<i>Fizik mayatnik tebranish davri massasiga bog`liqmi?</i>
8	<i>Tebranma harakatni xarakterlovchi kattaliklarni ayting.</i>

4 - LABORATORIYA ISHI
MAVZU: AG`DARMA MAYATNIK YORDAMIDA OG`IRLIK KUCHI
TEZLANISHINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Ag`darma mayatnik yordamida og`irlik kuchi tezlanishini o`lchash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Ag`darma mayatnik
2. Sekundomer
3. Chizg`ich


NAZARIY MUQADDIMA

Ma'lum vaqt oralig`ida takrorlanadigan jarayon yoki harakatga **tebranma harakat deyiladi** [1].

Og`irlik kuchi maydonida kichik amplituda bilan tebranayotgan matematik mayatnik

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}} \quad (1)$$

tenglikdan aniqlanadigan davrga egadir. Bu yerda



l - matematik mayatnik uzunligi

T - tebranish davri, ya'ni bir marta to`liq tebranishga ketgan vaqt

g- og`irlik kuchi tezlanishi

F_t- ipning taranglik kuchi.

1-rasmdan ko`rinishicha og`irlik kuchining (*R*) tashkil etuvchisi

$$F = P \sin \alpha \quad (2)$$

ga teng bo`lib, mayatnikni muvozanat holatiga qaytaradi.

Og`irlik maydonida tebranayotgan fizik mayatnik tebranish davri

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{J}{mgd}} \quad (3)$$

tenglama bo`yicha aniqlanadi.


Bu yerda *d* - aylanish o`qidan og`irlik markazigacha (*S*) bo`lgan masofa

m - mayatnik massasi

J - mayatnik inersiya momenti

Mayatnik inersiya momenti (*J*), tebranish davri (*T*) aylanish o`qidan og`irlik markazigacha bo`lgan masofani (*d*) o`lchangandan so`ng (3) tenglama yordamida og`irlik kuchi tezlanishini hisoblash mumkin. Murakkab shakldagi jism inersiya momentini aniq hisoblash ancha qiyin. Fizik mayatnik tebranish davri kabi davr bilan tebranayotgan matematik mayatnik uzunligi, ya'ni mayatnikning keltirilgan uzunligi tushunchasini kiritsak, u holda (1) formula

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad (4)$$



2-rasm. Tebranayotgan jism

Ko'rinishga ega bo'ladi. Bu yerda $L = \frac{J}{md}$

fizik mayatnikning keltirilgan uzunligi bo`lib (3)va(4)ni solishtirishdan kelib chiqqan. Mayatnik tebranish o`qini oldingi tebranishi o`qi va og`irlik markazi bilan tutashtiruvchi to`g`ri chiziq bo`ylab (L) masofaga siljtilgan vaqtida ham mayatnik yana o`sha davr bilan tebranishni isbotlash mumkin.

Demak, mayatnik bir xil davr bilan tebrangan ikki o`qni to`sak, o`qlar orasidagi masofa L mayatnik keltirilgan uzunligi bo`ladi.


Mayatnik davri (T) va keltirilgan uzunligi (L) o`lchansa (4) formuladan og`irlik kuchi tezlanishini topish mumkin .Ushbu ishda ag`darma mayatnikdan foydalilaniladi. Oddiy ag`darma mayatnik (3-rasm) ikkita osangi va ikkita tayanch chizmali (mayatnik osiladigan nuqtalar) sterjendan iborat.

Mayatnikni birinchi va ikkinchi tayanchlarga osib uni ikkala holda ham bir xil davr bilan tebranishini o`lchash jarayonidagi prizma va posangilarni holatini belgilab olish kerak.

Agarda mayatnik keltirilgan uzunligi uni prizma qirralari orasidagi masofasiga teng bo`lib, uni haqiqiy tebranish davri (T) bo`lsa ham, mayatnikning ikkita tayanchiga qo`yib (ya`ni ikkala o`q bo`ylab) tebratilganda davrlari turlichcha (T_1 va T_2) ga teng bo`lib, ularga L dan farqli L_1 va L_2 keltirilgan uzunliklar mos keladi. Ularga mos tengliklarni qo`yidagicha yoza olamiz:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}}; \quad T_1 = 2\pi \sqrt{\frac{L_1}{g}}; \quad T_2 = 2\pi \sqrt{\frac{L_2}{g}}$$

Yuqoridagi qiymatlarni kvadratga oshirib so`ngra birinchi tenglikni keyingilariga alohida-alohida bo`lsak,



3- rasm. Ag`darma mayatnik

$$LT_1^2 = L_1 T^2, \quad LT_2^2 = L_2 T^2 \quad (5)$$

ga erishamiz. Spteyner teoremasini L_1, L_2 uchun qo`llab

$$L_1 = \frac{J_1}{ml_1} = \frac{J_0 + ml_1^2}{ml_1} = \frac{J_0}{ml_1} + l_1$$

$$L_2 = \frac{J_2}{ml_2} = \frac{J_0 + ml_2^2}{ml_2} = \frac{J_0}{ml_2} + l_2$$

nisbatlarni yoza olamiz.

$L = l_1 + l_2$ - prizmalar orasidagi masofa

Bu qiymatlarni (5) tenglikdagi L_1 , L_2 va L o`rniga qo`yib

$$(l_1 + l_2)T_1^2 = (l_1 + \frac{J_0}{ml_1})T^2$$

$$(l_1 + l_2)T_2^2 = (l_2 + \frac{J_0}{ml_2})T^2 \quad \text{ga ega bo`lamiz}$$

$\frac{J_0}{m}$ ga qisqartirsak

$$l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2 = (l_1 - l_2)T \quad \text{ko`rinishga ega bo`ladi va}$$

$$\text{undan} \quad T = \frac{l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2}{l_1 - l_2} \quad (6)$$


(4) tenglikni (g) ga nisbatan yechib va unga topilgan T ni qiymatini qo`ysak, ya`ni

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{L}{g}} \quad \text{dan} \quad g = \frac{4\pi^2 L}{T^2} \quad \text{yoki}$$

$$g = \frac{4\pi^2 L(l_1 - l_2)}{l_1 T_1^2 - l_2 T_2^2} \quad (7)$$

Ag`darma mayatnik tebranish davrining taqrifiy qiymati uchun (7) tenglama bilan oson va katta aniqlikda (g) ni hisoblash mumkin.

QURILMANING TUZILISHI



Ag`darma mayatnik – sterjenga (A) mustahkam mahkamlangan ikkita prizma (D) va ikkita posangilardan iborat. (C) posangi prizmalar orasida joylashgan, ikkinchi posangi (B) esa sterjen uchiga joylashib, noniusli shkala bo`yicha siljiydi va vint orqali kerakli holatda mahkamlanadi.

Prizmalar orasidagi masofa mayatnik tebranishida uni amplitudasi 5^0 dan oshmasligi kerak, mayatnikning birinchi va ikkinchi prizmalarga osib 50-100 ta tebranish uchun T_1 va T_2 tebranish davrlari topiladi:


4-rasm. Qurilma tuziliishi

bu yerda

t_1 - birinchi prizmaga
uchun ketgan vaqt,
 t_2 - ikkinchi prizmaga
uchun ketgan vaqt.

$$T_1 = \frac{t_1}{n_1}; \quad T_2 = \frac{t_2}{n_2} \quad (8)$$

l_1 va l_2 masofalarni aniqlash uchun mayatnikni asta olib qirrali taglik ustiga qo`yiladi va muvozanat holatiga erishiladi. Muvozanat holatidagi qirra bilan tayanch prizmalargacha bo`lgan masofalar l_1 va l_2 ni beradi (5-rasm). Masofalar chizg`ich bilan 1 mm aniqlikkacha o`lchanadi.



5-rasm.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

- Mayatnikni qirrali tayanchga gorizontal joylashtirib muvozanat holatiga keltiring, l_1 va l_2 masofalarni o`lchang hamda $L = l_1 + l_2$ ni jadvalga yozing.
- Mayatnikni (D_1) prizmaga osib, kichik amplitudali tebranma harakatga keltiring. n_1 ta tebranishga ketgan t_1 vaqtini o`lchang va $T_1 = \frac{t_1}{n_1}$ ni hisoblab jadvalga yozing.
- Mayatnikni (D_2) prizmaga osib yuqoridagi tajribani takrorlang va $T_2 = \frac{t_2}{n_2}$ ni hisoblab jadvalga yozing.
- (7) formula bo`yicha og`irlik kuchi tezlanishini hisoblang va jadvalga yozing.

KUZATISH JADVALI

Nº	l_1	l_2	L	T_1	T_2	g	Δg	E_g
1								
2								
3								
4								

NAZORAT SAVOLLARI

- Fizik mayatnik deb nimaga aytildi?
- Fizik mayatnik keltirilgan uzunligi deb nimaga aytildi?
- Spteyner teoremasini aytib bering va formulasini yozing?
- Og`irlik kuchi tezlanishini ag`darma mayatnik bilan o`lhashda qanday afzalligi bor?
- Fizik va matematik mayatnikning tebranish davrlari formulalarini yozib bering.

*Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi*

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Mayatnikni (D_2) prizmaga osib yuqoridagi tajribani takrorlang va</i>

	$T_2 = \frac{t_2}{n_2}$ ni hisoblab jadvalga yozing
	(7) formula bo`yicha og`irlilik kuchi tezlanishini hisoblang va jadvalga yozing
	Mayatnikni qirrali tayanchga gorizontal joylashtirib muvozanat holatiga keltiring, l_1 va l_2 masofalarni o`lchang hamda $L = l_1 + l_2$ ni jadvalga yozing
	Mayatnikni (D_1) prizmaga osib, kichik amplitudali tebranma harakatga keltiring. n_1 ta tebranishga ketgan t_1 vaqtini o`lchang va $T_1 = \frac{t_1}{n_1}$ ni hisoblab jadvalga yozing

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Fizik mayatnik deb nimaga aytildi?</i>
2	<i>Fizik mayatnik keltirilgan uzunligi deb nimaga aytildi?</i>
3	<i>Spteyner teoremasini ayтиb bering va formulasini yozing?</i>
4	<i>Og`irlilik kuchi tezlanishini ag`darma mayatnik bilan o`lhashda qanday afzalligi bor?</i>
5	<i>Fizik va matematik mayatnikning tebranish davrlari formulalarini yozib bering</i>

5 - LABORATORIYA ISHI

MAVZU: PRUJINALI MAYATNIKNING TEBRANISHINI O`RGANISH

Ishning maqsadi:

Prujinali mayatnik tebranishini o`rganish orqali uning tebranish davri, Prujina bikrligi va so`nar tebranishning logarifmik dekrementini aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Shkalali taglikka o`rnatilgan prujinali mayatnik
2. Sekundomer
3. Har xil massali yuklar

NAZARIY MUQADDIMA

O`zaro bog`lanib, tebrana oladigan jismlar to`plamiga tebranish sistemasi deyiladi. Eng oddiy tebranish sistemasi prujinali mayatnik (1-rasm) ni ko`raylik.

Prujinali mayatnik (m) massali yuklar osilgan elastik prujinadan iborat. Yuk massasiga nisbatan prujina massasining juda kichik bo`lgani uchun hisobga olinmaydi. Prujinaga yuk osilgan vaqtagi ya`ni boshlang`ich uzunligi l_0 ga teng bo`lsa, unga yuk osilgan vaqtida Δl ga cho`ziladi va buni prujinaning statik uzayishi deyiladi. Osilgan yuk og`irligi prujina elastiklik kuchiga teng bo`lgan vaqtda mayatnik muvozanat holatda bo`ladi.


$$mg = k\Delta l \quad (1)$$

Yukni muvozanat vaziyatidan pastga (X) masofaga siljitataylik. Bu vaqtida prujina $\Delta l+x$ ga uzayib, qiymati uncha katta bo`lmaganligi uchun Guk qonuniga bo`ysunadi va bu vaqtida yukka ta`sir etuvchi natijaviy kuch

$$F = mg - k(\Delta l + x)$$

ga teng bo`ladi. (1) ni e`tiborga olganda

$$F = -kx \quad (2) \quad \text{ga teng bo`ladi.}$$



1-rasm.Prujinali mayatnik

(K) ni qaytaruvchi kuch koeffitsienti deyiladi.

Prujinali mayatnikda qaytaruvchi kuch vazifasini elastiklik kuchi, qaytaruvchi kuch koeffitsienti vazifasini prujina bikrligi bajaradi.

Prujina uzunligi bir birlikka o`zgargan vaqtdagi prujinani deformatsiyalovchi kuchga son qiymati jihatidan teng bo`lgan kattalikka prujinaning bikrlik koeffitsienti deyiladi.

Yukni muvozanat vaziyatidan pastga $x_0 = A_0$ masofaga siljilib qo`yib yuborilganida, u vertikal tebranma harakatlanadi. Yukka qiska vaqt oralig`ida havoning qarshilik kuchini hisobga olinmasa ham bo`ladi. U vaqtida yuk harakat tenglamasi Nyutoning ikkinchi qonuniga asosan

Minus ishora siljish kuchga qaramaqarshi yo`nalganligini ifodalaydi. Shunday qilib, yukni muvozanat vaziyatidan siljitelgan vaqtdagi natijaviy kuch siljish kattaligiga proporsional bo`lib muvozanat vaziyati tomon yo`naldi. Bu kuch yukni muvozanat vaziyatiga qaytarishga intilgani uchun u qaytarish kuch, (2) dagi

$$m \frac{d^2x}{dt^2} = -kx \quad (3)$$

ga teng bo`ladi. Bu vaqtdagi sijish (X) vaqtga bog`liq

$$x=A_0 \sin \omega t \quad (4)$$

qonuni asosida o`zgaradi.

Bu yerda A_0 - amplituda, maksimal siljish

ω - tebranishning siklik chastotasi

T - tebranish davri.

(4) tenglama (3) tenglamani yechimi bo`lib, u oddiy garmonik tebranma harakatning differensial tenglamasidir. Yukni x - masofaga siljitish uchun elastik kuchi $F=-kx$ ga qarshi

$$A = \int_0^x (-F) dx = \int_0^x kx dx = \frac{kx^2}{2}$$

ish bajarish kerak. Bu ish tebranish sistemasining potensial energiyasini hosil etishga sarf bo`ladi. Muvozanat vaziyatidagi potensial energiyasi nolga teng. Desak, yukni (x) ga siljitishda sistema

$$E_n = \frac{kx^2}{2} \quad (5)$$

potensiyal energiyaga ega bo`ladi. Yuk muvozanat vaziyatidan eng katta siljigan ($x=A_0$) vaqtda sistema eng katta potensial energiyaga ega bo`ladi, ya`ni

$$E_n = \frac{kA_0^2}{2} \quad (6)$$

Yuk muvozanat vaziyatidan o`tayotgan ($x=0$) vaqtda esa, sistema eng katta kinetik energiyaga ega bo`ladi:

$$E_k = \frac{m\vartheta_{\max}^2}{2}$$

bu yerda $\vartheta = \frac{dx}{dt} = A_0 \omega \cos \omega t$; $\vartheta_{\max} = A_0 \omega$ da


$$E_k = \frac{mA_0^2 \omega^2}{2} \quad (7)$$

Ishqalanish kuchlarini hisobga olinmasa ham bo`ladi, u vaqtda energyaning saqlanish qonuni bo`yicha

$$E_n = E_k \quad \text{yoki} \quad \frac{kA_0^2}{2} = \frac{m}{2} A_0^2 \omega^2$$

$$\text{Undan} \quad k = m\omega^2 \quad \text{yoki} \quad k = m \left(\frac{2\pi}{T} \right)^2 \quad \text{va} \quad T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$$

Shunday qilib, elastik prujinaga osilgan jism tebranish davri yuk og`irligi va amplitudaga bog`liq bo`lmay faqat yuk massasi va prujinaning bikrlik koefitsientiga bog`liq ekan.



2-rasm. So`nar tebranishlar grafigi

Sekin tebranma harakat qilayotgan yukning harakat tezligi qarshilik kuchiga proporsional o`zgaradi.

$$F_{kar} = -r\vartheta = -r \frac{dx}{dt}$$

Tekshirilayotgan vaqt kattaroq (bir necha sekunddan oshiq) bo`lganda esa yukni tebranma harakatiga havo qarshilik ko`rsatish sezilarli bo`lib, vaqt o`tishi bilan tebranish amplitudasi kamaya boradi. Bunday tebranishlar so`nar tebranishlar deyiladi (2-rasm). Shu sababli yukni so`nar tebranma harakat tenglamasi

$$m \frac{d^2x}{dt^2} = -kx - r \frac{dx}{dt} \quad \text{ga teng bo`ladi.}$$

Tebranish amplitudasi ekspotensial qonun bo`yicha kamaya boradi va t vaqt momenti uchun $A = A_0 e^{-\beta t}$ gatengbo`ladi.

A_0 – boshlang`ich amplituda

e – natural logarifm asosi

β - so`nish koefitsienti.

Bir-biridan bir davr orqada qolgan natural logarifmlar ikkita amplitudasining nisbatiga so`nishning logarifmik dekrementi deyiladi.

$$\Delta = \ln \frac{A_{n-1}}{A_n} = \ln \frac{A_0 e^{-\beta t}}{A_0 e^{-\beta(t+T)}} = \beta T$$

Bir davrga orqada qolgan tebranishlar amplitudasi bir-biridan juda oz farq etadi shu sababli so`nish koefitsientini aniqroq hisoblash uchun bir-biridan « n » davrga farq etuvchi tebranish amplitudalari o`lchanadi. Tenglik nisbatlari:

$$\frac{A_0}{A_1} = e^{\beta T}; \quad \frac{A_1}{A_2} = e^{\beta T}; \quad \frac{A_{(n-1)}}{A_n} = e^{\beta T}$$

ni ko`paytirsak

$$\frac{A_0}{A_1} \cdot \frac{A_1}{A_2} \cdot \frac{A_2}{A_3} \cdots \frac{A_{(n-1)}}{A_n} = e^{\beta T} \cdot e^{\beta T} \cdots e^{\beta T} = (e^{\beta T})^n \text{ hosilbo`ladi.}$$

Demak,

$$\ln \frac{A_0}{A_n} = n\beta T \quad (9)$$

(n) qanchalikkattabo`lsa, (β) so`nishko`rsatkichishunchalikaniqhisoblanadi.

QURILMA TUZILISHI VA ISHNI BAJARISH TARTIBI

Silindr shakldagi spiralsimon prujinaga osilgan yuk (m) prujinali mayatnikdir (3-rasm). Yuk tebranish amplitudasini vizer yordamida vertikal shkala bo`yicha hisoblanadi. Bikrlik koeffitsientini statistik metod bilan o`lhash uchun shkala bo`yicha qo`shimcha yuk osilgan vaqtdagi prujina uzayishini o`lhash lozim. Prujina uzayishi va qo`shimcha yuk massasini bilgach, (1) formula yordamida prujinaning bikrlik koeffitsientini hisoblash mumkin:


$$k = \frac{mg}{\Delta l}$$

So`ngra tebranish davri (T) o`lchanadi.

Buning uchun prujinaga osilgan yukni pastga bir necha santimetrga cho`zib qo`yib yuboriladi hamda mayatnik n ta to`liq tebranish uchun ketgan vaqtini sekundomer yordamida o`lchanadi. Davr

$T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$ tenglama bo`yicha hisoblanadi va natijani $T = \frac{t}{n}$ bilan solishtiriladi. So`nishning

logarifmik dekrementini aniqlash uchun prujinaning statik muvozanat holatida ko`rsatgichini shkaladagi vaziyati belgilab olinadi, so`ngra yukni muvozanat holatidan pastga tortib turib shkala bo`yicha boshlang`ich amplitudasi (A_0) o`lchanadi.



3- rasm. Qurilma tuzilishi

Yukni qo`yib yuborish bilan birga sekundomer (n) to`liq tebranishga ketgan vaqni (t) o`lhash uchun yurgiziladi. Bundan tashqari shkala bo`yicha amplitudalardan oxirgisi o`lchanadi. A_0 , A_n va (t), (n) – tebranish sonlari va shuningdek mayatnik tebranishi davrini bilgach (β) va (Δ) larni hisoblash mumkin:

$$\Delta = \beta T; \quad \ln \frac{A_0}{A_n} = n\beta T \quad \Delta = \frac{\ln \frac{A_0}{A_n}}{n}$$

Hamma o`lhashlar kamida uch marta takrorlanadi.

Osilgan yuk massasi va prujinali mayatnik tebranish davrini bilgach (6) formula bo`yicha bikrlik koeffitsienti hisoblab va u statistik metod bilan olingan natijaga solishtiriladi.

$$k = \frac{4\pi^2 m}{T^2} \quad \text{va} \quad k = \frac{mg}{\Delta l}$$

Ma'lum bo'lgan A_0 , A_n , k yordamida mayatnikning boshlang`ich zapas energiyasi va oxirgi holat energiyasi

$$E_0 = \frac{kA_0^2}{2} \quad E_n = \frac{kA_n^2}{2}$$

tenglamalar bo'yicha hisoblanadi. Bu tenglamalardan muhitning qarshiligini yengish uchun sarf bo'lgan energiyani topish mumkin:

$$\Delta E = E_0 - E_n = \frac{k}{2} (A_0^2 - A_n^2)$$

O'lchash natijalarini jadvalga yoziladi.

KUZATISH JADVALI

Nº	K	T= $\frac{t}{n}$	T= $2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$	A₀	N	A_n	Δ	E₀	E_n	ΔE
1										
2										
3										

NAZORAT SAVOLLARI

- Prujinali mayatnik tebranish davri nimalarga bog`liq?
- Prujina bikrligi deb nimaga aytildi?
- So`nuvchi va garmonik tebranish differensial tenglamalarini yozing. Ular nima bilan farq etadi?
- So`nishning logarifmik dekrementi deb nimaga aytildi?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi

1-ilova

Talaba javobi	Tug`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		Prujina uzayishi va qo`shimcha yuk massasini bilgach, (1) formula yordamida prujinaning bikrlik koeffitsientini hisoblash mumkin: $k = \frac{mg}{\Delta l}$
		Bikrlik koeffitsientini statistik metod bilan o'lchash uchun shkala bo'yicha qo`shimcha yuk osilgan vaqtdagi prujina uzayishini o'lchash lozim.
		Yuk tebranish amplitudasini vizer yordamida vertikal shkala bo'yicha hisoblanadi.
		So`nishning logarifmik dekrementini aniqlash uchun prujinaning statik muvozanat holatida ko`satgichini shkaladagi vaziyati belgilab olinadi, so`ngra yukni muvozanat holatidan pastga tortib turib shkala bo'yicha boshlang`ich amplitudasi (A_0) o'lchanadi.
		Yukni qo`yib yuborish bilan birga sekundomer (n) to`liq tebranishga ketgan vaqni (t) o'lchash uchun yurgiziladi. Bundan tashqari shkala bo'yicha amplitudalardan oxirgisi o'lchanadi
		So`ngra tebranish davri (T) o'lchanadi.

		<p>prujinaga osilgan yukni pastga bir necha santimetrga cho`zib qo`yib yuboriladi hamda mayatnik n ta to`liq tebranish uchun ketgan vaqtini sekundomer yordamida o`lchanadi. Davr $T = 2\pi\sqrt{\frac{m}{k}}$ tenglama bo`yicha hisoblanadi va natijani $T = \frac{t}{n}$ bilan solishtiriladi.</p>
		<p>A_0, A_n va $(t), (n)$ – tebranish sonlari va shuningdek mayatnik tebranishi davrini bilgach (β) va (Δ) larni hisoblash mumkin:</p>

“Aqliy hujum” metodi

2- ilova

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Prujinali mayatnik tebranish davri nimalarga bog`liq?</i>
2	<i>Prujina bikrligi deb nimaga aytildi?</i>
3	<i>So`nuvchi va garmonik tebranish differensial tenglamalarini yozing. Ular nima bilan farq etadi?</i>
4	<i>So`nishning logarifmik dekrementi deb nimaga aytildi?</i>
5	<i>Tebranish davri (T) deb nimaga aytildi?</i>
6	<i>Prujinaning bikrlik koeffitsientini qanday hisoblash mumkin:</i>
7	$k = \frac{mg}{\Delta l}$ ni o`lchov birligi.

6- LABORATORIYA ISHI

MAVZU: REZONANS HODISASI YORDAMIDA HAVODA TOVUSH TARQALISH TEZLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Rezonans metodi bilan havodagi tovush to`lqini tarqalish tezligi va to`lqin uzunligini o`lchash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Maxsus asbob
2. Tovush chastotali generator

NAZARIY MUQADDIMA

Biror tashqi kuch ta`siri ostida muvozanat vaziyatidan chetga chiqarilgan va o`z holiga qo`yilgan jismning tebranishi erkin yoki xususiy tebranish deyiladi.


Muhitda tebranishning tarqalishiga to`lqin deyiladi. To`lqin yo`nalishi bu muhitda tebranishlarning tarqalish yo`nalishidir. Zarrachalar yo`nalishiga qarab to`lqinlar bo`ylama va ko`ndalang to`lqinlarga ajraladi.

Agar muhit zarrachalarining tebranma harakati to`lqin tarqalish yo`nalishi bilan mos kelsa, bunday to`lqin bo`ylama to`lqin deyiladi. Bo`ylama to`lqin navbat bilan keluvchi qator zichlanish va siyraklanishlardan iborat (1-rasm).

1-rasm

Agar muhit zarrachalarining tebranma harakati to`lqin tarqalish yo`nalishiga perpendikulyar yo`nalgan bo`lsa, bunday to`lqin ko`ndalag to`lqin deyiladi. Ko`ndalang to`lqin navbat bilan keluvchi do`ngliklar va botiqliklardan iborat (2-rasm).

siqilish cho'zilish



Qattiq jismlarda jismning shakli va hajmi o`zgarganda elastik kuchlar vujudga keladi. Shuning uchun qattiq jismlarda bo`ylama va ko`ndalang to`lqinlar tarqalishi mumkin. Gaz va suyuqliklarda esa elastik kuchlar bo`Imaganligi sababli ko`ndalang to`lqinlar tarqala olmaydi.

2-rasm

Havodagi tovush to`lqini-bo`ylama to`lqinidir. Bir davrga teng bo`lgan vaqt ichida tebranishning muhitda tarqalish masofasi to`lqin uzunligi deb ataladi. Tebranishning tarqalish tezligi (ϑ) chastotasi (v) va to`lqin uzunligi (λ) orasidagi bog`lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.


$$\lambda = \frac{\vartheta}{v} = \vartheta T \quad (1)$$

T- tebranish davri.

QURILMANING TUZILISHI VA O`LCHASH METODI

Ushbu laboratoriya ishida maxsus asbob ishlataladi. U baland metall shtativga (4) mahkamlangan, diametri 30 mm, uzunligi 1- metr shisha nay (1) va rezina trubasi (3) orqali tutashgan suv rezervuari (2) dan iborat (3-rasm).

Suvli rezervuar metall sterjen bo`ylab yuqori va pastga harakat etishi va vint (5) yordamida aniq balandlikda mahkamlanishi mumkin. Shisha naydagi suv sathini aniqlash uchun shtativning ikkinchi tomoniga masshtabli chizg`ich (6) o`rnatilgan. Shisha nayning ochiq uchiga 3-rasmida ko`rsatilganidek qilib tovush generatori bilan ulangan dinamik o`rnatilgan. U tovush generatori bergen chastotasida tovush to`lqinlarini tarqatadi. Tovush generatori hosil qilgan tovush chastotalari telefon orqali mexanik tebranishga aylanadi. Tovush to`lqinining havoda tarqalish tezligini o`lchash usuli turg`un to`lqin xossasiga asoslangandir. Tarqalayotgan va biror muhitdan qaytgan to`lqinlarning ustma-ust tushishi natijasida hosil bo`lgan to`lqin turg`un to`lqin deyiladi (3-rasm).




Tebranish amplitudalari maksimal bo`lgan nuqtalar turg`un to`lqinning do`ngligi, tebranish amplitudalari minimal bo`lgan nuqtalar esa turg`un to`lqinning tuguni deyiladi. Akustik zichligi kattaroq bo`lgan muhitdan qaytgan to`lqin fazasi qarama-qarshi kattalikka o`zgarish natijasida yarim to`lqin uzunligi yo`qoladi. Naydag'i havo o`zgarish natijasida yarim to`lqin uzunligi yo`qoladi.

3-рasm. Qurilma tuzilishi

Naydagи havo ustuni ma'lum bir uzunlikka erishganda havo ustuni bo'ylab suvgaga tomon yo`nalgan tovush to`lqini bilan suv sathidan qaytgan tovush to`lqinlarining fazalari qarama-qarshi bo`lib, bu to`lqinlar qo'shilishi natijasida natijaviy amplituda eng katta qiymatga erishgan holdagini tovush kuchayadi. Bu esa akustik rezonans hodisasiidir.

Rezonans deb, biror jismni tebranishga majbur etuvchi kuch chastotasi jismning xususiy tebranish chastotasiga yaqin kelganda, jism tebranish amplitudasi keskin ortib ketishi hodisasiga aytildi.



Ushbu hodisada generatorni tovush tebranish chastotasi, naydagи havo ustuning xususiy chastotasiga yaqinlashadi, va havo ustunini tebranishi maksimal amplitudaga erishadi. Tovush to`lqinining suv sirtidan qaytgan nuqtasida to`lqin tuguni, nay ochiq qismida esa to`lqin do`ngligi hosil bo`ladi. Tovush to`lqinining birinchi kuchayishi naydagи havo ustuning uzunligi tovush to`lqini

uzunligining $\frac{\lambda}{4}$ ga teng bo`lganda ro`y beradi. Har gal havo ustunida to`lqin uzunligining tok sondagi chorak qismi joylashsa, shisha nay ichidagi havo ustuni intensiv tovush chiqaradi (**4-rasm**).

$$ya'ni: \quad (2n-1) \frac{\lambda}{4} = L + 0,8R \quad (2)$$

bunda L - rezananslovchi havo ustuning uzunligi

λ - tovush to`lqin uzunligi

n - rezonanslovchi havo ustuning tartib nomeri

R - havo ustuni radiusi, ya'ni havo ustuni joylashgan nay radiusi

(2) chi tenglamadan

$$\lambda = \frac{4(L + 0,8R)}{2n - 1} \quad (3)$$

tovush to`lqinining uzunligini topish mumkin. (1) va (3) tenglamalardan foydalanib t^0 - temperaturadagi tovush tarqalish tezligini aniqlash mumkin:

$$\begin{aligned} & \vartheta = \lambda v && \text{yoki} \\ & \vartheta = \frac{4(L + 0,8R)v}{2n - 1} && (4) \end{aligned}$$

v - tovush chastotasi o`qituvchi tomonidan berilib, generator shkalasida aniqlanadi.

Tebranish chastotasini bilib va havo ustuni uzunligini (5) chizg`ich yordamida o`lchangan tovush to`lqin uzunligi hamda uni tarqalish tezligini aniqlash mumkin.

Tovush to`lqininig havoda tarqalish tezligi temperaturaga ham bog`liq bo`ladi

$$\vartheta_0 = \frac{\vartheta}{\sqrt{1 + \beta t^0}} \quad (5)$$

bu yerda ϑ_0 - 0^0 S da tovush tarqalish tezligi

β - tovush tezligining temperatura koeffitsienti,

ϑ - t^0 S da tovush tarqalish tezligi

$\beta = 0,004$ 1/K ga teng.

Tovush to`lqininig 0^0 S da havoda tarqalish tezligi quyidagi formula bo`yicha hisoblandi:

$$\vartheta_0 = \frac{4(L + 0,8R)v}{(2n - 1)\sqrt{1 + \beta t^0}} \quad (6)$$

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Rezervuarni yuqoriga harakatlantirib, naydagи suv sathi maksimal ko`tarilishiga erishing. Generatori ulang. Tovush generatori yordamida o`qituvchi belgilagan v - chastotali tovush tebranishlari hosil etiladi.
2. Suv rezervuarini asta pastga yoki yuqoriga kuchaygan tovush eshitilguncha siljitaladi va birinchi tovush kuchaytiruvchi havo ustuning uzunligi aniqlanadi.
3. Xuddi shu yo`l bilan ikkinchi, uchinchi va x.k rezonans beruvchi havo ustunlarining uzunliklari o`lchanadi va jadvalga yoziladi.
4. Olingan natijalardan foydalanib (3) tenglama yordamida tovush to`lqinining uzunligi va (6) tenglama yordamida havoda tarqalish tezligi har bir tajriba uchun hisoblanadi va jadvalga natija yoziladi.
5. Tajribada aniqlangan tovush tarqalish tezlikning jadvaldagи qiymati bilan solishtirilib nisbiy xato

$$E_g = \frac{\vartheta_0 - \vartheta_\infty}{\vartheta_\infty} \text{ hisoblanadi.}$$

KUZATISH JADVALI

Nº	L	v	t°	θ₀	θⱼ	Δθ	λ	Eg
1								
2					332 m/c			
3								
4								

NAZORAT SAVOLLARI

1. Rezonans deb nimaga aytildi va u qanday sharoitda kuzatiladi?
2. Erkin yoki xususiy tebranish deb qanday tebranishga aytildi?
3. To`lqin deb nimaga aytildi, ko`ndalang va bo`ylama to`lqin debchi?
4. To`lqin tarqalish tezligi, davri, chastotasi va to`lqin uzunliklari orasida qanday bog`lanish bor?

*Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi*

1-illova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Suv rezervuarini asta pastga yoki yuqoriga kuchaygan tovush eshitilguncha siljtiladi va birinchi tovush kuchaytiruvchi havo ustunining uzunligi aniqlanadi</i>
		<i>Olingan natijalardan foydalanib (3) tenglama yordamida tovush to`lqinining uzunligi va (6) tenglama yordamida havoda tarqalish tezligi har bir tajriba uchun hisoblanadi va jadvalga natija yoziladi</i>
		<i>Rezervuarni yuqoriga harakatlantirib, naydagи suv sathi maksimal ko`tarilishiga erishing. Generatorni ulang. Tovush generatori yordamida o`qituvchi belgilagan v - chastotali tovush tebranislari hosil etiladi</i>
		<i>Xuddi shu yo`l bilan ikkinchi, uchinchi va x.k rezonans beruvchi havo ustunlarining uzunliklari o`lchanadi va jadvalga yoziladi</i>
		<i>Tajribada aniqlangan tovush tarqalish tezlikning jadvaldagи qiymati bilan solishtirilib nisbiy xato</i> $E_g = \frac{\vartheta_0 - \vartheta_\infty}{\vartheta_\infty}$ <i>hisoblanadi.</i>

“Aqliy hujum” metodi

2-illova

Nº	Nazariy savollar
1	Rezonans deb nimaga aytildi va u qanday sharoitda kuzatiladi?
2	Erkin yoki xususiy tebranish deb qanday tebranishga aytildi?
3	To`lqin tarqalish tezligi, davri, chastotasi va to`lqin uzunliklari orasida qanday bog`lanish bor?
4	Tovush tarqalish tezligi temperaturaga qanday bog`liq?
5	Qanday to`lqinga turg`un to`lqin deyiladi va u qanday hosil bo`ladi?
6	Nima uchun suyuqlik va gazlarda ko`ndalang to`lqin hosil bo`lmaydi?
7	Tovush tarqalish tezligi temperaturaga qanday bog`liq?
8	Rezonans usuli bilan tovush tarqalish tezligini aniqlash formulasini yozing.

7 - LABORATORIYA ISHI

MAVZU: EGILISH BO`YICHA YUNG MODULINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Egilish elastik deformatsiyasini o`rganish va Yung modulini aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. *Egilish bo`yicha maxsus asbob*
2. *Tekshiriladigan nusxalar*
3. *Yuklar*
4. *Shtangensirkul*
5. *Chizg`ich*

NAZARIY MUQADDIMA

Deformatsiya va uning turlari

Qattiq jismlar mexanikasida absolyut qattiq jism tushunchasidan foydalanamiz. Lekin tabiatda absolyut qattiq jism yo`q, chunki hamma jismlar biror kuch ta`sirida o`zining shakli va hajmini o`zgartiradi, ya`ni deformatsiyalanadi.

Deformatsiya ikki turga bo`linadi: Tashqaridan qo`yilgan kuchlarning ta`siri to`xtatilgandan keyin yo`qolib ketuvchi deformatsiya **elastik deformatsiya deyiladi**. Kuchlarning ta`siri to`xtagandan so`ng jism o`zining avvalgi holatini tiklanmasa bunday deformatsiya **plastik deformatsiya deb ataladi** [1].

Deformatsiyalanish jarayonida qattiq jismni tashkil etuvchi zarrachalar (molekulalar va atomlar) ning ma'lum qismi bir-birlariga nisbatan siljiydi. Bunday siljishga qattiq jism tarkibidagi zaryadlangan zarrachalar orasidagi elektromagnit kuchlari qarshilik ko`rsatadi. (Zaryadlangan zarrachalar orasidagi o`zaro ta`sir kuchlari elektromagnit ta`sir kuchlari deb ataladi). Natijada deformatsiyalanayotgan qattiq jismda son jihatidan tashqaridan qo`yilgan kuchga teng, lekin qarama-qarshi yo`nalishga ega bo`lgan ichki kuch-elastiklik kuchi vujudga keladi.

Elastik deformatsiyada, tashqi kuchlar hosil bo`lgan ichki kuchlarni natijalovchi jismni istalgan kesimida jismga ta`sir etayotgan tashqi kuch bilan muvozanatlashadi. Shu sababli elastik deformatsiyada ichki elastik kuchlarni jismga qo`yiladigan tashqi kuch qiymatiga orqali aniqlash mumkin.


Ichki elastik kuch qiymati kuchlanish bilan xarakterlanadi. Yuza birligiga (S) ta`sir etayotgan natijaviy elastik kuchga (F) kuchlanish deyiladi.

$$\sigma = \frac{F}{S} \quad (1) \quad \text{N/m}^2 \text{ larda o`lchanadi.}$$


Kuch (S) yuzaga normal bo`ylab yo`nalgandagi kuchlanishi normal, shu yuzaga urinma bo`ylab yo`nalgandagina tangensial kuchlanish deyiladi. Bir birlik boshlang`ich uzunligi yoki hajmiga to`g`ri kelgan absolyut uzayishiga (Δx) nisbiy deformatsiya deyiladi.

$$\varepsilon = \frac{\Delta X}{X} \quad (2)$$

bu yerda $\Delta X = |X_1 - X_0|$ jism o`lchami o`zgarishning absolyut qiymati.



1-rasm. Guk qonuni: Δl qo`yilgan kuchga to`g`ri proporsional



2-rasm. Qattiq jismlar uchun kuch va absolyut uzayish orasidagi bog`lanish [1].


Guk tajriba orqali elastik deformatsiyalanganda jismdagi kuchlanish nisbiy deformatsiyaga to`g`ri proporsianalligini aniqlanadi.

$$\sigma = E \cdot \epsilon \quad (3)$$

bu yerda E – proporsionallik koefitsienti bo`lib elastiklik moduli yoki Yung moduli deyiladi.

(3) - formula istalgan ko`rinishdagi elastik deformatsiya uchun Guk qonuni ifodalaydi.


Yung moduli (E) har bir modda uchun o`zgarmas bo`lib, uni qiymati faqat deformatsiyalananayotgan jism materialiga bog`liq.



3-rasm. Mexanik kuchlanish turlari
a) cho`zilish;
b) sifilish;
v) siljish

Agar $\epsilon=1$ ga teng bo`lsa, u vaqtida $\sigma=E$ bo`ladi, ya`ni Yung moduli bir birlik nisbiy deformatsiya hosil etuvchi mexanik kuchlanish son qiymatiga teng.

Deformatsiya kuchlanishiga proporsional bo`lgandagi kuchlanish chegarasi proporsionallik chegarasi deyiladi (A nuqta 6-rasm).



6-rasm. Deformatsiya’ni kuchlanishga bog`liqligi grafigi

Deformatsiya orttirilganda elastik xarakteri saqlanadi ammo σ va E orasidagi bog`lanishni ifodalovchi grafik to`g`ri chiziqliligi buziladi. Plastik deformatsiya boshlanguncha bo`lgan eng katta kuchlanish elastiklik chegarasi deyiladi (B nuqta). Elastiklik chegarasidan kuchlanish chekli qiymatdan ortsa, jismda qoldiq deformatsiya paydo bo`ladi, ya`ni jismdan deformatsiyalovchi kuch olingach, u o`zining dastlabki holiga qaytmaydi.

Plastik deformatsiya o'quvchanlik chegarasi bilan xarakterlanadi (D - nuqta). O'quvchanlik chegarasidagi kuchlanishlarda tashqi kuch oshirilmasa ham deformatsiya o'rta boradi.


Jismning yemirilishigacha (sinishi, uzulishi) bo'lgan eng katta kuchlanishga mustahkamlik chegarasi deyiladi (E – nuqta).

Qattiq jismlar uchun Yung moduli muhim elastik o'zgarmas kattalik bo`lib, uni aniqlash ushbu ishning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu ishda Yung moduli egilish bo`yicha aniqlanadi.

STERJENNI EGILISHI BO`YICHA YUNG MODULINI ANIQLASH

Jism egilishi yoki siqilishi uni shakli deformatsiyalanganini ifodalaydi. Agar ko`ndalang kesimi to`gri to`rtburchak bo`lgan AB sterjenni ikkita (m va n) prizmalar ustiga qo`yib uning o`rtasiga R kuch bilan ta'sir qilsak, sterjen egiladi (7-rasm, a).

Bu egilishda sterjenning ustki qatlamlari siqilib (7-rasm, B) ostki qatlamlari cho`ziladi. Buning natijasida sterjenni dastlabki holiga qaytaradigan elastiklik kuchi ham shuncha katta bo`ladi. O`rtasidagi neytral qatlamdan uzoqlashgan (NN) sari, elastiklik kuchlari ko`paya boradi.




Neytral qatlamga yaqin qatlamlarda bu kuchlar juda oz bo`ladi, praktik tomonidan ularning ahamiyati yo`q. Shuning uchun amalda egilmaydigan qilib olingan yaxlit sterjen o`rniga kavak sterjenlarni muvaffaqiyat bilan ishlatish mumkin. Sterjen o`rtasining yuk qo`yilmaganda va yuk qo`yilganida vaziyatlarining oralig`ini egilish masofasi (λ - strela progiba) deyiladi.

7- rasm. Egilish deformatsiyasi

Egilish masofasi (λ) egilish deformatsiyasini o'lchami bo`lib, Guk qonuni bo`yicha

$$\lambda = \alpha F \quad (5)$$

bu yerda α - proporsionallik koeffitsientni bo`lib, moddaning elastik xossalariiga, jism o'lchami va ko`ndalang kesimi shakliga bog`liq.



F – deformatsiyalovchi kuch

$F = mg$
 kattaligi yuk og`irlilik kuchi bilan aniqlanadi.
 Bunda m – yuk massasi, g – erkin tushish tezlanishi.

Nazariy tomonidan

8-rasm. Egilish masofasi.

$$\alpha = \frac{l^3}{4Eab^3} \quad (6)$$

1 - sterjenning tayanch nuqtalari orasidagi masofa,

a - sterjenning eni

b - sterjenning qalinligi

E - Yung moduli

(6) dagi α ning qiymatini (5) ga qo`ysak:

$$\lambda = \frac{mgl^3}{4Eab^3} \quad (7)$$

bundan

$$E = \frac{mgl^3}{4ab^3\lambda} \quad (8)$$

bu ishda Yung moduli (8) formula bo`yicha hisoblanadi. Bu kattalikni hisoblash egilish masofasi, sterjen o`lchamlari (a,b,l) metrlarda, yuk og`irligi N larda olinadi.

Eslatma: (8) formula hisobini osonlashtirish uchun quyidagi ko`rinishda olinadi:

$$E = K \frac{mg}{\lambda} \quad \text{6y} \quad \text{epda} \quad K = \frac{l^3}{4ab^3}$$


bir marta hisoblanadi.

Hisoblar «SI» birliklar sistemasida olinadi.

ASBOBNING TAVSIFI

1–Qurilma.

Bu asbob mustahkam to`g`ri burchakli yog`och ramkadan iborat (9- rasm).



9-rasm. Asbob tuzilishi

Ramkaning (1) vertikal ustunchalariga bir – biriga parallel va bir xil balandlikda uch qirrali ikkita metall prizmalar (2) tik o`rnatilgan, bu prizmalar ustiga tekshiriladigan nusxa qo`yiladi (to`g`ri burchakli kesimga ega bo`lgan sterjen 3).

Ramkaning gorizontal yuqori tomoni o`rta qismiga metalldan yasalgan kesma va noniusga ega mufta (4) o`rnatilgan. Mufta bo`ylab millimetrik bo`linmalarga ega bo`lgan kichik sterjen bemalol harakatlana oladi.

Sterjen ustki qismiga yuklar qo`yish uchun metall stolcha pastki uchiga uch qirrali metall prizma (6) o`rnatilgan. Tayanch prizmalar (2) parallel qilib o`rnatilgan. Bu prizma qirrasi tekshiriladigan jismga (3) tegib turadi. Nonius har bir yuk (F) qo`yilgandagi egilish masofasi (λ) o`lchash uchun ishlatalidi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Shtangensirkul bilan «a» va «b» larni kamida 5 marta har xil joyidan o`lchang va ularning o`rtachasini jadvalga yozing.
2. Prizma qirralari orasidagi masofani (l) o`lchang va jadvalga yozing.
3. Tekshiriladigan sterjenni tayanch prizmalar ustiga qo`ying va uni o`rta qismiga tayanch prizmalarga parallel (yuk qo`yiladigan metall sterjen bilan yog`och sterjen orasiga) alyumin prizmani qo`yib nonius bo`yicha nolinchi hisobni oling. Boshlang`ich egilish (λ) masofasini unga ta`sir etuvchi sterjen va yog`och og`irligi hosil etadi.
4. Asta sekin metall sterjen stolchasiga yuklar qo`ya borib, nonius bo`yicha birinchi hisoblarni oling ($n_0, n_1, n_2 \dots$). Nonius ko`rsatkichi farqi ($n_2 - n_1$) egilish masofa qiymatini beradi. ($\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$).
5. Qo`yilgan yuklarni kamaytira borib yana nonius bo`yicha ikkilamchi hisoblarni ($n_1^1, n_2^1 \dots$) oling va egilish masofalarini (λ_1^1, λ_2^1) aniqlang.
6. Birlamchi va ikkilamchi egilish masofasini o`rtacha hisobi qiymatini $\lambda_{y_{pr}} = \frac{\lambda + \lambda}{2}$ dan topib jadvalga yozing.
7. Sterjen ustidan hamma qo`shimcha yuklarni olib, yana asbobni nolinchi holatini aniqlang.
8. Yung moduli qiymatini (8) formula yordamida har bir tajriba uchun alohida toping va ularni o`rtacha arifmetik qiymatini

$$E = \frac{E_1 + E_2 + \dots + E_n}{n}$$

formuladan aniqlang.

9. E ni topilgan qiymatlarini jadvaldagagi qiymati bilan solishtiring va o`lhash nisbiy xatosini aniqlang.

KUZATISH JADVALI

Nº	M	Yuk qo`yganda		Yuk olinganda		$\lambda_{o`rt}$	I	a	b	E	ΔE	E_E
		n₀	n_i	n₀¹	n₁¹							
1												
2												
3												
4												

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kuchlanish nima va u qanday birliklarda o`lchanadi?
2. Deformatsiya o`lchami deganda nimani tushunasiz?
3. Elastiklik chegarasi deb nimaga aytildi? Mustahkamlik chegarasi debchi?
4. Yung moduli nima va uning fizik ma`nosi qanday?
5. Egilishda sterjen tolalari qanday deformatsiyalanadi?
6. Egilishda yaxlit sterjen o`rniga kavak sterjen ishlatish mumkinmi?
7. Hisoblash formulasini yozib bering va undagi simvollarni aytib bering.
8. Asbob tuzilishi va ishslashini tushuntiring.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi

1-ilova

Talaba javobi	To`gri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Prizma qirralari orasidagi masofani (l) o`lchang va jadvalga yozing</i>
		<i>Asta-sekin metall sterjen stolchasiga yuklar q`iya borib, nonius bo`yicha birinchi hisoblarni oling ($n_0, n_1, n_2 \dots$). Nonius ko`rsatkichi farqi ($n_2 - n_1$)</i>

		<i>egilish masofa qiymatini beradi. (λ_1, λ_2, λ_3)</i>
		<i>Sterjen ustidan hamma qo`shimcha yuklarni olib, yana asbobni nolinchi holatini aniqlang</i>
		<i>Qo`yilgan yuklarni kamaytira borib yana nonius bo`yicha ikkilamchi hisoblarni (n_1^1, n_2^1 ...) oling va egilish masofalarini (λ_1^1, λ_2^1) aniqlang</i>
		<i>E ni topilgan qiymatlarini jadvaldagi qiymati bilan solishtiring va o`lchash nisbiy xatosini aniqlang</i>
		<i>Tekshiriladigan sterjenni tayanch prizmalar ustiga qo`ying va uni o`rta qismiga tayanch prizmalarga parallel (yuk qo`yiladigan metall sterjen bilan yog`och sterjen orasiga) alyumin prizmani qo`yib nonius bo`yicha nolinchi hisobni oling. Boshlang`ich egilish (λ) masofasini unga ta`sir etuvchi sterjen va yog`och og`irligi hosil etadi</i>
		<i>Birlamchi va ikkilamchi egilish masofasini o`rtacha hisobi qiymatini</i> $\lambda_{\text{ypr}} = \frac{\lambda + \lambda}{2}$ <i>dan topib jadvalga yozing</i>
		<i>Yung moduli qiymatini (8) formula yordamida har bir tajriba uchun alohida toping va ularni o`rtacha arifmetik qiymatini</i> $E = \frac{E_1 + E_2 + \dots + E_n}{n}$ <i>formuladan aniqlang</i>
		<i>Shtangensirkul bilan «a» va «b» larni kamida 5 marta har xil joyidan o`lchang va ularning o`rtachasini jadvalga yozing</i>

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Kuchlanish nima va u qanday birliklarda o`lchanadi?</i>
2	<i>Deformatsiya o`lchami deganda nimani tushunasiz?</i>
3	<i>Elastiklik chegarasi deb nimaga aytildi? Mustahkamlit chegarasi debchi?</i>
4	<i>Yung moduli nima va uning fizik ma`nosi qanday?</i>
5	<i>Egilishda sterjen tolalari qanday deformatsiyalanadi?</i>
6	<i>Egilishda yaxlit sterjen o`rniga kavak sterjen ishlatish mumkinmi?</i>
7	<i>Hisoblash formulasini yozib bering va undagi simvollarni aytib bering.</i>
8	<i>Asbob tuzilishi va ishlashini tushuntiring.</i>

8 - LABORATORIYA ISHI

**MAVZU: PUAZEYL USULI BILAN ICHKI ISHQALANISH (YOPISHQOQLIK)
KOEFFITSIENTINI SUVNI KAPILLYAR NAYCHADAN OQIZISH YORDAMIDA ANIQLASH
Ishning maqsadi:**

Suvni ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

- 1. Kapillyar naychali maxsus qurilma.**
- 2. Menzurka**
- 3. Sekundomer**

NAZARIY MUQADDIMA


Qovushqoqlik

Biror rangsiz yopishqoq suyuqlik (masalan glitserin) solingan naychaga rangli suyuqlik quyib kranni ochsak rangli suyuqlikning o`rtasi cho`zinchoq (konussimon) shaklni egallaydi (1-rasm).


Chunki suyuqlikning qatlam tezliklari katta bo`lib idish devorlariga yaqinlashgan sari tezligi kamayadi va idish devorida nolga teng bo`ladi. Agarda suyuqlikni idish devoriga nisbatan parallel bir necha qatlamlardan iborat deb qarasak qatlam tezliklari 2-rasmdagidek bo`ladi.

Idish devoriga yopishgan birinchi qatlam tezligi nolga teng bo`ladi, chunki yopishqoqlik kuchi katta. Ikkinci qatlam birinchiga qaraganda ma'lum tezlikda harakatlanib ishqalanish kuchi hosil bo`ladi.

Uchinchi qatlam ikkinchi qatlamdan kattaroq tezlik bilan harakatlanadi va hokazo. Shunday qilib bir - biriga yopishib harakatlanayotgan qatlamlar orasida tangensial ichki ishqalanish kuchlari vujudga kelib, qatlam tezliklarini o`zgartiradi.



1-rasm. Qovushqoqlikni aniqlash. Suyuqlik qatlamlarining harakati.



2-

rasm

Ichki ishqalanishga ega bo`lgan suyuqlik **yopishqoq suyuqlik** deyiladi.

ΔX masofadagi qatlam tezliklarining o`zgarishi. Qatlamlari bir-birini ustida harakatlanib yo`nalishini o`zgartirmasdan harakatlanadigan suyuqlik harakati qatlami yoki Laminar oqim deyiladi. Qatlamlar orasidagi bir-birlik masofada suyuqlik tezligi o`zgarishini xarakterlaydigan (masofa harakat tezligiga tik yo`nalgan bo`ladi) kattalikka tezlik gradienti deyiladi.

Faraz etaylik, qatlamlar tezliklari ϑ_1 va ϑ_2 bo`lib, ular orasidagi masofa ΔX bo`lsa tezlik gradienti

$$\frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{\Delta X} = -\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X}; \quad \left[\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right] = C^{-1} \quad (1)$$

Bunda $\Delta \vartheta = \vartheta_1 - \vartheta_2$ esa ΔX masofadagi tezlikning o`zgarishi.

Agar $\Delta X=1m$ bo`lsa $\left[\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right] = \frac{[\Delta \vartheta]}{M}$ bo`lganda, tezlik gradienti bir-biridan bir birlik masofada joylashgan suyuqlik qatlamlar orasidagi tezlik o`zgarishiga tengdir. Nyuton qatlamlar orasidagi vujudga kelgan ichki ishqalanish kuchi "F", tezlik gradienti $\left(\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \right)$ va ishqalanuvchi qatlam yuzalariga to`g`ri proporsional ekanligini ko`rsatadi: ya`ni tangensial ichki ishqalanish kuchlari

$$F = \eta \cdot \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \cdot \Delta S \quad (2)$$

Bunda suyuqlikning η fizik xususiyati va tabiatiga bog`liq bo`lgan koeffitsienti bo`lib, unga ichki ishqalanish koeffitsienti yoki suyuqlik yopishqoqligi deyiladi. (2)- formuladan

$$\eta = \frac{F}{\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} \cdot \Delta S} \quad (3)$$

Bu yerda $\frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} = 1 \text{ c}^{-1}$ va $\Delta S = 1 \text{ m}^2$ ga teng bo`lganda η son qiymati jihatdan ta'sir etuvchi kuch (F) ga teng ekanligi kelib chiqadi. Demak, yopishqoqlik koeffitsienti tezlik gradienti bir birlikka o`zgarganda bir birlik yuzalar orasida vujudga kelgan ichki ishqalanish kuchiga teng ekan.

Ichki ishqalanish koeffitsientini teskari qiymatiga teng bo`lgan kattalik oquvchanlik koeffitsienti deyiladi, ya'ni

$$\varphi = \frac{1}{\eta}$$

Yopishqoqlik koeffitsientini SGS sistemasida "Puaz" (Fransuz fizigi Puazeyli sharafiga qo`yilgan) bilan o`lchanadi. Ishqalanuvchi qatlama yuzalari 1 cm^2 , bo`lib, tezlik gradienti bir birlikka o`zgarganda ichki ishqalanish kuchi bir dina bo`lgan vaqtdagi yopishqoqlik koeffitsienti bir Puazga teng bo`ladi.

Agar (3) formulaga

$$\left. \begin{array}{l} F = 1 \text{ дина} \\ \frac{\Delta \vartheta}{\Delta X} = 1 \text{ c}^{-1} \\ \Delta S = 1 \text{ cm}^2 \end{array} \right\} \text{larni qo`ysak}$$

$$\eta = 1 \frac{\text{дина} \cdot \text{сек}}{\text{см}^2} = 1 \text{ puaz bo`ladi.}$$

SI sistemada yopishqoqlik $\frac{H \cdot c}{M^2}$ da o`lchanadi.

$$1 \text{ puaz} = 0,1 \frac{H \cdot c}{M^2}$$

$$0,01 \text{ puaz} = 1 \text{ santipuaz.}$$

$20,5^0S$ dagi toza suvning yopishqoqligi 1 santipuazga, 0^0S da esa 1,792 santipuazga teng.

Suyuqlikning yopishqoqligi temperaturaga bog`liq bo`lib, temperatura oshgan sari yopishqoqlik kamaya boradi. Bu bog`lanish turli suyuqliklar uchun turlicha bo`lib, tajriba yo`li bilan aniqlanadi.

Yopishqoqlik koeffitsienti (η) ni aniqlash uchun ko`pincha kapillyar naychadan oqayotgan suyuqlikdan foydalaniladi. Faraz etaylik, balandligi "H" bo`lgan A idishdagi suyuqlik, radiusi "r" va uzunligi "l" bo`lgan kapillyar naychadan tekis harakatlanayotgan bo`lsin.

U holda, "t" sekundda oqib chiqqan suyuqlik hajmi (V) quyidagi puazeyl formulasiga asosan aniqlanadi.

$$V = \frac{\pi r^4 (P_1 - P_2) \cdot t}{8 \cdot \eta \cdot l} \quad (5)$$

bundan

$$\eta = \frac{\pi r^4 (P_1 - P_2) \cdot t}{8 \cdot V \cdot l} \quad (6)$$

η - yopishqoqlik koeffitsienti

$P_1 - P_2$ - suyuqlik oqib chiqqan vaqtdagi bosimlar farqi bo`lib, u quyidagicha hisoblanadi:

$$P_1 - P_2 = \left(\frac{h_1 + h_2}{2} - h \right) \cdot \rho \cdot g \quad (7)$$

Bunda h_1 - stol sirtidan A idishdagi suyuqlik sathigacha bo`lgan dastlabki balandlik.

h_2 - tajribadan keyingi suyuqlik sathigacha bo`lgan balandlik

h - stol sirtidan kapillyar naycha o`rtasigacha bo`lgan balandlik

ρ - tekshirilayotgan suyuqliknинг berilgan temperaturadagi zichligi

g - og`irlilik kuchi tezlanishi.

Bu (7) ifodani (6) ga qo`yib yopishqoqlik koeffitsientini hisoblash formulasini hosil qilamiz

$$\eta = \frac{\pi \eta^4 \left[\frac{h_1 + h_2}{2} - h \right] \cdot \rho g t}{8 \cdot l \cdot V} \quad (8)$$

Yuqorida aytganimizdek suyuqliklar va gazlarda qovushqoqlik deb nomlanuvchi ichki ishqalanish mavjud. Qovushqoqliknı suyuqlik qatlamlarining bir biriga nisbatan harakatidagi ishqalanish deb tushunish mumkin. Suyuqliklarda qovushqoqlik molekulalarning o`zaro tortishish kuchi tufayli, gazlarda esa molekulalarning to`qnashishi tufayli yuzaga keladi.

Har xil muhitlarning qovushqoqligi har xil bo`ladi. Suyuqliklar gazlarga qaraganda ko`proq qovushqoqlikka ega bo`ladi. Qovushqoqlik miqdor jihatdan qovushqoqlik koeffitsienti η (grekcha "eta" harfi) kattalik bilan beriladi. Bu kattalik quyidagicha aniqlanadi. Ikkita yassi plastinka orasida suyuqlik bor. Birinchi plastinka qo`zg`almas, ikkinchisi esa birinchisiga parallel holda harakatlanadi. Shuning uchun suyuqliknинг yuqori qatlami yuqori plastinkaning tezligiga teng tezlik bilan harakatlanadi, pastki qatlama esa qo`zg`almas qoladi. Pastki qatlama o`zidan yuqori qatlama tezligini kamaytiradi, bu qatlama esa o`zidan yuqoridagi qatlama va h.k. Shunday qilib, suyuqliknинг harakat tezligi 0 dan ϑ gacha chiziqli o`zgaradi. Tezlik o`zgarishining masofaga nisbati ϑ/l tezlik gradienti deyiladi. Yuqorigi plastinani harakatga keltirish uchun kuch talab qilinadi. Aniq bir suyuqlik uchun bu kuch F plastinka yuzasiga A va tezligiga ϑ to`g`ri proporsional, plastinkalar oralig`iga l teskari proporsional bo`ladi: $F \sim \vartheta A / l$.

Agar har xil suyuqliklarni taqqoslaydigan bo`lsak, qaysi suyuqliknинг qovushqoqligi katta bo`lsa, kuch ham shuncha katta bo`ladi:

$$F = \frac{\eta A \vartheta}{l} \quad (9)$$

Bu yerdan $\eta = Fl / \vartheta A$. Demak, qovushqoqlik koeffitsienti XBS da $H \cdot c / m^2 = \Pi a \cdot c$ da o`lchanadi (paskal-sekund). SGS sistemasida esa bu kattalik puaz (santipuaz) larda o`lchanadi; $1s^{-1} = 10^{-2}$. 1-jadvalda turli suyuqliklar va gazlarning yopishqoqlik koeffitsienti ularning temperaturalari bilan birga keltirilgan, chunki temperatura o`zgarishi bilan qovushqoqlik koeffitsienti ham o`zgaradi.

1-jadval. Ayrim suyuqlik va gazlarning qovushqoqlik koeffitsienti	
Suyuqlik yoki gaz (temperatura $^{\circ}S$)	Qovushqoqlik koeffitsienti ($a \cdot s$)
$Suv (0^{\circ}S)$	1.8×10^{-3}
$Suv (20^{\circ}S)$	1.0×10^{-3}
$Suv (100^{\circ}S)$	0.3×10^{-3}
$Qon (37^{\circ}S)$	$\approx 4 \times 10^{-3}$
$Qon plazmasi (37^{\circ}S)$	$\approx 1.5 \times 10^{-3}$
$Etil spirti (20^{\circ}S)$	1.2×10^{-3}
$Dvigatelg` moyi (SAE 10) (30^{\circ}S)$	200×10^{-3}

<i>Glitserin</i> ($20^{\circ}S$)	1500×10^{-3}
<i>Havo</i> ($20^{\circ}S$)	0.018×10^{-3}
<i>Vodorod</i> ($0^{\circ}S$)	0.009×10^{-3}
<i>Suv bug`i</i> ($100^{\circ}S$)	0.013×10^{-3}
• $1 \text{ a}\cdot\text{s} = 10^{-3} = 1 \cdot 10^3 \text{ s}$	

Laminar oqim. *Puazeyl* formulasi

Agar suyuqlik (gaz) qovushqoqlilikka ega bo`lmaganida uning gorizontal trubada oqishi uchun hech qanday kuch talab qilinmas edi. Lekin qovushqoqlilik sabab ixtiyoriy suyuqliknинг trubada statsionar oqishi uchun trubaning bosh qismi va oxiri orasida bosimlarning farqini vujudga keltirish kerak; bu oddiy suv yoki neft, hattoki odam qon aylanish sistemasida qonning aylanishi bo`lsin.

Trubaning ko`ndalang kesim yuzasidan birlik vaqt ichida oqib o`tayotgan suyuqlik oqimi (suyuqlik hajmi), suyuqliknинг qovushqoqligiga, bosimlar farqiga va trubaning o`lchamlariga bog`liq bo`ladi. Frantsuz olimi J.L.Puazeyl (1799-1869) bu bog`liqliknи o`rganib chiqdi va bu ifoda *Puazeyl formulasi* deb nomlanadi:

$$Q = \frac{\pi R^4 (P_1 - P_2)}{8\eta l} \quad (10)$$

Bu yerda R – trubaning ichki radiusi, l – trubaning uzunligi, $P_1 - P_2$ – truba oxirlaridagi bosimlarning farqi, η – qovushqoqlik, Q – suyuqlik oqimi.


(10) ifoda faqat laminar oqim uchun o`rinli.

Puazeyl formulasidan ko`rinadiki, suyuqlik oqimining tezligi “bosim gradientiga” to`g`ri va suyuqliknинг qovushqoqligiga teskari proporsional. Bundan tashqari, bu kattalik truba radiusining to`rtinchи darajasiga bog`liq. Bundan ko`rinadiki, agar radiusni ikki marta kamaytirsak, suyuqlik bosimi 16 marta kamayadi [1].

ASBOBNING TUZILISHI

Suvning ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlash uchun qo`llaniladigan asbob 4-rasmida tasvirlangan. Bu asbob stolga mahkamlangan hajmi 5 litr bo`lgan A idishdan iborat bo`lib past tomoniga (V) naycha ulangandir. Tekshirilayotgan suyuqlik solingan “A” idishlar 1 kapilyar shisha naycha bilan D kiskichli rezina naycha orqali o`zaro ulangan.

Kapillyar naychani ishchi va tinch holatlarda ushlab turish uchun “A” va ”V” polkali shtativdan foydalaniladi. Kapillyar naycha - qalin devorli shisha naychadan iborat bo`lib. Uzunligi (l) va (r) radiusning qiymatlari berilgan.



3-rasm. Asbob tuzilishi

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Kapillyar naychani uzunligi l ni o`lchang.

- A idishdagi suv sathining dastlabki balandligi “ h_1 ” ni o`lchang.
- Kapillyar naychaning rezina qismini qisqich bilan qisib ishchi holatiga (polkaga) tushiring va stoldan naycha o`rtasigacha bo`lgan balandlik “ h ”ni o`lchang.
- Bo`sh menzurkani kapillyar naycha uchining tagiga qo`ying va naychani qisqichdan bo`shatib, vaqtini belgilang 100-120 sek. davomida suvni oqizing. Vaqt va oqqan suv hajmini yozib oling.
- Berilgan vaqt ichida suvni oqizib bo`lgach yana naychani qisqich bilan qising va uni yuqori ko`tarib shtativning “A” holatiga qo`ying.
- Tajribadan so`ng stoldan suv sathigacha bo`lgan balandlik h_2 ni o`lchang (suv uchun hajm jihatidan og`irligiga teng deb olsa bo`ladi).
- Topilgan qiymatlarni (8) formulaga qo`yib suv uchun yopishqoqlik koeffitsientining qiymatini (SI) sistemada hisoblab jadvalga yozing.
- A idishdagi suv temperaturasini t^0 tajribani oxirida yozib oling.

KUZATISH JADVALI

Nº	h_1	h_2	H	V	t	l	r	η	$\Delta\eta$	E_η
1										
2										
3										

$$\rho = 10^3 \text{ kg/m}^3 = 1 \text{ g/sm}^3$$

NAZORAT SAVOLLARI

- Tezlik gradienti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o`lchanadi?
- Yopishqoqlik koeffitsienti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o`lchanadi?
- Nima uchun temperatura oshganda suyuqlikning yopishqoqligi kamayadi, gazlarda esa aksincha?
- Laminar oqim deb qanday oqimga aytildi?
- Bernulli tenglamasini yozib bering?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi

1-illova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Kapillyar naychaning rezina qismini qisqich bilan qisib ishchi holatiga (polkaga) tushiring va stoldan naycha o`rtasigacha bo`lgan balandlik “h”ni o`lchang</i>
		<i>Berilgan vaqt ichida suvni oqizib bo`lgach yana naychani qisqich bilan qising va uni yuqori ko`tarib shtativning “A” holatiga qo`ying</i>
		<i>A idishdagi suv sathining dastlabki balandligi “h_1” ni o`lchang</i>
		<i>Bo`sh menzurkani kapillyar naycha uchining tagiga qo`ying va naychani qisqichdan bo`shatib, vaqtini belgilang 100-120 sek. davomida suvni oqizing. Vaqt va oqqan suv hajmini yozib oling</i>
		<i>Topilgan qiymatlarni (8) formulaga qo`yib suv uchun yopishqoqlik koeffitsientining qiymatini (SI) sistemada hisoblab jadvalga yozing</i>
		<i>Tajribadan so`ng stoldan suv sathigacha bo`lgan balandlik h_2 ni o`lchang (suv uchun hajm jihatidan og`irligiga teng deb olsa bo`ladi)</i>

		<i>A idishdagi suv temperaturasini t^0 tajribani oxirida yozib oling Kapillyar naychani uzunligi l ni o`lchang</i>
--	--	---

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

Nº	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Tezlik gradienti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o`lchanadi</i>
2	<i>Yopishqoqlik koeffitsienti deb nimaga aytildi va qaysi birlikda o`lchanadi?</i>
3	<i>Nima uchun temperatura oshganda suyuqlikning yopishqoqligi kamayadi, gazlarda esa aksincha?</i>
4	<i>Laminar oqim deb qanday oqim aytildi?</i>
5	<i>Bernulli tenglamasini yozib bering.</i>
6	<i>Puazeyl formulasidan</i>
7	<i>Suyuqlik yopishqoqligi deb nimaga aytildi?</i>
8	<i>Puazeyl formulasini yozing.</i>
9	<i>Oq`uvchanlik koeffitsienti deyiladi,</i>

9-LABORATORIYA ISHI

MAVZU: SHARCHANING ERKIN TUSHISHI USULIDA SUYUQLIKNING ICHKI ISHQALANISH KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini tajriba yo`li bilan aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:



1. *Suyuqlik solingen silindrik idish*
2. *Sekundomer*
3. *Masshtabli chizg`ich*
4. *Okulyar mikrometrli mikroskop*
5. *Sharchalar*

NAZARIY MUQADDIMA

Tinch holatdagi suyuqlikka tashlangan jismning erkin tushishini kuzataylik.

Qattiq jism suyuqlikka tegishi bilanoq, suyuqlik molekulalarini jism sirtiga yopishgan monomolekular qatlama hosil bo`lib, jism bilan birga harakatlanadi. Jism sirtiga yopishgan bu qatlama jism bilan birgalikda bir xil tezlik bilan harakat etadi. Bu monomolekular qatlama suyuqlikdagi qo`sni molekulalarini ham o`ziga jalb etadi.

Suyuqlik qatlamlari orasidagi ichki ishqalanish mavjud bo`lgani uchun jismga yaqinroq bo`lgan qatlama nisbatan kichik tezlik bilan harakat etayotgan molekulalar orasida ichki ishqalanish kuchi hosil bo`ladi. Bu ichki ishqalanish kuchi jism harakatiga to`sinqilik qiladi. Bu kuch jism yo`nalishiga qarama-qarshi yo`nalgan bo`ladi.



Tajribalar shuni ko`rsatadiki, qarshilik kuchi jismning harakat tezligiga, chiziqli o`lchamlari va geometrik formasiga va muhitning ichki ishqalanish koeffitsientiga bog`liq ekan. Muhitning qarshilik kuchi sferik shakldagi jism (sharcha) uchun ancha sodda usulda aniqlanadi. Agar sharcha tinch holatdagi suyuqlikda, og`irlilik ku chi ta'sirida harakatlanayotgan bo`lsa,

1-rasm a),b).

STOKS tomonidan bajarilgan nazariy hisoblashlar ishqalanish kuchi uchun tubandagi ifodani hosil etadi.

$$f = 3\pi\eta d\vartheta \quad (1)$$

Bu yerda η - suyuqlikning ishqalanish koeffitsienti

d - sharcha diametri

ϑ - sharchaning harakat tezligi.

Suyuqlikdagi sharchaga og`irlilik kuchi va Arximed qonuniga asosan ko`tarish kuchi ta'sir etadi (1-rasm. a). Bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi:

$$F = gV(\rho - \rho') \quad (2)$$

Bu yerda $g = 9,8 \text{ m/c}^2$ og`irlilik kuchi tezlanishi

ρ - sharcha zichligi

ρ' - suyuqlik zichligi

V - sharcha hajmi

“ F ” va “ f ” kuchlar ta'siri ostida shar tezlanuvchan harakat etadi. Nyutonning ikkinchi qonuni bu hol uchun

$$F - f = m \alpha \quad (3)$$

ko`rinishda ifodalanadi. Bu yerda

m - shar massasi.

F - kuch sharcha tezligini oshira boradi.

Sharni harakat tezligi oshishi bilan muhitning qarshilik kuchi (f) ham orta boradi. Shar harakati davomida shunday holat bo`ladiki Arximed va STOKS kuchlarining absolyut qiymatlari bir xil bo`ladi. Bu holatdan keyin shar o`zgarmas “ ϑ ” tezlik bilan harakatlanadi, u holda:

$$gV = (\rho - \rho') = 3\pi\eta d\vartheta \quad (4)$$

Bu formulaga sharcha hajmi $V = \frac{4}{3}\pi r^3 = \frac{1}{6}\pi d^3$ ni qo`yib “ η ”ni topamiz

$$\eta = \frac{g(\rho - \rho') \cdot d^2}{189} \quad (5)$$


Tekis harakat tezligi “9” ni sharcha o’tgan ma’lum masofa “ l ” va bu yo’lni o’tish uchun ketgan vaqt “ t ” orqali ifoda etish mumkin:

$$\eta = \frac{g(\rho - \rho') \cdot d^2}{18 \cdot l} t \quad (6)$$

Shunday qilib, sharchaning tekis harakatini kuzatgan holda ishqalanish koeffitsientini (η) aniqlash mumkin. Shuni ham esda tutish kerakki, ishqalanish koeffitsienti temperaturaga bog`liq bo`lib, temperatura ortishi bilan ” η ” ning qiymati kamaya boradi.

ASBOBNING TUZILISHI

Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini (η) ni o`lchash uchun ishlatiladigan asbob 2-rasmida ko`rsatilgan. U silindrik shisha idishdan iborat bo`lib, “A” bu idish taxtadan yasalgan “V” taglikka o`rnatilgan. Silindr tekshiriladigan suyuqlik (masalan: glitserin) bilan to`ldirilgan. Silindirning tashqi tomonida “a” va “v” belgilar halqasimon joylashgan bo`lib, ular orasidagi masofa “ l ” dir. ”a” halqasimon belgi suyuqlik sirtidan pastroqda joylashgan “ l ” masofaning o’tishi



2-rasm. Asbobning tuzilishi

uchun ketgan vaqt sekundomer bilan o`lchanadi. Sharcha diametr esa okulyar mikrometrlı mikroskop orqali aniqlanadi. Okulyar mikrometr shkalalariga bo`lingan yupqa shisha plastinka mikroskop okulyarning fokal tekisligiga o`rnatilgan. Mikroskopdan qaralganda shkala va sharcha tasviri birgalikda ko`rinadi. Okulyar mikrometrдagi har bir bo`limning son qiymati mikroskopda ko`rsatilgan.

ISHNI BAJARILISHI TARTIBI

1. Mikroskop yordamida uchta sharcha diametrlarini o`lchang va jadvalga yozing.
2. Har bir sharcha silindrining markaziga yaqin qilib tashlang hamda yuqoriga belgi (“a”) dan o`tayotgan vaqtida sekundomerni yurgazing: “V” belgidan o`tayotganida esa sekundomerni to`xtating. Sekundomerde o`lchangan vaqtini jadvalga yozing.
3. “a” va “v” belgilar orasidagi masofani 1 mm aniqlikda o`lchang va jadvalga yozing.
4. Fizikaviy kattaliklarning son qiymatlarini (6) formulaga qo`yib ichki ishqalanish koeffitsientini va o`lchash xatoliklarini hisoblang.

KUZATISH JADVALI

Nº	d	L	t	ρ	ρ'	η	$\Delta\eta$	E_η
1								
2								
3								

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ichki ishqalanish kuchlarining hosil bo`lish sabablari va qaysi kattaliklarga bog`liqligini tushuntiring.
2. Yopishqoq suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga ta`sir etuvchi kuchlarni aytib bering.
3. Suyuqlikda sharchani tekis tushish shartini tushuntirib bering.
4. Ichki ishqalanish koeffitsientining fizik ma`nosini va uni o`lhash birligini ayting.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash «Blits-o`yin» texnologiyasi metodi

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		<i>Har bir sharcha silindrining markaziga yaqin qilib tashlang hamda yuqoriga belgi ("a") dan o`tayotgan vaqtida sekundomerni yurgazing: "V" belgidan o`tayotganida esa sekundomerni to`xtating. Sekundomerda o`lchangan vaqtini jadvalga yozing</i>
		<i>Fizikaviy kattaliklarning son qiymatlarini (6) formulaga qo`yib ichki ishqalanish koeffitsientini va o`lhash xatoliklarini hisoblang.</i>
		<i>Mikroskop yordamida uchta sharcha diametrlarini o`lchang va jadvalga yozing</i>
		<i>"a" va "v" belgilar orasidagi masofani 1 mm aniqlikda o`lchang va jadvalga yozing</i>

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

Nº	Nazariy savollar
1	<i>Ichki ishqalanish kuchlarining hosil bo`lish sabablari va qaysi kattaliklarga bog`liqligini tushuntiring.</i>
2	<i>Yopishqoq suyuqlikda harakatlanayotgan sharchaga ta`sir etuvchi kuchlarni aytib bering.</i>
3	<i>Suyuqlikda sharchani tekis tushish shartini tushuntirib bering.</i>
4	<i>Ichki ishqalanish koeffitsientining fizik ma`nosini va uni o`lhash birligini ayting.</i>

10 – LABORATORIYA ISHI

MAVZU: KLEMAN - DEZORM USULI BILAN GAZ ISSIQLIK SIG`IMLARINI NISBATINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Kleman - Dezorm usuli bilan gaz issiqlik sig`imlari nisbati C_R / C_V ni o`lhash.

Kerakli asboblar va materiallar:

- 1. Kleman - Dezorm qurilmasi*
- 2. Manometr*
- 3. Nasos*

NAZARIY MUQADDIMA GAZNING ISSIQLIK SIG`IMI

Gazning holatini uchta kattalik - holat parametrlari: bosim - R, hajm - V va temperatura T bilan xarakterlash mumkin. Bu kattaliklarni o`zaro bog`lovchi tenglamaga moddaning holat tenglamasi deyiladi. Ideal gaz uchun esa holat tenglama Mendeleev – Klayperon tenglamasidir. U bir mol gaz uchun:

$$PV = RT \quad (1)$$

bunda R - universal gaz doimiysi.

Gaz issiqlik sig`imining kattaligi isitish sharoitlariga bog`liq bo`lib, bu bog`lanishni aniqlash uchun holat tenglamasi (1) dan va termodinamikaning birinchi qonunidan foydalanamiz.

Termodinamikaning 1-qonuni: sistemaga berilgan issiqlik miqdori - dQ , uning ichki energiyasi dU ni oshirishga va sistemaning tashqi kuchlarga qarshi ish bajarish - dA ga sarflanadi, ya'ni:

$$dQ = dU + dA \quad (2)$$

Issiqlik sig`imining ta'rifiga ko`ra:

$$C = \frac{dQ}{dT} = \frac{dU}{dT} + \frac{dA}{dT} \quad (3)$$

Bu tenglamadan ko`rinadiki, issiqlik sig`imi gazning qanday usul bilan isitilishiga qarab har xil qiymatlariga ega bo`lishi mumkin, chunki dT ning birdan – bir qiymatiga dA va dU ning har xil qiymatlari to`g`ri kelishi mumkin. Elementar ish dA ga teng:

$$dA = PdV \quad (4)$$

Temperatura o`zgarganda ideal gazda o`tadigan asosiy protsesslarni ko`rib chiqaylik, bunda gazning massasi o`zgarmas va bir molga teng deb olinadi. Bir mol gazni bir gradusga isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdoriga molyar issiqlik sig`imi deyiladi.

1. IZOXORIKJARAYON

Agar temperatura o`zgarganda jismning (gazning) hajmi o`zgarmasdan qolsa, ya'ni $V=const$ bo`lsa, bunday protsessga izoxorik protsess deyiladi. U holda $dV = 0$ bo`ladi. (4) formulaga asosan $dA = 0$ bo`ladi. (2) formulaga asosan gazga berilgan barcha issiqlik uning ichki energiyasini oshirishga sarflanadi. U holda (3) formulaga asosan o`zgarmas hajmda gazning molyar issiqlik sig`imini quyidagicha yozish mumkin

$$C_V = \frac{dU}{dT} + P \frac{dV}{dT} \quad (6)$$

O`zgarmas bosimda ($p = \text{const}$) o`tadigan protsessga izobarik protsess deyiladi. Bu xol uchun (3) formulani quyidagicha yozish mumkin:


$$PdV + VdP = RdT \quad (7)$$

$p = \text{const}$ bo`lganda $dP = 0$ bo`ladi. Shuning uchun $PdV = RdT$. Bu munosabati (6) ga qo`ysak va dU ni S_1dT bilan almashtirsak:


$$C_P = C_V + R \quad (8)$$

2. IZOTERMİK JARAYON

Izotermik [rotsess deb tem[eratura o`zgarmas ($T=\text{const}$) bo`lganda o`tadigan [rotsessga aytildi. Bu holda $dT = 0$ va termodinamikaning 1 qonuni quyidagicha yoziladi: $dQ = dA$ ya'ni gazning ichki energiyasi o`zgarmasdan qoladi va uzatilgan issiqlik ish bajarishga sarflanadi.



1–rasm. Silindrsimon harakatlanuvchi porshenli idishga solingan



2–rasm. Har xil temperaturalardagi gazlarning izotermalari. ideal gaz.

Shuning uchun, bosimning hajmga bog`lanish grafigida izotermalardan bo`ladi. Egri chiziqdagi har bir nuqtaning, masalan A nuqtaning bosimi va hajmi har xil bo`ladi (yuqori temperaturalarda).

Idishda massasi ancha katta bo`lgan va tashqi muhit bilan issiqlik almashinishida temperaturasi o`zgarmaydigan gaz bor. Bu holatda gazning siqilish va kengayish jarayoni sekin amalga oshirilgani uchun temperatura o`zgarmas bo`ladi. Agar gazga boshlang`ich A holatda Q issiqlik miqdori berilsa, sistemaning bosimi va hajmi o`zgarib, sistemaning holati V nuqtaga ko`chadi (2–rasm). Temperatura o`zgarmas saqlansa, gaz kengayib, ish bajariladi va porshen ma'lum masofaga siljiydi. Temperatura va massa o`zgarmasa, sistemaning ichki energiyasi ham o`zgarmaydi:

$$\Delta U = \frac{3}{2} nR\Delta T = 0.$$

Demak, termodinamikaning birinchi qonuniga ko`ra:

$\Delta U = Q - W = 0$, va $W = Q$: izotermik jarayonda bajarilgan ish sistemaga berilgan issiqlik miqdoriga teng.

Adiabatik jarayon ($Q = 0$)

Tashqi muhit bilan issiqlik almashmaydigan jarayonga adiabatik jarayon deb ataladi, ya`ni ($Q = 0$). Bu jarayon juda ham tez sodir bo`ladigan jarayon hisoblanadi, shuning uchun issiqlik almashinishga ulgirmaydi. Adiabatik jarayonga yaqin keladigan misollardan biri – ichki yonuv dvigatellaridagi gazning kengayishidir. Ideal gazning adiabatik kengayishi 3–rasmida keltirilgan. $Q = 0$ bo`lgani uchun


$$\Delta U = -W \text{ bo`ladi.}$$

AB – izoterna, AC – adiabata.

Boshqacha qilib aytganda, ichki energiyaning kamayishi bilan temperatura ham kamayadi.

$pV (=nRT)$ ko`paytma C nuqtada B nuqtaga qaraganda kichik bo`ladi (AB egri chiziq izotermik jarayon bo`lib,

$$\text{bunda } \Delta U = 0, \Delta T = 0.$$



3–rasm

Adiabatik siqilishda gaz ustida ish bajariladi va ichki energiyaning ortishi bilan temperatura ham ortadi. Dizelli dvigatellarda gaz 15 marta tezroq adiabatik siqiladi

3. ADIABATIK JARAYON

Tashqi muhit bilan issiqlik almashmasdan ($Q=0$) turib o'tadigan protsessga adiabatik protsess deyiladi. Bunda termodinamikaning 1 qonuni quyidagicha ifodalanadi:

$$dQ = 0, \quad dU + dA = 0: \quad dA = -dU$$

Ya'ni adiabatik protsessda kengayish va siqilishda bajarilgan ish gaz ichki energiyasining o'zgarishi hisobiga sodir bo`ladi.

Adiabatik protsess uchun tenglama (puasson tenglamasi) ni keltirib chiqaramiz.

$$dA = -dU, \quad \text{lekin} \quad dA = pdU \quad \text{va} \quad dU = C_v dT$$

shuning uchun

$$pdV = -C_v dT \quad (9)$$

(7) tenglamani (9) ga bo`lib, (8) ni hisobga olib, quyidagini hosil qilamiz:

$$1 + \frac{V}{P} \frac{dP}{dV} = \frac{C_p - C_v}{C_v}$$

yoki

$$\frac{dP}{P} = -\gamma \frac{dV}{V} \quad (10)$$

bunda

$$\gamma = \frac{C_p}{C_v}$$


(10) tenglamani integrallab va potensirlab puasson tenglamasini hosil qilamiz:

$$pV^\gamma = \text{const}$$

4. HAVO UCHUN C_p/C_v NI ANIQLASH

C_p/C_v nisbati Kleman - Dezorm asbobi yordamida aniqlash mumkin. U asbob havosi bo`lgan A ballondan, nasosdan va suvli manometr - M dan iborat (4-rasm). V - kran berkilgan. A - ballonga nasos bilan havo dam beriladi. Ballondagi havo bosimi ortadi va quyidagi teng bo`ladi:

$$p_1 = H + h_1$$



Bunda h_1 - balandlikdagi havoning atmosfera bosimi R dan ortiqcha bosimi. H kattalik M – manometr bilan o'lchanadi. So`ngra V – kranni qisqa vaqtga ochiladi, bunda balondagi havo bosimi atmosfera bosimiga tenglashadi ($p_2 H$).

Keyin kran tezda yopiladi. Ballonga nasos bilan tortilgan V hajmga ega bo`lgan havoning massasi – m bo`lsin.

4-rasm. Asbobning umumiyo ko`rinishi

Kran ochilganda havoning bir qismi ballondan chiqib ketadi, uni massasini Δm bilan belgilaylik. U holda ballonda qolgan havoning massasi $m_1 = m - \Delta m$ bo`ladi. V hajmni egallagan m_1 massali havo kran ochilmasdan avval V_1 kichikroq hajmni egallagan edi. Protsess qisqa vaqtli va gaz bilan ballon devorlari orasida issiqlik almashishi sezirli bo`lmasani uchun uni adiabatik protsess deb hisoblash mumkin. Unda puasson tenglamasiga asoslanib, m_1 massali gaz uchun

$$p_1 V^\gamma_1 = p_2 V^\gamma \quad (12)$$

Adabiatiq kengayish natijasida gazning temperaturasi qisqa vaqt ichida xona temperurasiga tenglashadi, bunda gazning bosimi $R_3 = N + h_2$ gacha ortadi. Gazning boshlang`ich va oxirgi holatlari bir xil temperaturada kuzatiladi. Shuning uchun **Boyl-Mariott qonuni quyidagicha yoziladi:**

$$p_1 V_1 = p_3 V \quad (13)$$

(12) va (13) tenglamalarini γ ga nisbatan yechsak, quyidagi munosabat hosil bo`ladi:

$$\gamma = \frac{\lg P_1 - \lg P_2}{\lg P_1 - \lg P_3} \quad (14)$$

Bu holda R_1 va R_3 lar R_2 dan kam farq qilgani uchun (14) tenglama qiyatlarning logarifmlarini ayrimlari nisbatini shu qiyatlarning ayrimlari nisbati bilan almashtirish mumkin, ya`ni

$$\gamma = \frac{P_1 - P_2}{P_1 - P_3} \quad (15)$$

$P_1 = H + h_1$, $P_2 = H$; $P_3 = H + h_2$ bo`lgani uchun, ularni (15) ga qo`ysak:

$$\gamma = \frac{H + h_1 - H}{H + h_1 - H - h_2} = \frac{h_1}{h_1 - h_2}$$

U holda $\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2}$ (16)

dan γ hisoblanadi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. A – idishga nasos bilan havo yuborib, manometr suyuqligi sathlarining farqini 15-20 sm bo`lishiga erishiladi va idish ichidagi temperatura atrof muhit temperurasiga tenglashguncha, ya`ni manometr suyuqligi sathlarining farqi o`zgarmasdan qolguncha kutib turiladi (bunda 2 – 3 minut vaqt ketadi).
2. Manometrdan sathlar ayirmasini, ya`ni havoning qo`shimcha bosimi h_1 ni o`lchab mm suv ustunida yozib olinadi.

3. Kran to`la ochiladi (ya`ni A idish atmosferaga tutashtiriladi) va manometrdan suyuqlikning sathlari bir-biriga tenglashishi bilan kran berkitiladi.
4. 2-3 minutdan so`ng adiabatik kengayishda sovgan gazning temperurasigacha ko`tariladi va qo`shimcha bosim h_2 o`lchanadi.

Eslatma: h_1 va h_2 lar U shaklidagi manometr suyuqligi sathlarini balandliklari oraidagi farq bo`lib, mm larda o`lchanadi.

5. (16) formula yordamida γ ni, ya`ni C/C_V nisbatni hisoblanadi.
6. Olingan natijalar jadvalga kiritiladi va quyidagi xatoliklar hisoblanadi:

$\Delta\gamma$, $\Delta\gamma_{urt}$,

$$E_\gamma = \frac{\Delta\gamma_{ypt}}{\gamma_{ypt}} \cdot 100 \%$$

7. γ ning haqiqiy qiymati quyidagicha yoziladi:

$$\gamma_{xak} = \gamma_{o^*rt} \pm \Delta\gamma_{o^*rt}$$

KUZATISH JADVALI

Nº	h_1	H_2	γ	γ_{ort}	$\Delta\gamma$	$\Delta\gamma_{\text{ort}}$	E_γ
1							
2							
3							
4							
5							
ort							

*Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash
«Blits-o`yin» texnologiyasi metodi*

1-ilova

Talaba javobi	To`g`ri javob	Ishni bajarish tartibi
		A – idishga nasos bilan havo yuborib, manometr suyuqligi sathlarining farqini 15-20 sm bo`lishiga erishiladi va idish ichidagi temperatura atrof muhit temperaturasiga tenglashguncha, ya`ni manometr suyuqligi sathlarining farqi o`zgarmasdan qolguncha kutib turiladi (bunda 2 – 3 minut vaqt ketadi).
		(16) formula yordamida γ ni, ya`ni S/S_V nisbatni hisoblanadi.
		Olingan natijalar jadvalga kiritiladi va quyidagi xatoliklar hisoblanadi: $\Delta\gamma, \Delta\gamma_{\text{urt}}, E_\gamma = \frac{\Delta\gamma_{\text{ypr}}}{\gamma_{\text{ypr}}} 100 \%$
		Manometrdan sathlar ayirmasini, ya`ni havoning qo`srimcha bosimi h_1 ni o`lchab mm suv ustunida yozib olinadi.
		Kran to`la ochiladi (ya`ni A idish atmosferaga tutashtiriladi) va manometrdan suyuqlikning sathlari bir-biriga tenglashishi bilan kran berkitiladi.
		2-3 minutdan so`ng adiabatik kengayishda sovigan gazning temperaturasigacha ko`tariladi va qo`srimcha bosim h_2 o`lchanadi.
		Eslatma: h_1 va h_2 lar U shaklidagi manometr suyuqligi sathlarini balandliklari
		Knopkani bosib isitgich o`chiriladi
		Probirkaga suv quyilib, so`ngra o`lchanayotgan nusxa tushiriladi

11- Labaratoriya ishi ELEKTROSTATIK MAYDONNI TEKSHIRISH Kerakli asbob va materiallar:

1. Turli shakldagi elektrodli elektrolitik vanna.
2. Telefon yoki galvonometr.
3. Voltmetr. 4. Reostat.

Ishning maqsadi:

Elektrostatik maydonni tekshirish, ekvipotensial chiziqlarni aniqlash.

NAZARIY MUQADDIMA

Tajribalarni ko`rsatishicha zaryadlangan jismlar o`zaro ta`sirlashadi: bir xil ishorali zaryadlangan jismlar bir-birini itaradi, har xil ishorali zaryadlangan jismlar esa o`zaro tortishadi.

Agar biror zaryadlangan jismning o'lchamlari shu jumladan boshqa jismlargacha bo`lgan masofaga nisbatan cheksiz kichik deb hisoblash mumkin bo`lsa, bunday zaryadlangan jism nuqtaviy deb ataladi.

Ikkita nuqtaviy zaryadning o`zaro ta`sir kuchi Kulon qonuni bilan aniqlanadi


$$F = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon \cdot r^2} \quad (1)$$

bu yerda k -proporsionallik koeffitsienti, SI sistemasida

$$k = \frac{1}{4\pi\epsilon_0}$$

ϵ_0 - elektr doimiysi

ϵ - muhitning dielektrik singdiruvchanligi



1 - rasm. Qo'zg'almas nuqtaviy zaryadga ta`sir etuvchi kuch

Qo'zg'almas zaryadlangan jismlarning o`zaro ta`siri, shu zaryadlangan jismlar vujudga keltirgan elektrostatik maydon orqali yuz beradi.


Elektrostatik maydonni asosiy xarakteristik kattaliklaridan biri elektrostatik maydonni kuchlanganlik vektori (E) dir. Elektrostatik maydon kuchlanganligi vektori son qiymati jihatdan ushbu maydonga kiritilgan birlik sinash zaryadga ta`sir qiluvchi kuchga teng. E ning yo'nalishi musbat zaryadga ta`sir qilayotgan kuchning yo'nalishiga mos keladi.

$$\bar{E} = \frac{\bar{F}}{q} \quad (2)$$

Elektr maydon kuchlanganligi birligi qilib, bir birlik zaryadga ta`sir etuvchi kuch nuqtadagi kuchlanganlik


$$[E] = 1 \frac{H}{K\pi} = 1 \frac{B}{M}$$

qabul qilinadi. SI birliklar sistemasida elektr maydon kuchlanganligi V/M orqali ifodalanadi. Maydonni grafik usulda tasvirlash uchun E vektor chiziqlari tushunchasi kiritiladi. Elektr maydon chiziqlari yoki kuch chiziqlari deb shunday chiziqqa aytildiki, uni har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinma elektr maydon kuchlanganlik vektorining yo'nalishini beradi. (3-rasm).




1- rasm. Musbat nuqtaviy zaryad elektr maydon kuch chiziqlari.

Manfiy zaryad uchun esa, kuch chiziqlari yo‘nalishi zaryadga yo‘nalgan bo‘ladi (2- rasm). Kuch chiziqlari bir zaryaddan chiqib ikkinchi zaryadda tugaydi [3].



2- rasm. Manfiy nuqtaviy zaryad elektr maydon kuch chiziqlari

Kuch chiziqlariga normal bo‘lgan bir birlik yuzadan o’tuvchi kuch chiziqlari soni elektr maydon kuchlanganlik vektorining qiymatini beradi.



3-rasm. Elektr maydon kuch chiziqlari.

Kuch chiziqlari musbat zaryadlardan boshlanib manfiy zaryadlarda tugaydi.

Elektrostatik maydonni xarakterlovchi kattalik bo'lib, zaryadning potensial energiyasi W , shu zaryad kattaligiga nisbati bilan o'chanadi.

$$\varphi = \frac{W}{q_0} \quad (3)$$

Ya`ni elektr maydonning berilgan nuqtasini potensiali deb shu nuqtaga olib kiritilgan birlik zaryadning potensial energiyasiga teng bo'lган kattalikka aytildi.

$W = K \frac{q_0 q_1}{r}$ ekanligini e'tiborga olgan holda $\varphi = \frac{q}{r}$ deb yozish mumkin.

bu formula maydonning berilgan nuqtasidagi potensialning qiymatini beradi.

Elektr maydonida zaryad harakatlanganda potensial energiyani o'zgarishiga teng bo'lган ish bajaradi $A = (W_2 - W_1)$

$$W_2 = q_0 \varphi_2 \quad \text{va} \quad W_1 = q_0 \varphi_1 \quad \text{ekanligini e'tiborga olib}$$

$$A = q_0 (\varphi_2 - \varphi_1) \quad (4)$$

tenglamani hosil qilamiz. Bu yerda φ_1 va φ_2 -maydonning berilgan nuqtalarini potensiali.

q_0 -maydonning bir nuqtasidan ikkinchi nuqtasiga harakatlanuvchi zaryad.

Potensial bilan maydon kuchlanganligi orasidagi bog'lanishni topaylik. Zaryadni kuchlanganlik chizig'i bo'yicha biror kesmaga ko'chirishda bajargan ish

$$dA = F d\ell = q E d\ell \quad (5)$$

ga teng. Bu ish zaryad potensial energiyasini kamaytirish hisobiga bajariladi.

$$dW = -q d\varphi \quad (6)$$

Bu yerda $d\varphi$ -potensialni o'zgarishi

$$\text{Oxirgi ikki tenglamalardan } q E d\ell = -q d\varphi \quad (7)$$


$$\text{Bu yerda} \quad E = -\frac{d\varphi}{dl} = -q r a d\varphi \quad (8)$$

$\frac{d\varphi}{dl}$ ifoda berilgan yo`nalishda potensialning o`zgarish tezligini ko`rsatadi.

Elektr maydon kuchlanganligi potensialning teskari ishora bilan olingan gradientiga teng. Minus ishora maydon kuchlanganligi potensial kamayishi tomonga yo`nalganligini ko`rsatadi (4-rasm).

Elektr maydonda bir xil potensialli nuqtalarning geometric o`rinlaridan tashkil topgan sirtga ekvopotensial sirt deyiladi.

Ekvopotensial sirt nuqtalari uchun $E = \text{const}$. Ekvopotensial sirtning barcha nuqtalari bir xil potensialda bo`lgani tufayli unda zaryad ko`chishi ish talab qilmaydi. Bu degan so`z, zaryadga ta'sir qiluvchi kuch har doim siljishga perpendikulyar demakdir. Bunday kuch chiziqlari ekvopotensial sirtlarga doim perpendikulyar bo`ladi degan xulosa chiqadi. Ekvipotensial chiziqlar yordamida kuch chiziqlari elektr maydonidagi taqsimatini topish mumkin. Ushbu ishdan maqsad ham shu taqsimatni topishdir.



4-rasm Ekvipotentsial chiziqlar


Ekvipotensial va kuch chiziqlari taqsimotini o`rganishdagi eng sodda va ishonchli metod bu elektrodlar sistemasi orasidagi maydonni o`rganishdir. Tekshiriladigan maydonni hosil qiluvchi elektrodlar o`zgaruvchan tok manbaiga ulanib, elektr tokini yomon o`tkazuvchi suyuqlik (masalan: vodoprovod suvi) quyilgan vanna ichiga joylashtiriladi. Kalit ulanganda eletrodlar orasidagi suyuqlik orqali o`zgaruvchan tok o`ta boshlaydi. Natijada ekvipotensial sirlarning shakli xuddi elektrodlarga doimiy potensial va elektrodlar orasida elektr tokini o`tkazmaydigan muhit mavjud bo`lgandagi kabi bo`ladi.

Agarda bunday vannaga indikator bilan ulangan kichkina sharcha ko`rinishidagi elektrozondni tushirilsa, zond va zond tushirilgan nuqta potensiali noldan farqli bo`lganda indikator tok mavjudligini ko`rsatadi; agarda zond ushbu nuqta potensiali teng bo`lsa indikatordan tok o`tmaydi. Indikator sifatida telefon yoki galvanometr ishlatish mumkun. Shunday usulda zondga ma`lum kuchlanish berib, indikator yordami bilan bir xil bo`lgan nuqtalarni topish mumkun va bu nuqtalarni o`zaro birlashtirib mos potensial uchun potensial chiziq o`tkaziladi. Zond potensiali o`zgartirilib, har bir potensialga mos bo`lgan ko`pgina ekvipotensial chiziqlarni chizish mumkin. Ular yordamida esa kuch chiziqlari o`tkaziladi.

Bizning kafedra labaratoriyasida elektrostatik maydonni tekshirish konstruksiyasi jihatdan bir oz farq qiluvchi ikki qurilmada olib boriladi.

Birinchi qurilma

Qurilma sxemasi (3-rasmida) tasvirlangan. Yassi elektrostatik vanna elektrostatik maydonni tekislikda tekshirishga imkon beradi. Indikator qilib qarshiligi katta bo`lgan telefon olinadi. Telefon simlarining bir uchi potensiometrga ulanib, ikkinchi uchi zond orqali o`zgaruvchan tok manbaidan beriladi.



5-rasm. Qurilmaning sxemasi

Zondga kuchlanish potensiometr orqali beriladi. Kuchlanish voltmetr orqali o`lchanadi. Vanna tubiga mahkamlangan millimetrlarga darajalangan qog'ozda teng potensial nuqtalari holati belgilanadi.

BIRINCHI QURILMADA ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. 3-rasm bo'yicha elektr sxemasi tekshirish.
2. vannadagi suvni miqdorini tekshirilsin, ehtiyoj bo'lsa, qo'shilsin.
3. millimetrga darajalangan qog'oz bo'lagiga mos mashtabda elektrodlarni shakli va formasi tushirilgan.
4. potensiometr yordamida zondga ma'lum potensial berilsin. Zond koordinata o'qi qiymatlari ($U=0, +4, +6, +8$ va hokazo) bo`lganda to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanish va telefon tovushlarining so'ngan holatlariga mos keluvchi koordinata nuqtalari topilsin. Topilgan nuqtalarni grafikka tushirib bir chiziq bilan o`zaro birlashtirilib ekvipotensial chiziq o`tkaziladi.
5. zond potensiali o`zgartirilib, tajriba bir necha bor takrorlansin, teng potensial chiziqlari o`tkazilsin.
6. ekvipotensial chiziqlar yordamida kuchlanganlik chiziqlari qurilsin va ularni yo'nalishi ko'rsatilsin.

Ikkinchi qurilma



6-rasm Qurilmaning sxemasi

Ikkinci qurilma birinchisidan asosan konstruktsiya bo'yicha farq qiladi. Qurilma umumiyo ko'rinishi 6-rasmda berilgan. Organik shishadan qilingan vannada (1) elektrodlar (2) kerakli holatda qisqichlar yordamida mahkamlanadi. Bu qurilmada elektr maydonni tekshirish, ya`na ekvipotensial chiziq holatini aniqlash maxsus qurilma pantegrafda bajariladi.

Pantegraf richagi uchiga gorizontal tekislik bo'yicha harakatlana oladigan vertikal zond (3) mahkamlanadi. Zondni pastki qismi elektrolitga joylashtiriladi, yuqori qismi esa egiluvchan sim yordamida galvanometr bilan ulanadi. Pantegraf richagini ikkinchi uchiga vertikal qasamnayza (4) o`rnatilgan, uning yordamida teng potensial nuqtalar holati qog'oz bo`lagia belgilanadi. Pantograf richagi sistemasi shunday qurilganki, zondni barcha gorizontal siljishlari qalamni qog'oz ustidagi avtomatik siljishni vujudga keltiradi.

Agar maydoning biror nuqtasida zond joylashtirilganda galvanometr strelkasi "nolga" kelsa, demak nol potensiali va shu nuqtadagi maydon potensiali o'zaro teng bo'ladi. Berilgan potensialda galvanometrni ko'rsatishiga qarab zond yordamida bir nechta(6-7) nuqta aniqlanadi. Ularni o'rni qog'oz bo`lagiga pantograf nayzasi yordamida belgilanadi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. toza qog'oz bo`lagi qurilma stoliga joylashtiriladi (6), vannaga keragicha suv quyiladi, elektrodlar qisqichlarga mahkamlanadi.
2. T2 tumbler "grubo" holatiga, so`ngra T1 tumbler "vkl" holatiga qo'yiladi.
3. potensiometr surgichi rahbar ko'rsatgan kuchlanishga qo'yiladi, zontni vannada siljitim galvanometr ko'rsatishi nol bo'lgandagi nuqta topiladi. Tumbler T2 "tochno" holatiga o'tkazilib galvanometrdagi tok kuchi 1-0 holat qalam yordamida belgilanadi. Ushbu metod bilan shu kuchlanishdagi 6-7 nuqta topiladi. Qog'ozda topilgan nuqtalarni o'zaro birlashtirib ushbu potensial (ϕ) ga mos keluvchi ekvipotensial chiziq olinadi.
4. shunday usulda ϕ_1 . ϕ_2 . ϕ_3 potensiallar uchun ham tajriba o'tkaziladi.
5. olingan ekvipotensial chiziqlar yordamida elektrostatik maydon kuchlanganlik chiziqlari o'tkazilsin, ularni yo'nalishi ko'rsatilsin.

NAZORAT SAVOLLAR

1. Elektrostatik maydon deb nimaga aytildi?
2. Elektostatik maydon kuchlanganligi deb nimaga aytildi va qanday birliklarda o'lchanadi?
3. Potensial va potensial gradiyenti deb nimaga aytildi?
4. Maydon kuchlanganligi bilan potensial orasida qanday bog'liqlik bor?
5. Elektrostatik maydon kuch chiziqlari deb nimaga aytildi?
6. Qanday chiziq ekvipotensial chiziq deb aytildi?
7. Zaryadni ekvipotensial chiziq bo'yich ko'chirishda bajarilgan ish nimaga teng?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
1	<i>Elektr maydon deb nimaga aytildi?</i>			
2	<i>Maydon kuchlanganligi nima?</i>			
3	<i>Potensial deganda nima tushuniladi?</i>			
4	<i>Kulon qonuning ta'rifi?</i>			
5	<i>Ekvipotensial sirtlar qanday chiziladi? Uning ta'rifini keltiring.</i>			
6	<i>Elektr maydonda bajarilgan ish formulasini yozing.</i>			
7	<i>Elektr maydon kuch chiziqlari deb qanday chiziqlarga aytildi.</i>			
8	<i>hisoblash formulasini tushunti-rib bering.</i>			

“Aqliy hujum” metodi

2-ilova

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Elektrostatik maydon deb nimaga aytildi?</i>
2	<i>Kulon qonunni ta'riflang.</i>
3	<i>Maydon kuchlanganligi debnimaga aytildi?</i>
4	<i>Kuch chiziqlari bilan ekvipotensial sirtlar o'zaro qanday joylashgan?</i>
5	<i>Maydon potensiali deb nimaga aytildi?</i>
6	<i>Elektrostatik maydonda bajarilgan ish nimaga teng?</i>

Laboratoriya – 12 **UITSTON KO'PRIGI YORDAMIDA REZISTOR** **QARSHILIGINI ANIQLASH**

Kerakli asbob va materiallar:

1. Reoxord.
2. Galvanometr.
3. Qarshiliklar magazini.
4. Noma'lum qarshilik.
5. Kalit va tok manbai.

Ishning maqsadi:

Tajriba yo'li bilan Uitston ko'prigi yordamida qarshilikni o'lchash.


NAZARIY MUQADDIMA

Praktikada no'malum qarshiliklarni (R_x) o'lchash uchun Uitston ko'prigidan keng foydalilaniladi. (1-rasm). A va S nuqtalar “K” kalit orqali “Y” tok manbaiga ulangan. Bu nuqtalar orasida reoxord deb ataluvchi darajalangan chizg'ich ustiga tortilgan bir jinsli ingichka sim ulanadi. Reoxordning A va S nuqtalariga no'malum qarshilik (R_x) hamda qarshiliklar magazinidan olinuvchi ma'lum qarshilik (R_m) parallel ulanadi. V va D nuqtalar orasiga galvonametr ulanib, kontakti rexord bo'yicha harakatlanadi. Uitson ko'prigining ishslash prinsipi Kirxgof qonunlarining qo'llanishiga asoslangan.

Kirxgofning 1-qonuni. Uchtadan kam bo'limgan o'tkazgichlarning uchrashgan nuqtasi uchun qo'llaniladi.


Bunday nuqtalar zanjir tuguni deyiladi. Barqaror rejimda tugunga keluvchi tok kuchlarining yig'indisi tugundan chiquvchi tok kuchlarning yig'indisiga teng, tugunga keluvchi tok musbat,

tugundan chiquvchi toklarni manfiy deb hisoblaganda Kirxgofning 1-qonunini quyidagicha ta'riflash mumkin.



1-rasm. Uitston ko'prigining sxemasi

Zanjir tuginuda tok kuchlarning algebraik yig'indisi nolga teng, ya'ni
 $I_1 + I_2 + I_3 = 0$



Kirxgofning 2-qonuni: har qanday berk zanjirdan tok manbaalarining elektr yurituvchi kuchlarning algebraik yig'indisi, tok kuchining tegishli bu zanjir qismlari qarshiliklariga ko'paytmalarining algebraik yig'indisiga teng.

$$\sum_{i=1}^n E = \sum_{i=1}^n I_i R_i \quad (2)$$

Kirxgof qonunlarini qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. zanjirning turli qismlaridagi tok yo'nalishini strelka bilan ko'rsatish kerak.
2. zanjirni aylanib o'tish yo'nalishini tanlab olish kerak, soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha yoki soat strelkasi yo'nalishiga qarama-qarshi.
3. yo'nalish zanjirni aylanib o'tish yo'nalishi bilan mos keluvchi tok musbat ishora bilan olinadi, tok kuchining qarshilikka ko'paytmasining ishorasini belgilashda hisobga olinadi.
4. berk zanjirni aylanib o'tish yo'nalishida potensialni oshiruvchi yoki aylanib o'tishda manbaaning ichida minusidan plusiga tomon yo'nalishidagi EYUK musbat EYUK hisoblanadi. Bunga misol tariqasida 2-rasmida tasvirlangan zanjirning ma'lum qismi uchun isoralar qoidasini hisobga olgan holda, Kirxgofning tenglamalarini tuzaylik.

Kirxgofning 1-qonuning (1) tugun uchun quyidagicha yozish mumkin.

$$I_1 + I_3 = I_2 \quad \text{yoki} \quad I_1 + I_3 - I_2 = 0$$

Kirgxofning 2-qonuniga asoslangan holat berk zanjir (1,2,3,1) uchun quyidagi tenglamalarni yozish mumkin.

$$I_1 R_1 - I_2 R_2 + I_3 R_3 = E_1 - E_2 + E_3$$

Kirgxofning qonunlarining Uitson ko'prigiga tadbiq etamiz.


Zanjirning ayrim qisimlaridan tok yo'nalishlari strelka bilan ko'rsatilgan.

Kirgxofning birinchi qonunini tugunlarga tadbiq etib, quyidagilarga ega bo'lasiz.

$$(S) \quad I = I_1 + I_2 \quad (3)$$

$$(B) \quad I_1 = I_3 + I_5 \quad (4)$$

$$(D) \quad I_4 = I_5 + I_2 \quad (5)$$



2-rasm. Tarmoqlangan zanjir.

Noma'lum qarshilikni o'lhash uchun qarshiliklar magazinidan ma'lum (RM) qarshilikni bilgan holda, D harakatlanuvchi kontaktni shunday holatga keltiriladi, unda VD ko'priдан to'k o'tmay qoladi, ($I_5=0$) va galvanometr strelkasi nolga keladi. U vaqtida (4) va (5) tenglamalar quyidagi ko'rinishda yoziladi

$$I_1 = I_3 \quad (6) \quad \text{va} \quad I_2 = I_4 \quad (7)$$

AV va VS qismlarida tok kuchi bir xil ($I_1 = I_4$) Kirxgofning ikkinchi qonunini AVDA zanjir uchun tadbiq etamiz. Shuning uchun zanjirni soat sterelkasi bo'ylab aylanib o'tamiz. AV qismdagi tok kuchining qarshilikka ko'paytmasi $-I_3 R_3$ ga, AVqismida esa tok kuchini qarshilikka ko'paytmasi nolga teng, chunki bu qismdan tok o'tmaydi ($I_5=0$).

DA qismidagi tok kuchining qarshilikka ko'paytmasi $I_4 R_1$ ga teng, lekin

$$R_1 = p \frac{l_1}{S} \quad \text{ga teng}$$

Bu yerda: l_1 - reoxord A va D nuqtalari orasidagi simning uzunligi

p - reoxorddagagi simning solishtirma qarshiligi

S - uning ko'ndalang kesimi.

I_3 oldidagi minus ishora zanjirini aylanib o'tish yo'nali shiga qarshi yo'nali shini ko'rsatadi.

AVDA zanjirida tok manbalari bo'limgaganligi va $\sum_{i=1}^n I_i R_i = \sum_{i=1}^n E_i$ ga tengligini e'tiborga olsak, AVDA zanjir uchun Kirxgofning 2-qonuni quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$-I_3 R_x + I_4 p \frac{l_1}{S} \quad \text{yoki} \quad I_3 R_x = I_4 p \frac{l_1}{S} \quad (8)$$

DVSD zanjir uchun Kirxgofning 2-qonunini tadbiq etib quyidagi, tenglamalarga ega bo'lami.

$$-I_1 R_m + I_2 p \frac{l_2}{S} - 0 = 0$$

tenglamadagi l_2 -reoxordning DS qismidagi sim uzunligi

$$I_1 R_m = I_2 p \frac{l_2}{S} \quad (9)$$

(6) va (7) tengliklarni hisobga olgan holda, (8) ni (9) ga bo'lib quyidagilarni hosil qilamiz.

$$\frac{R_x}{R_m} = \frac{l_1}{l_2} \quad \text{yoki} \quad R_x = R_m \frac{l_1}{l_2} \quad (10)$$

(10) formula yordamida esa R_x noma'lum qarshiliklarni aniqlaymiz. Ushbu ish quyidagi 3 ta vazifa asosida bajariladi:

a) rezistor qarshiliklari R_1 va R_2 larni alohida-alohida o'lhash.

b) o'zaro ketma-ket ulangan ikkita rezistor qarshiligini o'lhash, hamda natijasini $R_{UM}=R_1+R_2$

(10a) formula (R_1 va R_2 lar qiymati birinchi vazifadan olinadi) orqali topilgan R umumiy bilan solishtirish.

v) o'zaro parallel ulangan ikkita resistor qarshiligini o'lhash, hamda natijani

$$\frac{I}{R_{UM}} = \frac{I}{R_1} + \frac{I}{R_2} \quad (10b)$$

formula orqali topilgan, ulangan qarshilik bilan solishtirish, o'lchashning nisbiy xatosi

$$\frac{\Delta R_x}{R_x} = \left(\frac{\Delta l_1}{l_1} - \frac{\Delta l_2}{l_2} \right) \quad (11)$$

formula orqali ifodalanadi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. D sirpanuvchi kontraktni reoxord o'rtasiga joylashtiring.
2. qarshiliklar magazinidan R_X ga yaqinroq R_M qarshiliginini ta'minlab oling. Buning uchun qarshiliklar magazinidan ixtiyoriy qarshilik eltilib, bir daqiqa kalitni ulang. Agarda galvanometr strelkasi keskin og'ib ketsa, u vaqtida (R_M) ma'lum qarshilik son qiymatini o'zgartirib galvanometr strelkasining minimaliga erishing.
3. So'ngra reoxordni D kontaktni siljитish yordamida ko'priordan tok o'tmasligiga erishing.
4. R_M ni yaqin qiymatlaridan bir nechtasi o'n shkalada reoxord shkalalari uzunliklarini hisobini oling.
5. (10) formula yordamida rezistorni tekshirayotgan noma'lum qarhilikni hisoblang.
6. 2- resistor qarshiliginini o'lchang (buning uchun 1, 2, 3, 4, 5 punktlar takrorlanadi).
7. (11) formula yordamida o'lchanigan kattaliklarni nisbiy holatini hisoblang.
8. ikkita rezistorni o'zaro ketma-ket ulang va (10) formula bo'yicha qarshilikni o'lchang, o'lhash natijasini (10a) formula bilan taqqoslang.
9. ikkita rezistorni o'zaro paralell ulang va (10) formula bo'yicha qarshilikni hisoblang, natijani formula bilan taqqoslang.

$$R_{um} = \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2} \quad (10b)$$

NAZORAT SAVOLLAR

1. Kirxgof qonunlarini ta'riflab bering.
2. $R_x = R_M \frac{l_1}{l_2}$ formulani keltirib chiqaring
3. R_X o'lchamini aniqligi nimalarga bog'liq?
ADSV zanjir uchun Kirxgofning qonun tenglamasini yechib bering.
4. Adsv zanjir uchun Kirgxofning qonun tenglamasini yechib bering

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
<i>1</i>	<i>Tok deb nimaga aytildi?</i>			
<i>2</i>	<i>Qanday tokdan foydalandingiz?</i>			
<i>3</i>	<i>hisoblash formulani yozib bering.</i>			
<i>4</i>	<i>Absolyut xatolikni qanday topamiz?</i>			
<i>5</i>	<i>Nisbiy xatolik qanday topiladi?</i>			
<i>6</i>	<i>Kuchlanish, tok kuchi o'lchov birliklari qanday?</i>			
<i>7</i>	<i>Tok kuchi deb nimaga aytildi?</i>			

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Elektrostatik maydon deb nimaga aytildi?</i>
2	<i>Qarshilik deb nimaga aytildi? O’lchov birligi qanday?</i>
3	<i>Om qonunining ta’rif qanday?</i>
4	<i>Qarshiliklarni ketma-ket va parallel ulashda umumiy qarshilik qanday topiladi? hisoblash formulani izohlab bering.</i>
5	<i>Sxemadagi barcha asboblarning vazifalarini aytib bering.</i>
6	<i>“Ko’rik” nima vazifa bajaradi</i>
7	<i>Qarshiliklar magazini nima?</i>

13- laboratoriya ishi

KATTA QARSHILIKLARNI O’LCHASH

Kerakli asbob va materiallar:

1. Galvonometr.
2. Katta noma`lum qarshiliklar.
3. Qarshiliklar magazini.
4. Voltmetr.

Ishning maqsadi:

Katta qarshiliklarni o’lchash usuli bilan tanishish.

NAZARIY MUQADDIMA

Katta qarshiliklarni Uitston ko’prigi bilan o’lchab bo’lmaydi, chunki katta qarshiliklar Uitston ko’prigida katta kuchlanish pasayishi hosil qiladi. Bu holda katta EYuK li tok manbaidan, hamda kuchlanishda katta qarshiliklarni o’lchovchi asbobdan foydalanish zarur bo’ladi. Shuning uchun 10^5 va 10^6 Om bo’lgan katta qarshiliklar ko’pincha tok kuchi va kuchlanishlar orqali Om qonunidan foydalangan holda o’lchanadi. Bu holda tok kuchi sezgir galvanometr yoki elektrometr bilan o’lchanadi. Buning uchun galvanometr shuntlanadi.

Shunt deganda o’lchov asbobining o’lchash chegarasini oshirish uchun qo’llaniladigan, galvanometr parallel ulangan, qo’shimcha qarshilik tushuniladi.

Shunt qarshiligi Kirxgof qonunlari asosida topiladi.

Tarmoqlangan zanjir uchun Kirxgof qonunlari: Kirxgofning 1-qonuni uchtadan kam bo’limgan, o’tkazgichlarning o’tkazgan nuqtasi uchun qo’llaniladi. Bunday nuqta zanjir tuguni deyliladi. Barqaror sharoitda tugunga keluvchi tok kuchlarning yig’indisi tugundan chiquvchi tok kuchlarining yig’indisiga teng, tugunga keluvchi toklar musbat tugundan chiquvchi toklarni manfiy deb hisoblaganda Kirxgofning birinchi qonunini quyidagicha ta’riflash mumkun. Zanjir tugunida tok kuchlarining algebraik yig’indisi nolga teng. Ya’ni: $I_1 - I_2 - I_3 = 0$


$$\sum_{i=1}^n I_i = 0$$

Kirxgofning 2-qonuni har qanday berk zanjirda tok manbaalarining elektr yurituvchi kuchlarini algebraik yig’indisi, tok kuchining shu zanjirning tegishli qismlari qarshiliklariga ko’paytmalarining algebraik yig’indisiga teng.

$$\sum_{i=1}^n E = \sum_{i=1}^n I_i R_i$$

Kirxgof qonunlarini qo’llashda quyidagi amallarga rioya qilish kerak:

1. Zanjirni aylanib o’tish yo’nalishini tanlab olish kerak, soat strelkasi yo’nalishi bo’yicha yoki soat strelkasi yo’nalishiga qarama-qarshi;
2. Yo’nalish zanjirini aylanib o’tish yo’nalishi bilan mos keluvchi tok musbat ishora bilan olinadi;
3. Aylanib o’tish yo’nalishida potentsialni oshiradigan elektr yurituvchi kuch musbat deb olinadi.



1-rasm

$$\text{Kirxgofning 1-qonuniga asosan } I_0 = I_g + I_{sh} \quad (1)$$

$$\text{Va II-qonuniga asosan } I_g R_g - I_{sh} R_{sh} = C$$

$$\text{Yoki } I_g R_g = R_{sh} I_{sh} \quad (2)$$

$$(1) \text{ va } (2) \text{ dan shunt qarshiligin topamiz: } R_{sh} = \frac{I_g R_g}{I_0 - I_g}$$

Galvanometr bilan shunt (qo'shimcha qarshilik) qarshiligi, o'lchanayotgan noma'lum qarshilikdan juda kichik bo'lgani uchun galvanometr bilan shundda kuchlanish pasayishi

$$U = \frac{R_g \cdot R_{sh}}{R_g + R_{sh}} \cdot I_0$$

O'lchanayotgan noma'lum qarshilik R_{sh} ...uchlanish pasayishi $I_0 R_x$ dan juda kichik bo'ladi.

$$\text{Natijada } R_x = \frac{U}{I_0} \quad (3) \quad \text{bo'ladi.}$$


Bu formulada U - voltmetr ko'rsatilishi;

I_0 - katta qarshilikdan o'tuvchi tok.

O'tayotgan I_0 tokni, galvanometr toki I_g orqali ifodalash galvanometri ulangan qo'shimcga qarshilik R_{sh} va galvanometr qarshiligi R_g ni bilish kerak(1-rasm).

Buning uchun (2) dan I_{sh} ni topib (1)ga quyidagi natijaga ega bo'lamiz:

$$I_{sh} = \frac{I_g R_g}{R_{sh}}; I_0 = I_g + \frac{I_g R_g}{R_{sh}} = I_g \left(1 + \frac{R_g}{R_{sh}} \right) \quad (4)$$



1-rasm. Qurilmaning sxemasi.

(4) dagi ifodasini (3) tenglamagayozilsa

$$R_x = \frac{U}{I_g \left(1 + \frac{R_g}{R_w} \right)} \quad (5) \text{ ni hosil qilamiz.}$$

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. 1-rasm bo'yicha yig'ilgan sxemani tekshiring.
2. Galvanometr shuntlovchi qarshiliklar magazinidan qarshilik tanlab olinadi(100-250) Om.
3. Sxemani tok manbaiga ulang.

- Reostat surgichi yordamida o'qituvchi tomonidan berilgan kuchlanishni voltmetrda hosil qiling.
- Birinchi noma'lum katta qarshilik (1-holatdan o'tayotgan tokni) $I_{g1}=n_1*C_1=n_1*1*10^{-7}$ formulani hisoblang. n_1 - galvanometr strelkasi ko'rsatayotgan son.
- Kalitni ikkinchi qarshilikka (2-holat) ulab, galvanometr ko'rsatishini yozib oling va 2-qarshilikdan o'tayotgan tokni $I_{g2}=n_2*1*10^{-7}$ formula yordamida hisoblang.

$$R_{x1}, R_{x2} \text{ qarshiliklarni } R_x = \frac{U}{I_g \left(1 + \frac{R_g}{R_w} \right)} \text{ formulasi yordamida hisoblang. } R_g$$

galvanometrda yozilgan.

- Har bir qarshilik uchun tajribani kamida 3-marta takrorlang va natijalarni jadvalga yozing.
- Topilgan noma'lum qarshiliklarni absolyut va nisbiy xatolarini hisoblang
- Topilgan noma'lum qarshiliklarni absolyut va nisbiy xatolarini hisoblang.

Kuzatish jadvali

Qarshilik	R_n	U	I_{g1}	I_{g2}	R_g	R_{x1}	R_{x2}	ΔR_{x1}	E_{x1}

NAZORAT SAVOLLAR

- Kirxgof qonunlarini yozib bering.
- Berk zanjir uchun Om qonuni.
- Galvanometrning ishlashini tushuntiring.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash

1-ilova

B.B. B. metodi

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
<i>1</i>	<i>O'tkazgich qarshiligi to'g'risida tushuncha</i>			
<i>2</i>	<i>O'tkazgich qarshiliginig temperaturaga bog'liqligi</i>			
<i>3</i>	<i>O'tkazgich qarshiliginig o'lchash usullari .</i>			
<i>4</i>	<i>Tarmoqlangan zanjirlar uchun Kirxgoff qonunlari</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

Nazariy savollar

<i>No</i>	
<i>1</i>	<i>O'tkazgich qarshiligi to'g'risida tushuncha</i>
<i>2</i>	<i>O'tkazgich qarshiliginig temperaturaga bog'liqligi</i>
<i>3</i>	<i>O'tkazgich qarshiliginig o'lchash usullari .</i>
<i>4</i>	<i>Tarmoqlangan zanjirlar uchun Kirxgoff qonunlari</i>

14 – laboratoriya ishi

YARIM O'TKAZGICHLI DIODNI VOLT AMPER XARAKTERISTIKASINI OLISH

Kerakli asbob va materiallar.

1. Mikroampermetr, 2. Milli-ampermetr,
3. Voltmetr, 4. Selenli to'g'irlagich,
5. Reostat.

Ishning maqsadi:

Yarim o'tkazgichlar nazariyasi bilan tanishish va n-p o'tishini o'rganish.

NAZARIY MUQADDIMA

Metallarda erkin elektronlar kontsentratsiyasi juda katta ($10^{22} - 10^{23} \text{ sm}^{-3}$) shuning uchun materialarni elektr tokiga qarshiligi katta emas. Dielektriklarda erkin elektron kontsentratsiyasi kam ($n < 10^{14} \text{ sm}^{-3}$), qarshiligi esa katta. Elektr qarshiligiga nisbatan yarim o'tkazgichlar metall va dielektriklarni oraliq holatini egallaydi.

Metallar solishtirma qarshiligi $10^8 - 10^6 \text{ Om m}$, yarim o'tkazgichlarda Om m , dielektriklarda esa 10^8 Om m dan katta yarim o'tkazgichlarning solishtirma qarshiligi temperatura, yorug'lik, aralashmalar ta'sirini o'zgarishiga qarab o'zgaradi.

Metallardan farqli ravishda yarim o'tkazgichlarni qarshiligi temperatura kamayishi bilan sezilarli darajada ortadi, yarim o'tkazgichlardagi bunday o'ziga xoslik ularda erkin elektronlar kontsentratsiyasi temperatura pasayishi bilan kamayishidir. Mendeleev jadvalini uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi gruppasi elementlari ko'pgina metall oksidlari, sul'fidlari va boshqa birikmalar, yarim o'tkazgichlardir. Yarim o'tkazgichlarda o'tkazuvchanlik erkin elektronlarni harakatlantiruvchanligi (n -o'tkazuvchanlik) va teshiklarni harakatlanuvchanligi (p -o'tkazuvchanlik) bilan tushuntiriladi. Teshiklar bu elektronlar egallamagan atom bog'lanishlaridir. Teshiklar elektr maydonida o'zlaini go'yo musbat zaryad tashuvchi kabi tutadi va erkin elektronlarga qarama – qarshi, maydon bo'yicha harakatlanadi.


Xususiy o'tkazuvchanlikka ega bo'lган yarim o'tkazgichlarda (xususiy yarim o'tkazgichlar) erkin elektronlarni konsentratsiyasi teshiklar konsentratsiyasiga teng bo'ladi. Tok tashuvchi rolida ham elektronlar ham teshiklar ishtirok etadi.


(n , p – o'tkazuvchanlik). Si, Ge elementlar xususiy o'tkazuvchanlikka ega. Xususiy o'tkazgichlarda tok tashuvchilarning konsentratsiyasi (elektronlar va teshiklar) moddaning tarkibiga kirgan aralashmaga bog'liq emas, balki kristallni xususiy energetik spektrini xarakteriga bog'liq. Shu bilan birga, bir qator moddalarda tok tashuvchilar konsentratsiya Yasi ularni tarkibiga kirgan aralashmalar bilan aniqlanadi. Bunday yarim o'tkazgichlarga aralashmali yarim o'tkazgichlar deyiladi. Moddaga kiritilgan 10% aralashma qarshiligi $10^3 - 10^6$ marta kamaytiradi va erkin elektronlar yoki teshiklar konsentratsiyasini oshiradi. Kremniy va germaniy (IV gruppasi elementlari) yarim o'tkazgichlar juda yaxshi o'rganilgan va keng ko'lamda qo'llaniladi.

Ularga V gruppasi (fosfor, mishyak) elementlari qo'shish (alohida texnologik usulda bajariladi) erkin elektronlar konsentratsiyasini keskin oshirib yuboradi (donor aralashma). Bunday aralashmali yarim o'tkazgichlarga n- tipdagи yarim o'tkazgizlar deyiladi (asosiy tok tashuvchilar – erkin elektronlardir). Kremniy yoki germaniyaga III gruppasi elementlarini qo'shish (masalan bor V) qo'shimcha teshiklar hosil bo'lishiga olib keladi (aktseptor aralashma). Bunday aralashmali yarim o'tkazgichlar p o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Asosiy tok tashuvchilar – teshiklar n – o'tkazuvchanlikka ega bo'lган yarim o'tkazgich va p- o'tkazuvchanlikka ega bo'lган yarim o'tkazgich bir biriga kontakt qilinsa amaliy ahamiyatga ega bo'lган n – p – o'tish hosil bo'ladi. n – p – o'tishiga misol qilib, ham elektron, ham teshik o'tkazuvchanlik sohalari mavjud bo'lган germaniy yoki kremniy monokristallini ko'rish m

(1-rasm).

U_1 U_2







Bunday yarim o'tkazuvchanlik sohasidan teshikli o'tkazuvchanlik sohasiga diffuziyalanadi. Natijada n-p o'tish sohasida potentsiallар farqi $U = U_1 - U_2$ bo'lган ikkilangan elektr qatlами hosil bo'ladi. Kontakt potensial farqidir. Yarim o'tkazgichlar kontaktidagi potensial farqi hosil bo'lish mexanizmi metallardagi kabi bo'ladi.

Metall bilan yarim o'tkazgichlардаги tok tashuvchi konsentratsiyasini turlichaligi bu o'rinda sezilarli farqni hosil qiladi. Metallarda erkin elektronlar konsentratsiyasi shunchalik yuqorigi elektronlarni bir metall sirtidan ikkinchi metall sirtiga o'tishi hisobiga kontakt potensiallар farqi hosil bo'ladi.

Shuning uchun, metallarda ikkilangan elektr qatlами qalinligi 10^{-8} sm (yoki atom o'lchamini tarkibida), ikki metal kontakti biror qarshilik vujudga kelmaydi, potensial ber metalldan sakrab o'zgaradi (2-rasm, a)





2-rasm. a) Uchun



b) Yarim o'tkazuvchanlik uchun

Yarim o'tkazuvchanliklarda tok tashuvchilar konsentratsiyasi metallardan bo'ladi. Ularda kontakt potensiallар farqi elektronlarni (teshiklarni) bir turdagи yarim o'tkazgichdan boshqa turdagи yarim o'tkazgichga o'tish natijasida vujudga keladi. Yarim o'tkazgichlarda n-p – o'tish qalinligi d bir nechta atom o'lchamiga teng bo'ladi (2-rasm, b).

Ushbu ikkilangan elektr qatlами bo'yicha potensial tekis o'zgaradi, ikkilangan elektr qatlами ma'lum qarshilikka ega bo'ladi va uni o'lchamini atom o'lchamlaridan bir necha bora katta bo'ladi. ($d = 10^{-5}$ sm va kattaroq) n-p – o'tish egallab turgan sohada asosiy tok tashuvchilar yetarli darajada kam shuning uchun ushbu soha qarshiliği yetarlicha kattadir. Bu soha to'siq qatlами deb yuritiladi 2-rasm, b da elektr toki yo'qligidagi n-p – o'tishdagi to'siq qatlами qalinligi punktir chiziqlar



bilan ko'rsatilgan.

3-rasm. n-p – o'tishni tashqi maydonga bog'liqligi.


Agarda n-p – o'tishga tashqi kuchlanishni 3-rasm, a da ko'rsatilgandek qo'ysak, u holda tok tashuvchilar n-p – o'tishda siljishadi.

Tashqi maydon, yarim o'tkazgichlar chegarasidan elektronlarni n – sohaga va teshiklarni p – sohaga olib ketish uchun intiladi, natijada to'siq qatlami muvozanat holatidagiga nisbatan kengayadi.

Tok bu holatda juda kichik bo'ladi. Kuchlanishni bunday yo'nalishiga teskari yo'nalish deyiladi. Agarda n-p – o'tishga kuchlanish 3-rasm, b da ko'rsatilgandek qo'yilsa, bu holda asosiy tok tashuvchilar yarim o'tkazgichlar chegarasiga qarab harakatlanadi.

n-p – o'tish kengligi qisqaradi, uning qarshiligi kamayadi, tok qiymati esa teskari yo'nalishdagi tok qiymatiga nisbatan sezilarli ortadi.

O'tayotgan tokni quyidagi kuchlanishga bog'liqlik egri chizig'i n-p – o'tishni voltamper xarakteristikasi deyiladi (4-rasm).




4-rasm. Yarim o'tkazgichli diodning voltamper xarakteristikasi.

Shu holat e'tiborlik, n-p – o'tishli yarim o'tkazgich ma'lum teskari kuchlanishgacha bardosh beradi, so'ngra dielektriklardagi kabi teshilish yuz beradi. Germaniy va kremlniy asosidagi n-p – o'tishli yarim o'tkazgich elementlari radiotexnikada va elekrotexnikada keng qo'llanilmoqda. Ushbu ishdan maqsad selenli to'g'irlagichning xususiyatlarini o'rghanish.

Yarim o'tkazgichli diodni voltamper xarakteristikasini o'lchash.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. 5-rasm asosida sxema yig'ilsin.



5-rasm. Qurilmashxemasi.

2. Ish boshlanishidan oldin potentsiometr surilgichini olinadigan kuchlanish nolga teng bo'ladigan holatga qo'yish kerak.
3. Qayta ulagich "K" tokni to'g'ri yo'naltiriladigan holatga o'tkazilsin (+belgi).
4. Potentsiometr R ni surilgichini asta – sekin siljitim – 1V, 2V, 3V, 4V, 5V kuchlanishlar o'rnatilsin.
5. Olingan milliampermestr ko'rsatishlari (I_+) va voltmetr ko'rsatishlari jadvalga yozib borilsin.
6. Diodni berayotgan kuchlanish qiymatini o'zgartirmasdan qayta ulagich "K" ni tok teskari yo'nalishga oqadigan holatga o'tkazilsin.
7. Kuchlanishni shu qiymatlari uchun milliampermestr ko'rsatishari (I_+) jadvalga kiritilsin.
8. O'lchash tugagach potentsiometr R surilgichi boshlang'ich holatga qaytarilsin, sxema esa tok manbaidan uzilsin.
9. Diordan oqib o'tuvchi tok qo'yilgan kuchlanishga bog'liqlik grafigi chizilsin (4-rasmga qaralsin).

Nº	Berilayotgan kuchlanish U (volt)	To'g'ri tok I (mA)	Teskari tok I (μ A)	$K = \frac{I_+}{I_-}$

NAZORAT SAVOLLAR

1. Bitta yarim davrli to'g'irlagichni elektr sxemasini tushuntiring.
2. Diod tuzilishini tushuntiring.
3. Xususiy va aralashmali o'tkazuvchanlik nima?

4. Teshikli o'tkazuvchanlikni tushuntiring.
5. Voltamper xarakteristikasini grafigi chizilsin.
6. Donor va aktseptor aralashmalarini ta'sirini tushuntiring.
7. n-p – o'tish qanday xususiyatga ega.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
1	<i>Bitta yarim davrli to'g'irlagichni elektr sxemasini tushuntiring.</i>			
2	<i>Diod tuzilishini tushuntiring.</i>			
3	<i>Xususiy va aralashmali o'tkazuvchanlik nima?</i>			
4	<i>Teshikli o'tkazuvchanlikni tushuntiring.</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Yarim o'tkazgichli diod to'g'risida tushuncha</i>
2	<i>Donor va akseptor aralashmalarini ta'siri to'g'risida.</i>
3	<i>Teshikli o'tkazuvchanlik .</i>
4	<i>Yarim o'tkazgichli diod to'g'risida tushuncha</i>

15 – LABORATORIYA ISHI

YER MAGNIT MAYDONI KUCHLANGANLIGINING GORIZONTAL TASHKIL ETUVCHISI VA TANGENS –GALVONAMETR DOIMIYLIGINI ANIQLASH

Kerakli asbob va materiallar:

1.Tangens galvonametr. 2. O'zgarmas tok manbai.


3. Ampermetr. 4. Reostat, kalit.

Ishning maqsadi:

Yer magnit maydoni kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi o'lchash va tangens-galvonametr doimiyligini hisoblash.

NAZARIY MUQADDIMA

Yer butun bir katta shar shaklidagi magnitdir. Magnit qutblari geografik qutblarga yaqin joylashgan. Yerning shimoliy geografik qutbida janubiy magnit qutbi *S*, yerning janubiy qutbida shimoliy magnit qutb *N* joylashgan. Yerning magnit qutblari geografik qutblarga mos kelmaydi. Er bu misoli katta magnitdir. Lekin uning magnit kutblari geografik kutblar emas (Er aylaniш uқида 1- расм).




Yerni magnit maydonini Yer markazida joylashgan dipol «ab» ni magnit maydoni bilan mos keladi deb ko’rish mumkin. (2-rasm).

Oxirgi gepotezalarga ko’ra yerni magnit maydoni yer yadrosining yuzasi bo'yicha sirkulyatsiya qilayotgan toklar bilan qisman tog’ jinslari magnitlanganligi va yerni radiatsiyalangan joylari bilan bog’liqdir. Yer magnit maydoni kuch chiziqlari ekvatorda gorizontal (V nuqta), magnit qutblari (A nuqta) esa vertikal. Boshqa nuqtalarda esa (S nuqta) biror burchak ostida yo’nalgandir. Bu holda yer magnit maydon kuchlanganligini tashkil etuvchilarga ajratish mumkin.

$$N = N_t + N_v$$

(N_t – gorizontal tashkil etuvchi; N_v – vertikal tashkil etuvchi)



2-rasm. Yer magnit maydon kuch chiziqlarining yo’nalishi.

Vertikal o’qqa o’rnatilgan magnit strelkasi faqat gorizontal tashkil etuvchi ta’sirida buriladi. Magnit strelkasining bu yo’nalishi magnit meridianini yo’nalishi qilib olinadi.


Magnit strelkasi joylashgan vertikal tekislikka magnit meridian tekisligi deyiladi.

Yer magnit maydoni kuchlanganligining gorizontal (N_t) tashkil etuvchisini aniqlashda N o’ramli, R radiusli g’altakdan, ya’ni yassi vertikal o’qqa ega bo’lgan tangens-galvanometr asbobidan foydalaniladi. G’altakning markazidan kompas joylashgan (kompasning magnit strelkasining holati graduslarga bo’lingan shkaladan aniqlanadi).

Tangens-galvonametr dan tok o’tmaganda magnit strelkasi Yer magnit meridiani bo'yicha yo’nalgan bo’ladi. G’altakni vertikal o’q atrofida burib, g’altak tekisligini magnit meridian tekisligiga moslashtirish mumkin. Bu holda strelka magnit meridian bo'yicha joylashadi. ($0^0 - 180^0$ chiziq bo'yicha).

Tangens-galvonametr g’altagidan tok o’tkazilganda magnit strelkasi biror «a» burchakka buriladi, chunki magnit strelkasiga ikkita maydon ta’sir etadi.

Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi va g’altakdan tok o’tgan vaqtdagi hosil bo’lgan maydon (N_1) (2-rasm).



2-rasm

Magnit strelkasi ikkala maydon kuchlanganligi teng ta’sir etuvchisi (N) yo’nalishi bo’ylab joylashadi.

$$N = N_t + N_s$$

2b-rasmdan ko’rinadiki,

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{H_c}{H_t} \quad (1)$$

dan

$$H_t = \frac{H_c}{\operatorname{tg} \alpha} \quad (2)$$

Demak, N ni aniqlash uchun magnit strelkasi burilishi (α) va g'altak markazidagi maydon kuchlanganligini o'lchash kerak.

G'altak markazidagi magnit maydoni kuch chiziqlari yo'nalishini parma qoidasi yordamida aniqlanadi.

Parma dastasini g'altakdan o'tayotgan tok bo'ylab aylantirilgan vaqtda, parmani ilgarilanma harakati yo'nalishi g'altak markazidagi kuch chiziqlari yo'nalishini ko'rsatadi.

Bu maydonning kattaligi SI sistemasida

$$H_t = \frac{NI}{2R} \quad (3) \text{ formuladan aniqlanadi.}$$

bu yerda: N -o'rmlar soni

I – tok kuchi

R - g'altakning radiusi metrlarda.

(3) ifodadan N ning qiymatini (2) ifodaga qo'ysak,

$$H_t = \frac{H_c}{\operatorname{tg} \alpha} = \frac{H \cdot I}{2R \cdot \operatorname{tg} \alpha} \quad (4) \quad \text{hosil bo'ladi.}$$

$$I = \frac{2 \cdot H_t \cdot R}{N} \cdot \operatorname{tg} \alpha$$

(5) ifodadan ko'rindiki, strelkasini burilishi burchagi (α) g'altakdagi tok kuchiga bog'liq, u holda


$$I = C \cdot \operatorname{tg} \alpha \quad (6)$$

$$\text{bu yerda} \quad C = \frac{2 \cdot H_t \cdot R}{N} \quad (7)$$

$$C = \frac{I}{\operatorname{tg} \alpha}$$

S – ga tangens-galvanometr doimiyligi son jihatdan shunday tok kuchiga tengki, bu tok g'altakdan o'tganda strelkani og'ish burchagi 45^0 bo'ladi. Tangens-galvanometr doimiyligini aniqlash ham bizning vazifamizdir. Tangens-galvanometr doimiyligi (7) formula yordamida hisoblanadi va yana $\alpha = 45^0$ da tok bo'yicha (8) formuladan tekshiriladi.

Tangens – galvanometr doimiyligini bilgan holda, bu asbobdan ampermetr sifatida foydalanish mumkin. G'altakdan o'tayotgan tok kuchi burchak tangensiga to'g'ri proporsionaldir.



3-rasm. Qurilmaning elektr sxemasi.

ISHNING BAJARISH TARTIBI

1. 3-rasm bo'yicha elektr zanjiri tekshiriladi:

TG – tangens-galvanometr

K – ikki tomonli kalit kommutator

R – reostat

Ye – tok manbai.

2. Tangens galvanometr g'altakning tekisligini magnit meridian tekisligi (strelka uchlari 0^0 - 180^0) yo'naliish bo'ylab joylashtiriladi. (tangens-galvanometrdan tok o'tmagan vaqtida).

3. Reostat qarshiligini maksimumga o'rnatib, kalit (K) ulanadi va qarshilikni kamaytira borib, ampermetr ko'rsatilishini o'qituvchi tomonidan berilgan tok kuchi qiymatiga qo'yiladi. Berilgan tok kuchining qiymatida magnit strelkaning og'ish burchagini har ikkala uchlaridagi α'_1 , α''_1 qiymatlari yozib olinadi va jadvalga yoziladi.

4. Tok miqdorini o'zgartirmay K kalit qutbini o'zgartirib, zanjirdagi tok yo'naliishi o'zgartiriladi. Kompas strelkasi boshqa tomonga og'adi. Strelkaning og'ishini ikkala uchlaridagi qiymati α'_1 va α''_1 aniqlanadi va jadvalga yoziladi.

5. Strelka og'ish burchagini 4 xil qiymatdan burchaklarning o'rtacha ($\alpha_{o'r}$)

6. Tok kuchining boshqa qiymatlari uchun tajriba 3-4 marta takrorlanadi.

7. G'altak radiusi chizg'ich bilan o'lchanadi.

8. (4) formuladan N_t hisoblanadi.

9. (7) va (8) formulalar bilan tangens – galvanometr doimiyligi hisoblanadi.

Kuzatish jadvali

<i>Nº</i>	α_1		α_1		$tg \alpha$	<i>I</i>	<i>N</i>	<i>R</i>	<i>H_t</i>	<i>C</i>
	α'_1	α''_1	α'_2	α''_2						

o'rtacha

Nazorat savollar

1. Aylanaviy tok markazidagi magnit kuchlanganligi nimaga bog'liq?
2. Aylanaviy tok markazidagi kuchlanganlik chiziqlarni yo'naliishi qanday aniqlanadi?
3. Tangens-galvanometr tuzilishi va ishlash printsipini tushuntiring.
4. Tangens-galvanometr doimiyligi fizik ma'nosini aytинг.
5. Nima uchun tangens-galvanometr g'altagi magnit meridian yo'naliishiga orientirlanadi?
6. Tangens-galvanometr yordamida zanjirdagi tok kuchi qanday o'lchanadi?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

<i>Nº</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilmoqchiman</i>	<i>Bildim</i>
<i>1</i>	<i>Toklarning magnit maydoni</i>		
<i>2</i>	<i>Magnit maydon induksiyasi va kuchlanganligi orasidagi boglanish</i>		
<i>3</i>	<i>Aylanma tokning markazidagi magnti maydon kuchlanganligi</i>		

4	<i>Tangens-galvanometr doimiysini qanday kataliklarga bog'liqligi</i>		
---	---	--	--

2-ilova

"Aqliy hujum" metodi

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Aylanaviy tok markazidagi magnit kuchlanganligi nimaga bog'liq?</i>
2	<i>Aylanaviy tok markazidagi kuchlanganlik chiziqlarni yo'nalishi qanday aniqlanadi?</i>
3	<i>Tangens-galvanometr yordamida zanjirdagi tok kuchi qanday o'lchanadi?</i>
4	<i>Nima uchun tangens-galvanometr g'altagi magnit meridian yo'nalishiga orientirlanadi?</i>
5	<i>Tangens-galvanometr doimiyligi fizik ma'nosini ayting.</i>
6	<i>Tangens-galvanometr tuzilishi va ishslash printsipini tushuntiring.</i>


16 – laboratoriya ishi

**TRANSFORMATORNING TRANFORMATSIYALASH KOEFFITSIENTINI VA F.I.K.
ANIQLASH**

Kerakli asbob va materiallar: 1. Transformator. 2. Voltmetr 2ta. 3. Ampermetr 2ta. 4. Reostat. 5. Kalitlar. 6. Avtotransformator (LATR). 7. Surgichli geoxord. 8. Kichik qarshilikka ega bo'lgan telefon.


Ishning maqsadi: Transformatorning transformatsiyalash koeffitsientini va F.I.K. ni aniqlash.
NAZARIY MUQADDIMA

Transformator deb, bir kuchlanishdagi o'zgaruvchan tokni, ikkinchi xil kuchlanishli o'zgaruvchan tokka aylantirib beruvchi asbobga aytildi



1-rasm

Transformator elektromagnit induksiya hodisasiiga asoslangan holda ishlaydi. Transformator temir o'zakdan va unga joylashtirilgan o'ramlar soni n_1 , bo'lgan birlamchi va o'ramlar soni n_2 bo'lgan ikkilamchi g'altakdan iboratdir. Temir o'zak bir-biridan izolyatsiyalangan elekrotexnik po'lat plastinkalaridan yasalgan. Ikki chulg'amli transformatorning sxemasi 2a-rasmda, shartli belgilashlari esa 2b-rasmda berilgan.



2-rasm. Ikki chulg’amli transformatorning sxemasi. (a) va shartli belgilari (b).

Transformatorni birlamchi g’altagini o’zgaruvchan tok manbaiga ulasak, o’zgaruvchan magnit oqimi F hosil bo’ladi. Magnit oqimi ma’lum qismi (F_k) o’zak orqali o’tib ikkilamchi g’altakni kesib o’tadi, qolgan qismi (F_s) g’altakni kesib o’tadi, havoni kesib o’tadi. Bu oqim (F_s) birlamchi g’altakning sochilish oqimi deb ataladi. Demak (F_k) magnit oqimining asosiy qismi bo’lib, ishchi oqim deb ataladi.

$$F = F_k + F_s$$

Agar magnit oqimni hosil qilayotgan o’zgaruvchan tok kuchlanishi sinusoidal bo’lsa, $U = U_0 \cdot \sin \omega \cdot t$ o’zakdan o’tuvchi magnit oqimi ham sinusoidal bo’ladi. $F_u = F_0 \cdot \sin \omega \cdot t$ hosil bo’lgan o’zgaruvchan magnit oqimi birlamchi g’altakni kesib o’tib o’zinduktsiya $EYuK$ Ye E_1 va ikkilamchi g’altakni kesib o’tib induktsiya $EYuK$ E_2 ni hosil qiladi. Transformatorning birlamchi va ikkilamchi g’altagida hosil bo’lgan induktsiya $EYuK$ ni oniy qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$E_1 = -n_1 \frac{d\phi_k}{dt} = -n_1 \phi_k \omega \cos \omega t = n_1 \phi_0 \omega \sin \left(\omega t - \frac{\pi}{2} \right)$$

$$E_2 = -n_2 \frac{d\phi_k}{dt} = -n_2 \phi_k \omega \cos \omega t = n_1 \phi_0 \omega \sin \left(\omega t - \frac{\pi}{2} \right)$$

Bu formulalardan ko’rinadiki, induktsiya $EYuK$ magnit oqimidan faza jihatidan $90^\circ \left(\frac{\pi}{2} \right)$ orqada qoladi.

$Ye_0 = -n_1 F_0 \omega = n_1 F_0 2\pi f$ induktsiya $EYuK$ ni amplituda qiymatini ifodalaydi.

Bu erda f - o’zgaruvchan tok chastotasi (ffff)

Induktsiya $EYuK$ ning effektiv qiymati quyidagi formula bilan ifodalanadi.



$$E_1 = \frac{E_k}{\sqrt{2}} = \frac{2\pi}{\sqrt{2}} n_1 \cdot \phi \cdot f = 4,44 n_1 \cdot \phi \cdot f$$

$$E_2 = \frac{E_k}{\sqrt{2}} = \frac{2\pi}{\sqrt{2}} n_2 \cdot \phi \cdot f = 4,44 n_2 \cdot \phi \cdot f$$

Induktsiya $EYuK$ ning effektiv qiymatlarini nisbati bilan o’lchanadigan kattalik transformatsiyalash koeffitsienti deyiladi.

$$K = \frac{E_1}{E_2} = \frac{n_1}{n_2}$$

Bu formuladan ko’rinadiki, transformatorning ikkilamchi g’altagini o’ramlar soni $n_2 > n_1$ dan katta bo’lsa, Ye_2 ham katta bo’ladi. Natijada transformator kuchaytiruvchi $K > 1$ deyiladi, birlamchi g’altakni o’ramlar soni $n_1 > n_2$ dan katta bo’lsa, $Ye_1 > Ye_2$ bo’ladi. Transformator esa pasaytiruvchi $K < 1$ deyiladi (3-rasm).



qoplamlali temir o'zak

3-rasm

Transformatorning birlamchi g'altagiga berilayotgan o'zgaruvchan tok kuchlanishi U_1 birlamchi g'altakdan hosil bo'lган, induksiya $EYuK E_1$, sochilish oqimi hosil qilgan induksiya $EYUK E_2$ va birlamchi g'altakning aktiv qarshiligidagi kuchlanish pasayishiga (I_1, R_1) teng bo'ladi.

Ikkilamchi g'altakdagi kuchlanish U_2 induksiya $EYuK E_1$ ga va ikkilamchi g'altakning aktiv qarshiligidagi kuchlanish pasayishiga (I_1, R_1) teng bo'ladi.

$$U_2 = -E_2 + I_2, R_2$$

Transformatorning salt ishlashi

Transformatorning birlamchi g'altagi o'zgaruvchan tok manbaiga ulanib, ikkilamchi g'altagi iste'molchiga ulanmagan bo'lsa, transformator salt ishlaydi. Transformatorni salt ishlashida o'zgaruvchan magnit oqimining ishchi oqimi F_u ning 0,25% sochilish oqimi tashkil qiladi, shuning uchun sochilish oqimini hosil qilgan induksiya $EYuK E_s$ o'zinduktsiya $EYuK E_1$ juda kichikdir. Odatda transformatorning salt ishlash toki nominal tokning 3-6% ni tashkil qiladi, shuning uchun birlamchi g'altakdagi kuchlanishi pasayishi I_1, R_1 – kichik qiymatlarga ega. Demak, transformatorni birlamchi g'altagidagi kuchlanish U_1 o'zinduktsiya $EYuK Y_{E_1}$ ga teng bo'ladi.

$$U_2 = -E_1 - Y_{E_2} + I_1, R_1 \quad \text{dan} \quad U_1 = -E_1$$

Salt ishlashida ikkilamchi g'altakdagi kuchlanish U_2 induksiya $EYuK E_2$ ga teng bo'ladi, chunki ikkilamchi g'altakdan o'tuvchi tok $I_2 = 0$ ga teng.

Transformatorning salt ishlayotgan vaqtida ikki voltmetr yordamida U_1 va U_2 o'lchanib quyidagi formula yordamida transformatsiyalash koeffitsientini hisoblash mumkin.

$$K = \frac{E_1}{E_2} = \frac{U_1}{U_2}$$

Transformatorning foydali ish koeffitsienti F.I.K.

Hozirgi zamон transformatorlari, ayniqsa katta quvvatli transformatorning F.I.K. juda yuqoridir (F.I.K. 90-99%).

Kichik quvvatli transformatorlarda esa F.I.K. ancha past. Transformatorlarni F.I.K. foydali quvvatni, umumiy quvvatga bo'lган nisbati bilan aniqlanadi.

$$\eta = \frac{P_2}{P_1} = \frac{I_2 U_2}{I_1 U_1}$$


Transformatorning ishlashida g'altaklarning qizishi, o'zakdagi Fuko toklari, magnit oqimini yo'qolishi, o'zakning qayta magnitlanishi tufayli energiya isrof bo'ladi. Lekin bu isroflar juda kichik, shuning uchun F.I.K. hisoblashda

$$\eta = \frac{I_2 U_2}{I_1 U_1} \quad \text{formula o'rnlidir.}$$

Transformatorning transformatsiyalash koeffitsientiniva F.I.K. ni aniqlash

1. 2-rasmdagi sxema bo'yicha zanjirni tuzing.
2. Ikkilamchi g'altakdagi kalitni uzib qo'ying. Birlamchi g'altakni o'zgaruvchan tok manbaiga ulang va transformatorni salt ishlayotgan vaqtda o'lchov asboblarini ko'rsatishini yozib oling.
3. $K = U_1 / U_2$ formula yordamida transformatsiyalash koeffitsientini hisoblang.
4. K – bo'yicha transformator kuchaytiruvchini yoki pasaytiruvchini aniqlang.
5. Reostatning surilgichini qarshilikning eng katta qiymatiga qo'ying.
6. Kalit K bilan ikkilamchi g'altakni ulang. Asta-sekin ikkilamchi g'altakdagi tokni oshirib, voltmetr va ampermetr ko'rsatishini yozib boring.

O'lchashlar natijasi jadvalga yoziladi va formula F.I.K. hisoblanadi.



4-rasm. Ikki chulg'amli transformatorning elektr sxemasi.

Kuzatish jadvali

Ikkilamchi g'altak			Birlamchi g'altak			F.I.K.
Kuzatish natijasi		Hisoblash natijasi	Kuzatish natijasi		Hisoblash natijasi	
I_2	U_2	P_2	I_1	U_1	P_1	P_2/P_1

7. Olingannatijalaryordamida F.I.K. ningikkilamchig'altakdano'tuvchitokkuchi (Y₂) gabog'liqrafiginichizing.

$$\eta = f(I_2)$$

Nazorat savollar

1. Transformatorning tuzilishi va ishlashi prinsipi?
2. Transformatorning koeffitsienti deb nimaga aytildi?
3. Transformatsiyalash koeffitsientini aniqlashda kompensasiya usulini ma'nosi nima?
4. Trasformatorni salt ishlashi deb nimaga aytildi?
5. Trasformatorda qanday energiya yo'qolishlari ro'y beradi?
6. Transformatorning F.I.K. qanday topiladi?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

Nº	Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim
1	<i>Elektromagnit induksiya xodisasi to'g'risida tushuncha</i>		
2	<i>Avtotransformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi</i>		
3	<i>Avtotransformatorning transformatsiyalash koeffitsiyenti .</i>		
4	<i>Transformator va avtotransformatorning bir biridan farqi</i>		

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

Nº	Nazariy savollar
1	<i>Transformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi?</i>
2	<i>Transformatorning koeffitsienti deb nimaga aytildi?</i>
3	<i>Transformatsiyalash koeffitsientini aniqlashda kompensasiya usulini ma'nosi nima? Trasformatorni salt ishlashi deb nimaga aytildi?</i>
4	<i>Trasformatorda qanday energiya yo'qolishlari ro'y beradi?</i>
5	<i>Transformatorning F.I.K. qanday topiladi?</i>

17 - LABORATORIYA ISHI MIKROSKOP YORDAMI BILAN SHISHANING SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH

Ishning maqsadi:

Shishanining sindirish ko'rsatkichini tajriba yo'li bilan aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar:

1. Mikroskop
2. Ikki tomoni bir-biriga tik qilib ko'rilgan (chizilgan) shisha plastinkacha
3. Mikrometr yoki shtangensirkul.

NAZARIY MUQADDIMA

Yorug'lik jism sirtiga tushganda qaytish va sinish hodisalarini geometrik optikaning quyidagi qonunlari ifodalaydi.

I.QAYTISH QONUNI

1. Tushgan va qaytgan nurlar, hamda nurlarning ikki muhit chegarasiga tushish nuqtasiga o'tkazilgan normal bir tekislikda yotadi.

2. Qaytish burchagi i_1 tushish burchagi i_1 ga teng (1-rasm).

II. SINISH QONUNI

1. Tushgan va singan nur, nurning tushish nuqtasiga o'tkazilgan normal n_1 n_1 bilan bir tekislikda yotadi.


2. Tushish burchagi sinusining (i_1) sinish burchagi (i_2) sinusiga nisbatli berilgan ikki muhit uchun o'zarmas kattalik bo'lib, ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan sindirish ko'rsatkichi (n_{21}) deb ataladi (1- rasm).

$$\frac{\sin i_1}{\sin i_2} = n_{21} \quad (1)$$

Agar birinchi muhit o'rnida vakuum bo'lsa, u holda ikkinchi muhitning vakuumga nisbatan sindirish ko'rsatkichini shu muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi deyiladi. Yorug'lik bir muhitdan ikkinchi muhitga o'tganda uning tezligi o'zgaradi.

$$\frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad (2)$$

Bu yerda: ϑ_1 - yorug'likning birinchi muhitdagi tarqalish tezligi;



1-rasm

ϑ_2 - yorug'likning ikkinchi muhitdagi tezligi;

i_1 -yorug'likning birinchi muhitdagi normalga nisbatan tushish burchagi;
 i_2 -normalga nisbatan ikkinchi muhitdagi sinish burchagi.

Agar yorug'lik vaakuumdan zichligi katta bo'lgan muhitga sinib o'tsa, u holda $\vartheta_1 = c$ yorug'likni vakuumdagi tezligi bo'lib, $\vartheta_2 = \vartheta_s$ desak (2) formula quyidagicha yoziladi.


$$\frac{c}{\vartheta_s} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad (3)$$

Yuqoridagi ta'rifga ko'ra absolyut sindirish ko'rsatgichi

$$n = \frac{c}{\vartheta_s}, \quad n = \frac{\sin i_1}{\sin i_2}$$

Bu yerda: ϑ - yorug'likning optik zichligi katta bo'lgan muhitdagi tezligi;
 s - yorug'likning vakuumdagi tezligi.


Ikkinci muhitning sindirish ko'rsatkichi kichik bo`lgandagina, to`la ichki qaytishi hodisasi ro`y beradi



23-26-rasm. $n_2 < n_1$ bo`lganida, agar tushish burchagi $\theta_1 > \theta_c$ bo`lsa, xuddi L nur kabi yorug'lik nurlari to`la ichki qaytadi. Agar $\theta_1 < \theta_c$, I va J kabi yorug'lik nurlarining bir qismi qaytadi va qolgan qismi sinadi.

Havo uchun $n=1,0000292$ bo'lib, taqriban 1 deb olinadi. Shuning uchun yorug'lik nuri havodan shisha plastinkasiga tushsa, bir qismi yorug'lik shisha sirtidan qaytadi va shishadan sinib o'tadi. U vaqtida havo-shisha va shisha-havo uchun quyidagi tenglamalar o'rini bo'ladi:

$$\frac{n_2}{n_1} = \frac{\sin i_1}{\sin i_2} \quad \text{va} \quad \frac{n_1}{n_2} = \frac{\sin i'_2}{\sin i''_1} \quad (4)$$



2-rasm. Yassi parallel yoqli shisha plastinkadagi nur yo'li.


Demak, nur optik zichligi kichik bo'lgan muhitdan optik zichligi katta bo'lgan muhitga sinib o'tishda,

- a) $n_1 < n_2$ bo'ladi; b) $i_1 > i_2$ bo'ladi.

Aksincha, optik zichligi katta bo'lgan muhitdan optik zichligi kichik bo'lgan muhitga sinib o'tishda

- a) $n_1 > n_2$ b) $i'_1 < i'_2$ bo'ladi.

Quyida yassi, parallel yoqli plastinkada yorug'lik nurini tushishi va undan sinib qaytishlari (3-rasmida ko'rsatilgan).



3-rasm. Yassi plastinkada yorug'lik nurini tushishi va undan sinib qaytishi.

Yorug'lik nuri SV yo'nalishida yassi shisha (shaffof jism) plastinkaga tushganda ikki muhit chegarasida sinib va qaytib (SV), (VA), (AV_1) va nihoyat (V_1S_1) yo'nalishda bo'ladi. n_1 -muhit havo, n_2 -muhit esa shisha plastina. Lekin kuzatuvchi yuqoridan pastga qarab kuzatayotgan bo'lsa, shisha qalinligi o'zgargandek bo'ladi. Haqiqatan ham kuzatuvchiga nisbatan yorug'lik nurini (A) nuqtasi, o'z

o'rnida ko'rinnmay (A_1 nuqtada, ya'ni (A) nuqtadan yuqoriroqda ko'rindi). (A) nuqtaning mavhum tasviri deyiladi.

Bu faraziy (A_1) nuqta,

3 -rasmda $AO = N$ - shisha plastinkani haqiqiy qalinligi, $A_1O = h$ - shisha plastinkanining mavhum qalinligi.

Tushish va sinish burchaklari juda kichik bo'lganida ularning sinusini tangenslarga almashtirish mumkin. Shuning uchun (3) formula o'rnida uchburchak A_1OB dan):

$$\operatorname{tgi}_1 = \frac{OB}{OA_1} = \frac{OB}{h}, \quad n = \frac{\operatorname{tgi}_1}{\operatorname{tgi}_2} \dots \quad (5)$$


Shunga o'xshash: ΔAOB dan: $\operatorname{tgi}_2 = \frac{OB}{OA} = \frac{OB}{H}$ bo'ladi.

Bularni (5) formulaga qo'yilsa,

$$n = \operatorname{tgi}_1 / \operatorname{tgi}_2 = OA / OA_1 = H / h \text{ yoki } n = H / h \quad (6)$$

Demak, (6) formulaga ko'ra plastinkanining haqiqiy qalinligini uning mavhum qalinligiga nisbati shisha plastinkani sindirish ko'rsatkichini beradi.

ASBOBNI TUZILISHI VA UNDA O'LChASH METODI




4-rasm. Mikroskopdagi yorug'lik nurlari yo'lining optik sxemasi ko'rsatilgan.

Rasmda (L_1)-ob'ektiv, (L_2)-okulyar, AB - buyum kattaligi, $A'B'$ -buyum tasviri, f_1 - ob'ektivning fokus oralig'i, f_2 -okulyarning fokus oraligi, $A''B''$ buyumning kattalashgan mavhum tasviri.

IShNI BAJARISH TARTIBI

1. Shisha plastinkachaning haqiqiy qalinligi Hni mikrometr bilan har yeridan (kamida 5 ta yeridan) qalinligi o'lchanadi va jadvalga yoziladi.
2. Shisha plastinkachadagi qirilgan chiziqlarini, ya'ni shishani mavhum qalinligini mikroskop yordamida aniqlanadi.
3. Mikroskopni quyidagicha ishga tushiriladi.



5-rasmda mikroskopning tashqi ko'rinishi berilgan.

Yoritgich lampochkani manbaga ulab mikroskopni pastki qismidagi ko'zg'aluvchi ko'zgu (1) ga to'g'rilanadi. Bu vaqtda okulyar (5) dan qaralganda yoritilganlik maksimal holatga erishgan bo'lishi kerak. Agar mikroskopda kondensator (2) bo'lsa, u vaqtda alohida burash vinti bilan yoritilganlikni to'g'rilash kerak.

4. Ikki tomoni qirilgan shisha plastinkani mikroskopni (3) taxtachasi ustiga qo'yiladi.

5. Tubus vinti (4) yordami bilan ob'ektiv (6) ni shisha plastinka ustiga tekkuncha pastga tushiriladi.

Shishani ustki qirilgan chizig'i okulyar (5) orqali aniq va ravshan ko'ringunga qadar tubus vinti (4) buraladi. Mikrometr (7) ni soat strelkasiga teskari yo'nalishda burab undagi darajani (O_1O) holatga keltirib qo'yiladi. So'ngra mikrometrdan (n') hisoblab olinadi.

6. Endi shisha plastinkani ostki chizilgan chizig'ini aniq va ravshan ko'ringuncha mikrometr vintini soat strelkasi yo'nalishida burab boriladi. Chizik aniq va ravshan ko'ringungacha buralgandagi buralishlar soni (m) hisoblanadi va mikrometr darajasidan (n'') hisoblab olinadi.

Bu yerda (m) vintni to'liq buralishlar soni; (n'') esa vintni qisman buralgan darajasi.

7. mikrometr bir marta to'liq aylangandagi bo'linma soni $Q=50$. Demak, Q , m , n' va n'' larni bilgan holda, umumiy bo'linmalar soni (N) quyidagicha

$$N = (Q - n') + mQ = n'' \quad \text{hisoblanadi.}$$

8. Shisha plastinkaning mavhum qalinligi

$$h = \alpha N$$

ga teng.

Bu yerda: $\alpha = 0,002$ mm teng bo'lib, mikrometr boshchasi bitta bo'limiga buralganda tubus qancha (mm) balandlikka ko'tarilishini ko'rsatadi. Olingan natijalar jadvalga kiritiladi. Nihoyat shishani sindirish ko'rsatkichini aniqlash uchun (6) formulani o'rtacha hisobidan foydalanamiz.

$$n_{o,rt} = H_{o,rt} / h_{o,rt} \quad (7)$$

Absolyut va nisbiy xatoliklarni aniqlab, shishaning haqiqiy sindirish ko'rsatkichi $n = (n_{o,rt} \pm \Delta n)$ topiladi.

jadval

Tar-tib №	Shisha plastinka qalinligi			Tubusni siljishi ostki, ustki chiziq				Mavhum qalinligi		
	N	$N_{o,rt}$	ΔN	Q-n'	M	n''	N	h	$h_{o,rt}$	Δh
1.										

2.										
3.										
4.										
5.										
6.										
7.										
8.										

TEKShIRISH UChUN SAVOLLAR

1. Muhitni sindirish ko'rsatkichi deb nimaga aytildi?
2. Absolyut va nisbiy sindirish ko'rsatkichlar orasida qanday farq bor?
3. Mikroskopni optik sxemasini chizing.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
<i>1</i>	<i>Muxitni sindirish ko'rsatkichi</i>			
<i>2</i>	<i>Absolyut sindirish ko'rsatkichi</i>			
<i>3</i>	<i>Nisbiy sindirish ko'rsatkich</i>			
<i>4</i>	<i>Qaytish qonuni</i>			
<i>5</i>	<i>Sinish qonuni</i>			
<i>6</i>	<i>Mikroskop</i>			
<i>7</i>	<i>Mikrometr.</i>			
<i>8</i>	<i>Okulyar</i>			
<i>9</i>	<i>Ob'ektiv.</i>			
<i>10</i>	<i>Ko'zgu</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
<i>1</i>	Muhitni sindirish ko'rsatkichi deb nimaga aytildi?
<i>2</i>	2. Absolyut va nisbiy sindirish ko'rsatkichlar orasida qanday farq bor?
<i>3</i>	3. Mikroskopni optik sxemasini chizing.

18 - LABORATORIYA IShI REFRAKTOMETR YoRDAMIDA SUYUQLIKNING SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Har xil konsentratsiyali suyuqliklarning sindirish ko'rsatkichini aniqlash.

Kerakli saboblar:

1. IRS - 22 tipidagi refraktometr;
2. Turli konsentratsiyali qand eritmalar (qorishtirgich shisha tayoqcha);
3. Kolbada distillangan suv;

4. Prizmalarni tozalash uchun material.

NAZARIY MUQADDIMA

Refraktometr moddalarning sindirish ko'rsatkichini aniqlashga moslashtirilgan optik asboblardan biri hisoblanadi. Ko'pincha suyuq moddalarni sindirish ko'rsatkichini aniqlashda refraktometrdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Unda suyuqlik moddalarining sindirish ko'rsatkichi $1,3 \leq n \leq 1,7$ intervalda aniqlanadi. Bo'shliqdagi yorug'lik tezligini biror muhitdagi yorug'lik tezligiga nisbati, shu muhitning sindirish ko'rsatkichi deyiladi.

$$n = \frac{c}{g}$$

Bu yerda: n - muhitning absolyut sindirish ko'rsatkichi;
 c - bo'shliqdagi yorug'lik tezligi;
 g - muhitdagi yorug'lik tezligi.

Suyuqliklarning sindirish ko'rsatkichini refraktometr yordamida ikki xil usul bilan aniqlash mumkin:

1-usul nurning tug'ri burchakli prizma asosida sirpanishga asoslangan.

2-usul nurninig to'liq ichki qaytishiga asoslangan.


Quyida yorug'lik nurini muhitda to'la ichki qaytish xossasiga asoslanib, suyuq jismlarning sindirish ko'rsatkichini va suyuq aralashmalarining konsentratsiyasini Abbe refraktometri yordamida aniqlashga tushuncha berilgan. Yorug'lik nuri zichligi katta bo'lган muhitdan zichligi kam bo'lган muhitga chiqishda, to'liq ichki qaytish hodisasi ro'y beradi. Faraz qilaylik yorug'lik optik zichligi katta bo'lган muhitdan optik zichlik kichik bo'lган muhitga sinib chiqayotgan bo'lzin ($n_1 > n_2$): u vaqtda tushish burchagi (i_1) kattalashgan sari, sinish burchagi (i_2) tezroq o'sadi.

Cinish burchagi $i_2 = \pi/2$ ga teng bo'lganda to'la ichki qaytish hodisasi sodir bo'ladi:

$$\frac{\sin i_1}{\sin(\pi/2)} = \frac{n_2}{n_1} \quad \text{yoki} \quad \sin i_{\text{chezar}} = \frac{n_2}{n_1} \quad (2)$$

Shuning uchun (2) formuladagi (i_{chezar})ni chegaraviy burchak deyiladi.

Tushish burchagi kattalashgan sari qaytgan nur intensivligi orta boradi, singan nur intensivligi esa kamaya boradi. Tushish burchagi $i_1 = i'$ - chegara bo'lganda $i_2 = \pi/2$ bo'lib, singan nur intensivligi nolga teng bo'ladi. Bu hodisani to'la ichki qaytish hodisasi deyiladi. 1-rasmda to'la ichki qaytish hodisasi aks ettirilgan.




1 - rasm. Yorug'lik nurining tushishi, qaytishi va sinishi chizmasi.

- Rasmda
- i_1 -tushish burchagi
 - i' - qaytish burchagi
 - i_2 - sinish burchagi
 - i_{chegar} -chegaraviy (limit) burchak

ASBOBNI TUZILISHI

Asbobning ishlash prinsipi yorug'likning sindirish ko'rsatkichlarida turlicha bo'lgan ikki muhitning ajralish chegarasidan o'tishida sodir bo'ladigan hodisalarga asoslangan. Refraktometr quyidagi qismlardan tashkil topgan. Asosiy qismi ikkita to'g'ri burchakli prizmadan iborat. Bu prizmalar sindirish ko'rsatkichi $n = 1,7$ ga teng bo'lgan flintdan yasalgan og'ir shishadan iborat. Bu prizmalar orasida sindirish ko'rsatkichi aniqlanishi kerak bo'lgan suyuqlik tomchisi quyiladi. Prizmalarni ustki qismini AV yog'i xiralantirilgan bo'lib, u o'zidan o'tuvchi yorug'lik nurini suyuqlik sirtiga bir xilda sochib berishga xizmat qiladi. Suyuqlik sirtiga tushgan yorug'lik sinib o'tishda $0^\circ - 90^\circ$ ga burchak ostida ostki yoki ikkinchi prizmani dioganal yuziga tushadi.



2 - rasm. Refraktometr prizmalarining chizmasi.

Ammo ustki prizmaning sindirish ko'rsatkichi suyuqlikning sindirish ko'rsatkichidan katta bo'lganidan suyuqlikda (RS) nur sirtda sirpangan nur hisoblanadi. Bu nurlar dastasi ostki prizma chegarasida juda katta sinish burchagi ($<MST$) ni hosil qiladi. So'ngra sinib tashqariga chiqadi.

Demak, RS dastasi uchun

$$n=n'sini_1$$

(3)

ga ega bo'lamiz.

Bu yerda: n - suyuqlikning sindirish ko'rsatkichi
 n' - shisha prizmaning sindirish ko'rsatkichi
 i_1 - sinish burchagi
 2 - rasmida T nuqtasi uchun

$$n'sini'_1 = \sin i_2$$

(4)

ga ega bo'lamiz.

Prizmani sindirish burchagi

$$\alpha = i_1 + i'_1$$

(5)

i_2 - yorug'lik dastasining prizmadan eng katta chiqish burchagi. (3), (4) va (5) larga asosan suyuqlikning sindirish ko'rsatkichi

$$n = \sin \alpha \cdot \{(n')^2 - \sin^2 i_2\}^{1/2} - \cos \alpha \cdot \sin \alpha \quad (6)$$

ko'rinishda bo'ladi. (6) formula prizmalar oralig'iga tomizilgan suyuqlik (aralashma) ning sindirish ko'rsatkichini beradi.

Har ikki prizmalar oraliqlari juda yupqa suyuqlik qatlami (0,1 mm) bo'lganidan, $i'_1 \rightarrow 0^\circ$, shunga ko'ra $i_2 \rightarrow 0^\circ$ bo'ladi, va nihoyat (6) tenglik quyidagi sodda holga keladi:


$$n = n' \sin \alpha$$

(7)

To'liq ichki qaytishga asoslangan 2-usul bilan tanishishda, nur quyi prizmani B'A' qirrasiga refraktometrning quyi tirkishidan tushayotgan deb faraz qilaylik. Bu nuring B'A' yoqqa tushish burchagi i''_1 bo'lsin (2-rasmga qarang). Agar $i''_1 > i_1$ bo'lsa, nur B'A' qirradan to'la qaytadi. B'A' yondan qaytgan nur A'C yoqqa i'_1 burchak ostida tushib, bu yoqdan i_2 burchak ostida sinib chiqadi. Agar birinchi holdagidek prizmadan chiqayotgan nurlar ko'rish trubasi orqali kuzatilsa, u holda ko'rish maydonining ko'rinish sohasi ikki xil ko'rinishda kuzatiladi: biri (pastki yarmi) yorug' bo'lib, ikkinchisi (yuqori yarmi) qorong'u bo'lib ko'rindi. Tajriba vaqtida oq yorug'lik manbaidan foydalanilsa, yuqori yarim qorong'usi dispersiyaga ega bo'ladi.

Har ikkalasining bo'linish chegarasini aniq ko'rish uchun kompensatori ozgina burish kerak. Shu yo'sinda suyuqlik aralashmasining sindirish ko'rsatkichi aniqlanadi.

Quyidagi rasmda refraktometrning tashqi ko'rinishi ko'rsatilgan.



3 - rasmda refraktometrning tashqi ko'rinishi berilgan.

Rasmida:

1. Refraktometri tutib turuvchi taglik
2. Sterjen
3. Prizmalar
4. Kompensator maxovigi

5. Hisob olinadigan bo'linmalar (shkalalar) unda eritmaning konsentratsiyasi (%) protsentlarda ko'rsatilgan.

6. Lupa.

IShNI BAJARISH TARTIBI

1. Refraktometr prizmalari (3) ni ochib, ularni oldin distillangan suv va ho'llangan latta bilan, so'ngra quruq latta bilan artiladi.

2. Shisha tayoqchasini ajratilgan uchi bilan distillangan suvdan bir-ikki tomchini pastki prizma ustiga tomiziladi va ustki prizmani yopiladi.

3. Prizmaning ko'rinishi sohasini yoritgich bilan eng yaxshi yoritilganlikka keltiriladi. Bu ishni lupa (6) orqali kuzatiladi.

4. Har ikki soha chegarasida spektr ranglarini kompensatorning maxovigi (4) bilan yo'qotiladi.

5. Maxovik (4) yordami bilan kompensator ichida ko'zga ko'ringan gorizontal uchta chiziqchani chizig'i ustiga keltiriladi.

6. Chegara chizish ustiga ustma-ust tushirilgan uchta chiziqcha yonidagi shkaladan (n_0) hisob olinadi.

7. Distillangan suvni sindirish ko'rsatkichi 1,333 deb, shkalaning xatoligi (absolyut xatoligi) quyidagi formuladan topiladi.

$$\Delta n = n_0 - 1,333$$

8. Yuqori prizmani ko'tarib qo'yib, har ikkala prizmaning sirti ko'ringuncha yaxshilab artiladi. So'ngra (1) qand eritmasi aralashgan suyuqlikdan bir-ikki tomchisini pastki prizmaga tomizilib, ustki prizma yopiladi va (6) punktdagi (n_0) ni aniqlangani singari (n_1) ni aniqlanadi.

9. Shu tariqa boshqa eritmalar ham bir necha marta tajriba o'tkaziladi.

10. Har bir eritmalar uchun topilganlarni jadvalga yoziladi.

11. Yuqoridagi usulda bilan topilgan sindirish ko'rsatkichlarini o'ng tomonida tekshirilayotgan eritma uchun bir yo'la protsentlari ham berilgan, uni lupadan yaqqol ko'rish mumkin. Shunday qilib, eritmalarни haqiqiy sindirish ko'rsatkichi

$$n'_1 = n_1 - \Delta n$$

$$n'_2 = n_2 - \Delta n$$

formulalar bilan aniqlanadi.

jadval

Aralashmalar nomeri	Kuzatilayotgan ko'rsatkichlar				Konsentratsiya	Konsentratsiya xatoligi
	n'_1	n'_2	n'_3	n'_4		
1. Distillangan suv						
2. № 1						
3. № 2						
4. № 3						
5. № 4						

Distillangan suv uchun $n = 1,333$ va $\Delta n = 0,01$.

TEKShIRISH UChUN SAVOLLAR

1. Sindirish ko'rsatkichini absolyut va nisbiy xatoligi deb nimaga aytildi?
2. Refraktometrning ishslash prinsipini aytинг.
3. To'la ichki qaytish hodisasi nimadan iborat?
4. Limit burchagi deb nimaga aytildi?
5. Eritmaning konsentratsiyasi deb nimaga aytildi?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo'llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
<i>1</i>	<i>Refroktometrning ishslash prinsipi qanday?</i>			
<i>2</i>	<i>To'la ichki qaytish xodisasi nimadan iborat?</i>			
<i>3</i>	<i>Limit burchagi deb nimaga aytildi?</i>			
<i>4</i>	<i>Hisoblash formulani yozing.</i>			
<i>5</i>	<i>Eritmaning konsentratsiyasi deb nimaga aytildi.</i>			
<i>6</i>	<i>Sindirish ko'rsatkich, absolyut va nisbiy xatoligi deb nimaga aytildii?</i>			
<i>7</i>	<i>Lupa nima uchun kerak?</i>			
<i>8</i>	<i>Refroktometrning ishslash prinsipi qanday?</i>			
<i>9</i>	<i>To'la ichki qaytish xodisasi nimadan iborat?</i>			
<i>10</i>	<i>Limit burchagi deb nimaga aytildi?</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
<i>1</i>	<i>Sindirish ko'rsatkichini absolyut va nisbiy xatoligi deb nimaga aytildi?</i>
<i>2</i>	<i>Refraktometrning ishslash prinsipini ayting.</i>
<i>3</i>	<i>To'la ichki qaytish hodisasi nimadan iborat?</i>
<i>4</i>	<i>Limit burchagi deb nimaga aytildi?</i>
<i>5</i>	<i>Eritmaning konsentratsiyasi deb nimaga aytildi?</i>

**19 - LABORATORIYA IShI
BESSEL USULI BILAN QABARIQ VA BOTIQ LINZALARING FOKUS MASOFASINI
ANIQLASH**

Ishning maqsadi: Tajriba yo'li bilan qabariq va botiq linzalarning fokus masofasini Bessel usulida aniqlash.

Kerakli asbob va materiallar: 1. Optik o'rindiq (skamya)2. Botiq va qabariq linzalar.

NAZARIY MUQADDIMA

Sferik sirtlar bilan chegaralangan shaffof muhit (havo, suv, shisha va h.k.) linza deyiladi. Linzalar, optik asboblar deb ataluvchi, binokl, teleskop, mikroskop fotoapparatlarda va h.k. larda qo'llaniladi. Linzalar ikki xil bo'ladi:


1. Qabariq linza, yorug'lik nurlarini yig'ib beradi.
2. Botiq linza, yorug'lik nurlarini tarqatib beradi.

Linzalarni bir-necha kesik prizmalardan tashkil topgan deb qarash mumkin. Linzani hosil qiladigan sirtlarning egrilik markazlari orqali o'tgan to'g'ri chiziq linzaning bosh optiq o'qi deyiladi.

1-rasmida (OO') - bosh optik o'q, (S_1S_2) - linzani hosil qilgan sirtlarning egrilik markazi.

Bosh optik o'qqa parallel bo'lgan yorug'lik nurlari linzadan sinib o'tib, uning fokusida kesishadilar.


Umuman o'zaro parallel nurlar linzaning fokusidan o'tgan fokal tekislikda uchrashadilar.



1-rasm. Linzaning bosh optik o'qi.

2. Botiq linzada bosh optiq o'qqa parallel nurlar linzadan sinib o'tganda, u tarqalib ketadi va tarqalgan nurlarning mavhum davomi optik o'qining bir nuqtasida kesishadi.

Bu nuqta linzaning mavhum fokusi deyiladi.



2-rasm. Qabariq, botiq linzalar va ularda nurlarning yo'li.

Linzaning fokus masofasiga teskari bo'lgan kattalik, linzaning optik kuchi (D) deyiladi.

$$D = \frac{1}{F} \quad (1)$$

Bu yerda: D - linzaning optik kuchi

F - linzaning fokus masofasi

Linzaning optik kuchi dioptriyalarda o'lchanadi. 1 dioptriya deb $F=1\text{m}$ bo'lgandagi kattalikka aytildi.

$$D = 1 \text{ m}^{-1} = 1 \text{ dptr}$$

Linzaning fokus masofasini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\frac{1}{a} + \frac{1}{b} = \frac{1}{f} \quad (2)$$

yoki

$$f = \frac{ab}{(a+b)} \quad (2')$$

Bu tenglamaga qabariq linza formulasi deyiladi.

Bu yerda: a - buyumdan linzagacha bo'lgan masofa;

b - tasvirdan linzagacha bo'lgan masofa;

f - qabariq linzaning fokus masofasi.

Tarqatuvchi linza (botiq linza) bosh fokusi mavhum bo'lganidan, uning optik kuchi ham botiq bo'ladi. U holda botiq linza formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$-\frac{1}{f} = \frac{1}{a} - \frac{1}{b} \quad (3)$$


yoki

$$f = \frac{ab}{(a-b)} \quad (3')$$

LINZADA BUYUM TASVIRINI YASASH

Buyumning tasvirini yasashda bu buyumning bir necha nuqtalarining tasvirlarini topish va so'ngra ulardan buyumning tasvirini hosil qilish kerak. Nuqtaning tasvirini yasashda uchta nurdan foydalanish qulay:

- optik o'qqa parallel nur, linzada sinib uning fokusini kesib o'tadi.
- linzaning optik markazidan o'tuvchi nur sinmasdan o'tadi.




3-rasm. Linzada tasvir yasash.

Nuqtaning tasvirini yasashda nurlarning ikkitasidan foydalanilsa kifoya. Buyumning linzaga nisbatan joylashish masofasiga bog'liq ravishda tasvir kattalashgan yoki kichiklashgan, haqiqiy yoki mavhum, tug'ri yoki teskari bo'lishi mumkin.


Qabariq linzada tasvir yasaylik.

- AV buyumning linzadan uzoqligi (a) fokus masofasining ikkilanganidan ko'ra katta masofada turibdi, ya'ni hosil bo'lgan tasvir haqiqiy kichiklashgan va teskari bo'ladi. $a > 2f$



4-rasm. Qabariq linzada tasvir yasash.


- Buyum linzaning fokusi bilan ikkilangan fokus orasida joylashgan bo'lsin (5-rasm) $F < a < 2F$. $A'B'/AB = H/h = b/a = \Gamma$ (4)



5-rasm.

Hosil bo'lgan tasviriy haqiqiy kattalashgan va teskari bo'ladi. Tasvir, kattaligining buyum kattaligiga nisbatli linza kattalashtirishi (Γ) deyiladi va (4) tenglama yordamida aniqlanadi.


- Buyum fokus va linza orasida turibdi, ya'ni $a < f$ (6-rasm).



6 - rasm.

Hosil bo'lgan tasvir mavhum kattalashgan va to'g'ridir.


3. Tarqatuvchi linzaga nisbatan buyumning har qanday joylashganda ham hamma vaqt mavhum kichiklashgan va to'g'ri tasviri hosil bo'ladi (7-rasm).



7 - rasm. Sochuvchi linzada tasvir yasash.

QURILMANING TUZILISHI

Ekran (1), linza (2) va maxsus qutiga joylashtirilgan elektr lampochkasi (3-rasm) gorizontal qo'yilgan optik taglik (4) ustiga o'rnatiladi. Ularni taglik bo'ylab siljitim mumkin. Lampochka o'rnatilgan qutining old tomoniga qog'oz yopishitirilib, uning ustiga strelka chizib qo'yilgan. Bu strelka buyum rolini o'ynaydi (8-rasm).



8 - rasm. Qurilmaning tuzilishi.

Qurilmadagi asboblarni (ekran, linza, quti) ularning markazlari bir xil balandlikda turadigan qilib o’rnatiladi. Qurilmadagi asboblar orasidagi masofa taglikdagi santimetrlarga bo’lingan shkaladan o’lchanadi. Bu tajribada botiq va qabariq linzalarning fokus masofasini aniqlash uchun Bessel usulidan foydalamiladi.

BESSEL USULI

Linzaning o'rindiqda siljish kattaligiga qarab fokus masofasini aniqlash metodiga Bessel usuli deyiladi. Bu usulda ekran bilan buyum orasidagi masofa linza fokus masofasidan kamida (4) marta katta bo'lishi kerak.


$$L \approx 4f \quad (4')$$

Optik taglikka ekran, buyum (yoritgich bilan yoritilgan qutilarchadagi strelka) va linza o'rnatilgan (suriluvchi ramka linzasi bilan birgalikda). Ekran va buyum (strelka) orasidagi masofa o'qituvchi tomonidan belgilanib tajriba davomida o'zgarmas qoladi.

Birnchi tajriba qabariq linza bilan bajariladi. Linzani ekrandan buyum tomon surib borilsa, ekranda buyumni aniq kattalashgan teskari tasviri hosil bo'ladi.

Linzaning vaziyati shkala yordamida belgilanadi.

Linzani ekran tomon surib borilsa, ekranda buyumning aniq ki-chiklashgan teskari tasviri hosil bo'ladi. Shu tasvir hosil bo'lishi uchun linzani birinchi holatdan ikinchi holatga keltirishda (r) masofadagi siljishi shkaladan aniqlanadi (9-rasm).



9-rasm. Qabariq linzaning ekran va buyum oralig'idagi ikki xil joylashgan vaziyati.

1- holda NN' - qabariq linza;

AB - buyum;

A'B' - buyumni kattalashgan tasviri;

EE - ekran;

C - linzaning optik markazi;

F - fokusi;

BC = a - buyumdan linzagacha bo'lган masofa;

CB' = b - linzadan tasvirgacha bo'lган masofa;

CF = f - linzani fokus masofasi;

BB' = L - buyum bilan ekran orasidagi masofa;

NN' = r - linzaning siljish masofasi.

Linzaning bu ikki holati (vaziyati) ham buyum bilan tasvir orasidagi masofaning o'rtasiga nisbatan simmetrik ekanligi ravshan. (2') formulaga asosan

$$f = \frac{(L-r-x)(x+r)}{L} \quad (5)$$

Ikkinchchi, vaziyat uchun

$$f = \frac{(L-x)r}{L} \quad (6)$$

Bu tenglamalarni o'ng tomonlari tengligidan (x) ni topamiz.

$$x = (L-r)/2 \quad (7)$$

(7) ni $(L - r - x)$ ga qo'yilsa,

$$L - r - x = (L - r)/2$$

bo'ladi.

Demak,

$$a = (L - r)/2$$

$$vab = (L + r)/2$$

ga ega bo'lamiz.

Bu qiymatlarni (2') formulaga qo'yib, qabariq linzaning fokus masofasi topiladi:

$$f_1 = (L^2 - r^2)/4R \quad (8)$$

Xuddi shu tariqada qabariq va botiq linzalar sistemasining $(f_{1,2})$ - fokus masofasi aniqlanadi. Demak, $(f_{1,2})$ qabariq va botiq linzalar tegishib turgandagi sistemani fokus masofasi bo'ladi.

Bu sistemaning optik kuchi

$$D_{1,2} = D_1 + D_2 \quad (9)$$

Bu yerda: D_1 - qabariq linzaning optik kuchi;

D_2 - botiq linzaning optik kuchi

Shularga asosan

$$\frac{1}{f_{1,2}} = \frac{1}{f_1} + \frac{1}{f_2} \quad (10)$$

Bu yerdan botiq linzani fokus masofasi uchun quyidagi formulaga ega bo'lamiz.

$$f_2 = \frac{f_1 \cdot f_{1,2}}{f_1 + f_{1,2}} \quad (11)$$

Bu yerda: f_1 - qabariq linzaning fokus masofasi;

f_2 - botiq linzaning fokus masofasi;

$f_{1,2}$ - sistemani fokus masofasi

IShNI BAJARISH TARTIBI

- Surilgichni ramkaga qabariq linzani qo'yib, strelka lampochka bilan yoritiladi.
- Surilgichni strelka (buyum) tomon surib, ekranga strelkani (buyumni) kattalashgan teskari va aniq tasviri hosil bo'lishiga erishiladi.
- Skameykadagi shkaladan linzadan strelka (buyumgacha) bo'lган masofa $n_1 = x = a$ shuningdek, ekrandan strelka (buyum) gacha bo'lган (L) masofalar o'lchanadi. O'lhash natijalari jadvalga kiritiladi.
- Linzani ekran tomon surib strelkani kichik, aniq teskari tasviri hosil bo'lishiga erishiladi va shkaladan linzalar uchun $n_2 = a_1$ hisob olinadi.
- Har ikkala olingan hisoblar ayirmasi, ya'ni $n_2 - n_1 = r$ hisoblanadi.
- Olingan natijalardan foydalanib (8) formulaga asosan qabariq linzani fokus masofasi aniqlanadi va jadvalga yoziladi.
- Xuddi shu tariqa qabariq linzaning strelka (buyum) tomoniga botiq linzani qo'yib, har ikkala sistema uchun fokus masofa aniqlanadi.

$$f_{1,2} = \frac{L^2 - r^2}{4R} \quad (8')$$

- Qabariq va sistemali fokus masofalari aniq bo'lгandan so'ng formula (11) yordamida botiq linzani fokus masofasi (f_2) aniqlanadi.

1-qabariq linza uchun jadval

Tajriba tartibi №	n_1	n_2	r	L	f_1	$f_{1o'rt}$
1.						
2.						
3.						

2 - ikki linza sistemasi uchun

Tajriba tartibi №	n_1	n_2	r	L	$f_{1,2}$	$f_{1,2o'rt}$

1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

TEKShIRISH UChUN SAVOLLAR

1. Linza deb nimaga aytildi?
2. Linzalarning optik markazi, bosh optik uki va bosh fokusi deb nimaga aytildi?
3. Linzani optik kuchi nima?
4. Yig'uvchi linza deb qanday linzaga aytildi?
5. Sochuvchi linza deb qanday linzaga aytildi?
6. Linzada qay vaqtda nuqta yoki buyum tasviri hosil bo'ladi?
7. Linzada buyum tasvirini olinishini chizib ko'rsating.

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
1	<i>Linza deb nimaga aytildi?</i>			
2	<i>Linzalarning optik markazi, bosh optik uki va bosh fokusi deb nimaga aytildi?</i>			
3	<i>Linzani optik kuchi nima?</i>			
4	<i>Yig'uvchi linza deb kanday linzaga aytildi?</i>			
5	<i>Sochuvchi linza deb kanday linzaga aytildi?</i>			
6	<i>Linzada kay vakda nukta yoki buyum tasviri xosil buladi?</i>			
7	<i>Linzada buyum tasvirini olishni chizib bering?</i>			
8	<i>Linza deb nimaga aytildi?</i>			
9	<i>Linzalarning optik markazi, bosh optik uki va bosh fokusi deb nimaga aytildi?</i>			
10	<i>Linzani optik kuchi nima?</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Linzaga ta'rif bering?</i>
2	<i>Linzalarni ishlatalishini yozib bering?</i>
3	<i>Qovariq linza deb kanday linzaga aytildi?</i>
4	<i>Botiq linza deb kanday linzaga aytildi?</i>
5	<i>Linzani optik kuchi deb nimaga aytildi.</i>

**20-LABORATORIYA IShI
YORUG'LIK NURINING TO'LQIN UZUNLGINI DIFRAKSION
PANJARA YORDAMIDA O'LChASH**

Ishning maqsadi: Difraksiyon panjara hosil qilgan spektr yordamida yorug'lik nurining to'lqin uzunligini aniqlashdan iboratdir.

asboblar: 1. Difraksiyon panjara yordamida spektrni kuzatishga imkoniyat yaratuvchi qurilma;
2. Yorug'lik manbai.

NAZARIY MUQADDIMA


Yorug'lik difraksiyasi deb ataladigan hodisada yorug'lik nurlari shaffofmas to'siqlardan egilib o'tib geometrik soya sohasiga kirib boradi. Difraksiya so'zi lotincha bo'lib "egilib o'tish" degan ma'noni bildiradi.

Masalan, nuqtaviy monoxromatik yorug'lik manbaidan tarqalayotgan yorug'lik nurlarining yo'liga shaffofmas jismdan yasalgan disk shaklidagi to'siq joylashtirilgan bo'lsin. Geometrik optika qonunlariga asosan, ekranda to'siqning soyasi-doira shaklidagi qorong'i soha kuzatilishi lozim. Tajribada, haqiqatan, shunday manzara kuzatiladi. Lekin to'siqdan ekrangacha bo'lgan masofa to'siq o'lchamlaridan bir necha ming marta katta bo'lgan holda ekranning to'siq qarshisidagi sohasidagi qorong'ilik emas, balki ketma-ket joylashgan yorug' va qorong'i konsentrik halqachalar kuzatiladi. Xuddi shunday manzara yorug'lik juda kichik tirkishdan o'tganda ham kuzatiladi.

Geometrik optika qonunlariga zid bo'lgan yorug'lik difraksiyasining mohiyatini quyidagi tarzda tushuntiriladi. Gyugens prinsipiaga asosan, to'lqin frontining har bir nuqtasini ikkilamchi to'lqinlarning manbalarini deb hisoblash mumkin. Frenel esa Gyugens prinsipini takomillashtirib, bu ikkilamchi to'lqinlarning manbalarini kogerent manbalar deb va fazoning ixtiyoriy nuqtasidagi tebranishi bu nuqtaga yetib kelgan ikkilamchi kogerent to'lqinlar interferensiyalanishining manzarasi deb qarash lozim, degan fikrni ilgari surdi. Bu takomillashgan prinsip Gyugens-Frenel prinsipi deb yuritiladi. Bu prinsip yorug'lik difraksiyasiga oid bir qator hodisalarini tushuntirib bera olgan.

Difraksiyon panjara deganda bir-biridan b uzoqlikda joylashgan bir xil a kenglikdagi tirkishlar to'plamidan iborat optik asbob tushuniladi.

Odatda difraktion panjarni quyidagi usulda yasaladi. Shaffof shisha plastinkani maxsus mashina yordamida tirnab bir-biriga parallel bo'lgan ensiz ariqchalar hosil qilinadi (1-rasm).




1-rasm. Difraksiyon panjara.

Shisha plastinkaning tirnalgan qismlari (eni b bo'lgan ariqchalar) yorug'lik nurlari uchun shaffoamas bo'ladi. Ariqchalar oralig'idagi qismlar (kengligi a ga teng bo'lgan shaffof tasmachalar) yorug'lik nurlari uchun tirkishlar vazifasini bajaradi. Qo'shni tirkishlarning mos nuqtalari orasidagi masofa difraksiyon

$$l = a + b \quad (1)$$

panjaraning doimiysi yoki davri deb ataladi.

Difraksiyoning panjaraga (DP) yassi monoxromatik to'lqin normal tushayotgan bo'lsin (2-rasm). Panjara tarkibidagi ikki yoki undan ortiq tirkishlar tufayli vujudga keladigan difraksiyoning manzarani topish uchun faqat alohida tirkishdan chiqayotgan nurlarning ekranning muayyan nuqtasida o'zaro interferensiyanigina emas, balki ayni nuqtaga turli tirkishlardan kelayotgan nurlarning interferensiyasini ham hisobga olish kerak.



1. Kuzatish burchaginining qiymati quyidagi shartni, ya'ni
 $a \cdot \sin \gamma = 2k \lambda$, $k=1,2,3,\dots$

qanoatlantirsin. Bu holda har bir alohida tirkishdan γ burchak ostida chiqayotgan nurlar ekranning A_1 nuqtasida interferensiyanishi natijasida qorong'ilik (yorug'lik intensivligining minimumi) kuzatiladi (3-a rasmga q.). tirkishlar soni ikki yoki undan ortiq bo'lganda ham ekranning A_1 nuqtasida yorug'lik kuzatilmaydi, ya'ni yorug'lik intensivligining minimumi qayd qilinadi. Shuning uchun panjara tufayli vujudga keladigan difraksiyoning manzaradagi bu minimumlar deb ataladi.

2. Kuzatish burchaginining shunday qiymatlarini tanlab olaylikki, bu burchaklar ostida alohida tirkishdan chiqayotgan nurlar yig'uvchi linzadan o'tgach, ekranning A_2 , A_3 , yoki A_4 nuqtalarida interferensiyalashadi. Natijada bu nuqtalarda yorug'lik kuzatiladi (3- a rasmga q.). Agar tirkish bir emas, balki ikkita bo'lsachi? Bu holda quyidagi imkoniyatlar amalga oshiii mumkin (3-b rasm);

a) γ burchakning shunday qiymatlari mavjudki, natijada ikkala tirkishning mos nuqtalaridan kelayotgan nurlar (2-rasm 1 va 2 tirkishning chap chetidan kelayotgan nurlarlarga qarang) bir xil fazada, ya'ni bu nurlarning yo'llar farqi yarim to'lqin uzunlikka juft karrali –

$$l \sin \gamma = 2k \frac{\lambda}{2}, \quad k=0, 1, 2, \dots \quad (2)$$

bo'ladi. Bu holda ikkala tirkishning mos nuqtalaridan kelayotgan nurlar A_2 interferensiyalashishi natijasida yorug'lik intensivligining maksimumi kuzatiladi. Bu maksimumlar tartibini ifodalaydi.


b) Kuzatish burchagi γ ning ba'zi qiymatlarida ikkala tirkishning mos nuqtalaridan kelayotgan nurlar qarama-qarshi fazada, ya'ni bu nurlarning yo'llar farqi yarim to'lqin uzoqlikka tok karralli –

$$l \sin \gamma = (2k+1) \frac{\lambda}{2}, \quad k=0, 1, 2, \dots \quad (3)$$

bo'ladi. Natijada ikkala tirkishning mos nuqtalaridan chiqayotgan nurlar ekranning biror A_4 nuqtasida interferensiyalashib bir-birini so'ndiradi, ya'ni yorug'lik intensivligining minimumi kuzatiladi. Bu minimumlar qo'shimcha minimumlar deyiladi;

v) kuzatish burchagi γ ning shunday qiymatlari ham mayjudki bunda ikkala tirkishning mos qiymatlaridan chiqib ekranning biror nuqtasiga (masalan, A_3 nuqtaga) yetib kelgan nurlar bir xil fazada

ham, qarama-qarshi fazada ham bo'lmaydi. Shuninig uchun ular iinterferensiyalashib, yorug'likning maksimumini ham, minimumini ham bermaydi. Balki bu nuqtadagi yorug'lik biror oraliq intensivlikka ega bo'ladi.



3-rasm. Tirqishlar soniga qarab, difraksiya tufayli hosil bo'ladigan interferensiya manzarasi.

Endi tirqishlar soni ikki emas, balki ko'proq, masalan, to'rtta yoki sakkizda bo'lgan hollarni kuraylik. Bu hollarga mos bo'lgan yorug'lik intensivligining taqsimotlari 3-v, g rasmlarda tasvirlangan. Asosiy minimumlar va asosiy maksimumlar ekrandagi o'z o'rinalarini o'zgartirmaydi. Maksimumlar ensizroq va yorug'roq, maksimumlar oralig'i esa qorong'irok bo'ladi. Agar tirqishlar soni N ga teng bo'lsa, difraksiyon manzaradagi ikki qo'shni asosiy minimum oralig'ida N-1 qo'shimcha minimum vujudga keladi. Qo'shimcha minimumlar oralig'ida esa qo'shimcha maksimumlar mavjud bo'lib, ular ekranda fon deb ataladagina kuchsizgina yorug'likni vujudga keltiradi.

Difraksiyon panjaradagi alohida i-tirqish asosiy maksimum yo'nalishida jo'natayotgan yorug'lik to'lqinining amplitudasi E_{im} bo'lsin. Ekranning asosiy maksimum vujudga keladigan nuqtasiga barcha tirqishlardan tebranishlar bir xil fazada yetib keladi. Shuning uchun natijaviy tebranish amplitudasi

$$E_m = \sum_{i=1}^N E_{im} = NE_{im}$$


bo'ladi, chunki alohida tirqishlardan kelayotgan tebranishlar amplitudalari o'zaro teng. Bundan aossiy maksimumning intensivligi

$$J = E_m^2 = N^2 E_{im}^2 \quad (4)$$

ga teng bo'ladi. Demak, difraksiyon panjara tufayli vujudga keladigan manzaradagi asosiy maksimumlarning intensivliklari panjaradagi tiriqishlar soni N ning kvadratiga proporsional bo'ladi. Agar difraksiyon panjara oq yorug'lik bilan yoritilsachi? Oq yorug'likni turli to'lqin uzunlikli bir qator monoxromatik yorug'lik to'lqinlarining superpozitsiyasi deb qkarash mumkin. Bu monoxromatik to'lqinlar difraksiyon panjaradan o'tayotganda o'zlarining mustaqilliklarini saqlaydilar. (2) shartga asosan asosiy maksimumlar yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liq. Bundan faqat nolinchi tartibili ($k=0$) asosiy maksimumlar istisnodir. Haqiqatan $k=0$ bo'lganda λ ning har qanday qiymatlari uchun asosiy maksimum $\varphi=0$ burchak ostida kuzatiladi, ya'ni oq yorug'lik tarkibidagi barcha monoxromatik to'lqinlarining nolinchi aossiy maksimumlari ustma-ust tushadi. Shuning uchun difraksiyon manzaraning markazidagi ($\varphi=0$) asosiy maksimum oq bo'ladi. Lekin birinchi, ikkinchi va hokazo tartibili ($k=1,2,3,\dots$) asosiy maksimumlar turli to'lqin uzunlikli monoxromatik yorug'liklar uchun turli burchaklar ostida kuzatiladi. Masalan, to'lqin uzunligi kattaroq bo'lgan qizil yorug'likning (qizil = 0,76 mkm) asosiy maksimumi binafsha yorug'liknikiga (bi-nafsha = 0,40 mkm) qaraganda kattaroq burchak ostida kuzatiladi. Panjaradan oq yorug'lik o'tayotgan bo'lsa, ekranda spektr deb ataladigan rangli o'zaro parallel ensiz chiziqlar kuzatiladi. Bu chiziqlarning har biri ayrim yorug'likka tegishli bo'lib, bu chiziqlar, odadta, spektral chiziqlar deb ataladi. Spektrning tartibi (ya'ni k ning qiymati) yuqorilashgan sari spektr tarkibidagi bir-biridan yaxshiroq ajralgan bo'ladi.

ASBOBNING TUZILISHI

Spektrik kuzatishga imkoniyat yaratuvchi asbob 4-rasmda berilgan. U o'rtasida tirkishi 3 bor, shkala 2 ustida harakatlana oladigan va bo'laklarga bo'lingan gorizontal joylashgan taxtacha I dan iborat.




4-rasm. Spektrlarni kuzatish qurilmasi.

Taxtachaning ikkinchi uchida difraksiyon panjara 4 joylashgan. Shakldagi tirkish maxsus yoritgich 5 yordamida yoritiladi. Difraksiyon panjara beradigan spektrlar tirkishga simmetrik ravishda joylashgan shkala ustida ko'rindi. Shu panjara yordamida I- va P- tartibli spektrlarni kuzatish mumkin. Shkala 2 yordamida mazkur to'lqin uzunligi to'g'ri keladigan maksimumning koordinatlarini birinchi va ikkinchi tartibli spektrlarda o'lchash mumkin. So'ngra koordinatlarni bilgan holda, mazkur maksimumga to'g'ri keluvchi difraksiya burchagi ϕ ni aniqlaymiz va quyidagi tenglama yordamida λ ni aniqlaymiz:

$$l \sin \phi = k \lambda \quad (5)$$

Bu yerda: l – panjara doimiysi,
 ϕ - difraksiya burchagi,
 K – spektr tartibi,
 λ - yorug'lik nurining to'lqin uzunligi.

5-rasmda asbob sxemasi keltirilgan. VS - shkala, A nuqtada difraksiyon panjara, O nuqtada tirkish joylashgan va -birinchi tartibli spektrda joylashgan, X_1 va X_1^1 berilgan rang chuchn kuzatuvchi maksimum koordinatalari; X_2 va X_2^1 - ikkinchi tartibli spektrda ko'ri-nuvchi xuddi shu rang maksimumning koordinatalari. OA-shkaladan panjaragacha bo'lgan masofa.



5-rasmda. Spektrlarning koordinatalarini aniqlash.

IShNI BAJARISH TARTIBI

1. Yoritgich yoqiladi.
2. O'qituvchi tomondan panjaradan shkalagacha bo'lgan masofa OA beriladi.
3. Panjara orqali shkalaga qarab difraksiya spektrlari kuzatiladi. Panjarani o'ngga va chapga burish orqali spektrlar shkala chegarasida joylashtiriladi.
4. Birinchi tartibli spektrdagи qizil rang, maksimum uchun shkala bo'yicha X_1 va X_1^1 koordinatalari yozib olinadi. Bu yerda X_1 tirkishning o'ng tomonidan, X_1^1 esa tirkishning chap tomonidan olinadi. Xuddi shu usulda ikkinchi tartibli spektrda X_2 va X_2^1 lar topiladi. Olingan qiymatlar jadvalga yoziladi.
5. 4-punktdagi hisoblashlarni ko'k rang uchun ham bajariladi.
6. 4-5 punktlarni OA ning uchta qiymati uchun bajariladi.
7. X koordinatani va OA masofani bilgan holda φ burchakni quyidagi tenglama yordamida topish mumkin:

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{X}{OA}; \quad \varphi = \operatorname{arctg} \frac{X}{OA};$$

X va OA ning har xil qiymatlari uchun (5)-tenglama yordamida λ ni topiladi.

Jadval

n/n	Rang	k spektr tartibi	X	X^1	$X_{o'rt}^{rt}$ $x+x^1_2$	$\operatorname{tg}\varphi_{o'rt}$	φ	$\sin\varphi$	λ	$\Delta\lambda$
			m				grad		m	M

TEKShIRISH UChUN SAVOLLAR

1. Nima uchun difraksion panjara bitta tirkishga nisbatan ravshan va ingichka maksimumlarni beradi?
2. Nima uchun difraksion panjara oq rangli yorug'likni spektrga ajratadi?
3. Qanday joylarda birinchi va ikkinchi tartibli spektrlar hosil bo'ladi?
4. Ekran yoritilganligining maksimum shartini yozing.
5. Panjara doimiysi nima?
6. Difraksiya burchagi nima?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

	<i>Tushuncha</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bildim</i>	<i>Bilmayman</i>
1	<i>Yorug'lik difraksiya xodisasi nima</i>			
2	<i>Nima uchun difraksion panjara oq rangli yorug'likni spektrga ajratadi?</i>			
3	<i>Qanday joylarda birinchi va ikkinchi tartibli spektrlar hosil bo'ladi?</i>			
4	<i>Panjara doimiysi nima</i>			
5	<i>Difraksion panjara yordamida olingan spektr bitta tirkishda hosil qilingan spektrdan nima bilan farg qiladi</i>			
6	<i>Nima uchun difraksion panjara oq yorug'likni spektrga ajratadi</i>			
7	<i>Spektrning nolinchi tartibida nima uchun yorug'lik nurining ajralishi sodir bo'lmaydi.</i>			
8	<i>Qanday shart bajarilganda gramplastinkani difraksion panjara o'rnidida ishlatish mumkin?</i>			

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
-----------	-------------------------

1	<i>Nima uchun difraksion panjara bitta tirkishga nisbatan ravshan va ingichka maksimumlarni beradi?</i>
2	<i>Nima uchun difraksion panjara oq rangli yorug'likni spektrga ajratadi?</i>
3	<i>Qanday joylarda birinchi va ikkinchi tartibli spektrlar hosil bo'ladi?</i>
4	<i>Ekran yoritilganligining maksimum shartini yozing.</i>
5	<i>Panjara doimiysi nima?</i>
6	<i>Difraksiya burchagi nima?</i>

21-LABORATORIYA ISHI QUYOSH ELEMENTINING VOLT-AMPER VA VOLT-VATT XARAKTERISTIKASINI O'RGANISH

Ishdan maqsad

1. Tajribada quyosh elementining elektrofizik xususiyatlarini o'rghanish uchun uning asosiy xarakteristikasi bo'lgan VAX, VVX o'rghanish va grafigini yasash.
2. Tajribada stendida joylashgan quyosh elementining elektrofizik xususiyatlarini o'rghanish uchun uning asosiy xarakteristikasi bo'lgan VVX o'rghanish va grafigini yasash.

Qisqacha nazariy ma'lumot

Ushbu laboratoriya stendi oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus kasb hunar kollejlari, akademik litseylarda tahsil olayotgan talabalar uchun fizika fanidan quyosh elementlarining (fotoelement) elektrofizik xususiyatlarini o'rghanishga imkon beruvchi vosita hisoblanadi.

Eksperimental qurilma laboratoriya stolida joylashgan bo'lib quyidagi qismlardan tashkil topgan: quyosh spektrlarini qisman tavsiflovchi 150 μ V quvvatdagi o'zgaruvchan tok 220 V, 50 Gs chastotaga mo'ljallangan galogen lampa (yorug'lik manbai), lampani ma'lum balandlikda tutib turuvchi shtativ, quyosh fotoelektrik batareyasi (QFB), ampermetr, voltmetr va o'zgaruvchan yuklanish qarshiliklaridan R_n tashkil topgan (1-rasm).

Tajriba ishida 2 ta har xil quvvatdagi QFB dan foydalaniadi. QFB ning fototok chiqish yunalishida klemma mayjud bo'lib qarama-qarshi qutblari belgilab quyilgan.

Lampadan tarqalayotgan yorug'lik nurlari bevosita quyosh fotoelektrik moduliga perpendikulyar burchak ostida tushadi. SHtativda galogen lampani uch xil holatda modulga yunaltirish mumkin. Bu QFM dan 15 sm, 25 sm, 35 sm balandlikda amalga oshiriladi. O'zgaruvchan yuklanishlar qarshiligi 1÷180 Om intervalda ishlaydi.

Quyosh elementlarining asosiy xarakteristikasi hisoblangan volt-amper xarakteristika (VAX), volt-vatt xarakteristika (VVX) va spektral sezgirlik yarimo'tkazgich materiallarning optik va elektrofizik xususiyatlariga bog'liqidir. Quyosh elementlarining VAX, VVX xarakteristikasini o'lchash uchun quyidagi sxemalardan foydalanildi (2. Rasm).

Quyosh elementlarining VAX r-n o'tishli yarimo'tkazgichli diodning VAX dan yangi I_f hadning paydo bo'lishi bilan farq qiladi. I_f – optik nurlanish ta'sirida quyosh elementida generatsiya bo'lgan tokdir. Agar I_d – diod orqali oqayotgan tok va I – tashqi yuklanma orqali oqayotgan tok bo'lsa, u holda,

$$I_f = I_a + I \quad (1)$$


$$I_a = I_0 + \left(\exp\left(\frac{qU}{kT}\right) - 1 \right) \quad (2)$$

diodning qorong'ilikdagi xarakteristikasi, I_0 – r-n o'tishning teskari yo'nalishdagi to'yinish toki, q – elektron zaryadi, T – absolyut harorat, k – Boltzman doimiyligi, U – kuchlanish.

QE ning asosiy xarakteristikalarini o'lchashning tartibi quyidagicha amalga oshirildi. Dastlab QE ning parametrlari laboratoriya sharoitida galogen lampa yordamida, so'ngra tabiiy sharoitda quyosh nurlariga perpendikulyar holatda joylashtirish orqali amalga oshirildi.



1-Rasm. QE ning voltamper xarakteristikasini o'rganish uchun eksperimental qurilma



2- Rasm. Quyosh elementlarining ekvivalent (a) va o'lhash (b) sxemalari
Tajribani o'tkazish tartibi.

Laboratoriya sharoitida o'lhash.

1.Galogen lampa shtativda laboratoriya stolidan maksimal balandlikka 35 sm o'matiladi, lyuksmetr yordamida lampaning yoritilganligi QE sathi paralleligida o'lchab olinadi.

2.O'zgaruvchan yuklanish qarshiligini o'zgartirish orqali birinchi QE tok va kuchlanish qiymatlari 1 jadvalga yozib olinadi. Laboratoriya sharoitida QE ning lampaning 35 sm balandlikda holatida eksperiment natijasida olingan VAX, VVX grafiklari quriladi.

1-Jadval

Nº	Lampa-ning yoritilganligi (lyuks)	Lampadan QE bo'lgan masofa (sm)	QE toki (A)	QE kuchlanishi (V)	QE ning nomin al quvvati	QE ning salt yurish kuchlanishi (V)	QE ning qisqa tutashuv toki (A)	QE ning FIK (%)
1	35							
2	35							
3	35							
4	35							
5	35							
6	35							
7	35							
8	35							
9	35							

3.Galogen lampa shtativda laboratoriya stolidan maksimal balandlikka 25 sm o'rnataladi, lyuksmetr yordamida lampaning yoritilganligi QE sathi paralleligida o'lchab olinadi.

4.O'zgaruvchan yuklanish qarshiligidini o'zgartirish orqali birinchi QE tok va kuchlanish qiymatlari 1 jadvalga yozib olinadi. Laboratoriya sharoitida QE ning lampaning 25 sm balandlikda holatida eksperiment natijasida olingan VAX, VVX grafiklari quriladi.

2-Jadval

Nº	Lampa -ning yoritil ganligi (lyuks)	Lampadan QE bo'lgan masofa (sm)	QE toki (A)	QE kuchlanis hi (V)	QE ning nomin al quvvati	QE ning salt yurish kuchlanis hi (V)	QE ning qisqa tutashuv toki (A)	QE ning FIK (%)
1		25						
2		25						
3		25						
4		25						
5		25						
6		25						
7		25						
8		25						
9		25						

5.Galogen lampa shtativda laboratoriya stolidan maksimal balandlikka 15 sm o'rnataladi, lyuksmetr yordamida lampaning yoritilganligi QE sathi paralleligida o'lchab olinadi.

6.O'zgaruvchan yuklanish qarshiligidini o'zgartirish orqali birinchi QE tok va kuchlanish qiymatlari 1 jadvalga yozib olinadi. Laboratoriya sharoitida QE ning lampaning 15 sm balandlikda holatida eksperiment natijasida olingan VAX, VVX grafiklari quriladi.

Nº	Lampa -ning yoritil ganligi (lyuks)	Lampadan QE bo'lgan masofa (sm)	QE toki (A)	QE kuchlanis hi (V)	QE ning nomin al quvvati	QE ning salt yurish kuchlanis hi U_{xx} (V)	QE ning qisqa tutashuv toki $I_{k.z.}$ (A)	QEning FIK (%)
1								
2								
3								
4								
5								
6								
7								
8								
9								

Tajriba natijalarini hisoblash.

- QE ning nominal quvvati R_n quyidagicha hisoblanadi.

$$P_n = U_{x.x} \times I_{k.z} \times \xi$$

bu erda ξ – volt-amper xarakteristikasini to'ldirish koefitsienti. Kremniy asosidagi zamonaviy quyosh elementlari uchun ξ -0,7-0,8 ni tashkil etadi.

$$\xi = \frac{R_n}{R_p}$$


$R_p = U_{x,x} \times I_{k,z} \times \xi$ - QE ning pik (ideal) quvvati

- QE ning foydali ish koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi.

$$\eta = \frac{U_{x,x} \times I_{k,z} \times \xi}{E_0 \times S_{pv}} \times 100\%$$

bu erda E_0 - Lampaning yoritilganligi (lk) $\frac{Vt}{m^2}$ ga almashtiriladi. S_{pv} - QE ning umumiy yuzasi (m^2).

- QE ning volt-amper va volt-vatt xarakteristikalari qo'yidagi rasmida ko'rsatilganidek quriladi.



3- Rasm. Quyosh elementining yoki FEBning volt-amper va volt-vatt xarakteristikalarini

Nazorat savollari

- Quyosh elementi haqida nimalarni bilasiz?
- Quyosh elementlarining ekvivalent va o'lchash sxemalarini bilasizmi?
- Quyosh elementining konstruktiv tuzilishini aytib bering?
- Quyosh elementining asosiy parametrlari va xarakteristikalarini ayting?
- Quyosh elementining yoki FEBning volt-amper va volt-vatt xarakteristikalarini qanday olish mumkin?

Mashg`ulotda pedagogik texnologiya usullarini qo`llash

1-ilova

B.B. B. metodiga asoslangan tarqatma material

<i>Nº</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilmoqchiman</i>	<i>Bildim</i>
<i>1</i>	<i>Elektromagnit induksiya xodisasi to'g'risida tushuncha</i>		
<i>2</i>	<i>Avtotransformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi</i>		
<i>3</i>	<i>Avtotransformatorning transformatsiyalash koeffitsiyenti .</i>		
<i>4</i>	<i>Transformator va avtotransformatorning bir biridan farqi</i>		

2-ilova

“Aqliy hujum” metodi

--	--

<i>Nº</i>	<i>Nazariy savollar</i>
1	<i>Transformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi?</i>
2	<i>Transformatorning koeffitsienti deb nimaga aytildi?</i>
3	<i>Transformatsiyalash koeffitsientini aniqlashda kompensasiya usulini ma'nosi nima? Trasformatori salt ishlashi deb nimaga aytildi?</i>
4	<i>Trasformatorda qanday energiya yo'qolishlari ro'y beradi?</i>
5	<i>Transformatorning F.I.K. qanday topiladi?</i>

22-LABORATORIYA ISHI FOTOELEKTRIK BATAREYANING VOLT-AMPER VA VOLT-VATT XARAKTERISTIKASINI O'RGANISH

Ishdan maqsad

1. Quyosh fotoelektrik batareyasining volt-amper xarakteristikasini olishni tajribada o'rghanish.
2. Quyosh fotoelektrik batareyasining volt-vatt xarakteristikasini olishni tajribada o'rghanish.

Qisqacha nazariy malumot

Fotoelektrik tizimlarda asosiy element sifatida quyosh elementlari xizmat qiladi.

Quyosh elementlari p-n turli yarimo'tkazgichli materiallardan tashkil topgan. Quyosh nurlanishi yarimo'tkazgichli material strukturasida yutilib elektron-kovaklar juftligini hosil qiladi, so'ngra p-n o'tish orqali ajratilib element old va orqa yuzasidagi metall kontaktlarda yig'iladi. Quyosh elementlaridan fotoelektrik modullar (quyosh panellari), modullardan esa quyosh batareyalari yig'iladi.

Quyosh elementlarini ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun asosiy material sifatida hanuzgacha kristall kremniy hisoblanadi. Hamma quyosh elementlarining 80% dan ortig'i u asosida tayyorlangan tagliklardan iborat bo'ladi. Quyosh nurlanishini yaxshi yutish qobiliyatiga ega bo'lmasada u boshqa yarimo'tkazgich materiallarga qaraganda qator afzalliklarga ega:

- 1). Kremniy Er yuzasida kremniy oksidi shaklida keng tarqalgan.
- 2). Kremniy zararli va faol element bo'lmagani uchun atrof muhitga zarar keltirmaydi.
- 3). Mikroelektronika sanoatida kremniy texnologiyasi yaxshi o'rjanilgan.

Kremniyli quyosh elementlarining amaliyotdagi samaradorligi 10-19% atrofidadir. Uning yupqa plenkalari kaskad quyosh elementlarini tayyorlashda ham ishlatiladi. Bu materialarning kamchiligi vaqt o'tishi, harorat ortishi, yuzasining changlanishi bilan xarakteristikalarining yomonlashishidir, shuningdek yuqori texnologiyalik, ishlab chiqarishdagi chiqimlilik ham hisoblanadi.

Quyosh panellari (fotoelektrik batareya) odatda ketma-ket va parallel ulangan quyosh elementlaridan tashkil topadi.


Quyosh panellari ishonchli elektr energiyasi manbasi bo'lishi uchun u tizimda qo'shimcha elementlar bilan ta'minlanishi zarur: kabellar, tizimning turiga (tarmoq bilan bog'langan FES, avtonom, rezerv) bog'liq ravishda struktura, elektron invertor, akkumulyator batareyalari to'plami va zaryad-razryad kontrolleri. Bunday tizim butunligicha quyosh fotoelektrik sistema yoki quyosh stansiyasi deb nomlanadi.

Fotoelektrik sistemalarning 3 ta asosiy turi mavjuddir:

- Odatiy holda alohida uylarning elektr ta'minoti uchun qo'llaniladigan avtonom FES
- Tarmoq bilan bog'langan FES
- Rezerv FES

Avtonom fotoelektrik tizimlar: Avtonom fotoelektrik tizimlardan markazlashtirilgan elektr ta'minoti mayjud bo'lmagan joylarda foydalilanadi. Sutkaning tungi vaqtlarida energiya ta'minoti va quyosh yaxshi nur sochmagan vaqtlar uchun akkumulyator batareyasi (AB) zarur. Avtonom fotoelektrik tizimlar alohida uylarning elektr ta'minoti uchun tez-tez qo'llaniladi. Kichik tizimlar asosiy yuklamani ta'minlashi mumkin (yoritish manbai, ba'zan televizor yoki radio), o'ta quvvatlari

tizimlar suv nasosi, radiostansiya, muzlatgich, elektrojihozlar va boshqalar. Bunday tizim quyidagilardan tashkil topgan (1-rasm).




1 - rasm. Avtonom fotolektrik tizim

1 – quyosh paneli; 2 – kontroller; 3 – AB; 4 – yuklama

Tarmoq bilan ulangan quyosh fotolektrik tizimlari: Markazlashtirilgan elektr ta'minot manbalari mavjud bo'lsa ham, gohida toza elektr energiya manbaidan foydalanishga hoxish bo'ladi, bunda quyosh panellari tarmoq bilan ulangan bo'ladi. Etarli miqdordagi quyosh panellari bir biri bilan ulanganda yuklamaning bir qismi uyda quyosh elektr energiyasidan ta'minlanishi mumkin. Tarmoq bilan ulangan fotolektrik tizimlar odatda bir yoki bir nechta panellardan va invertor, kabellar, qullab quvvatlovchi tizim va elektrik yuklamadan iborat bo'ladi.(2-rasm).

Invertor quyosh panellarini tarmoq bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. SHuningdek AS-panellar



2- Rasm. Tarmoq bilan bog'langan quyosh fotolektrik tizim

1 – quyosh paneli; 2 – tarmoq invertori; 3 – lokal elektr tarmoq; 4 – yuklama

ham mavjud bo'lib ularning orqa tomoniga invertor o'rnatilgan bo'ladi.

Ortiqcha elektr energiyasi elektr tarmog'iga uzatilishi mumkin. Agar quyosh elektr ta'minoti uchun maxsus kuchaytirilgan tariflar foydalanilsa unda 2 ta elektr hisoblagichi, biri generatsiya uchun, keyingisi iste'mol uchun o'rnatiladi.


Bunda quyosh panellari tomonidan ishlab chiqilgan elektr energiyasi tarmoqqa yuqori tarif bo'yicha sotiladi, uyning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji tarmoqdan odatiy narx bo'yicha olinadi. SHunday qilib nafaqat elektr energiyaga bo'lgan yil davomidagi nul chiqimlarni, balki yil ichida nul iste'molni ham (yozda ortiqcha energiya tarmoqqa jo'natiladi, qish oyida esa kun bulut vaqtlarida uy asosan tarmoq orqali oziqlanadi.)

Rezerv tizimlar: Markazlashtirilgan elektr ta'minot tarmoq bilan bog'langan bo'lsada, lekin ishonchli bo'lmasa bunday holatlarda rezerv tizimlaridan foydalaniladi. Tarmoqda kuchlanish

bo‘limgan vaqtarda ham mavsumiy vaqtarda elektr ta’minot uchun rezerv tizimlar qo’llaniladi. Kichik rezerv quyosh tizimlari aloqa vositalari, kompyuterlar (telefon, radio, faks va hakozo) elektr ta’minoti uchun foydalaniladi. Yirik quyosh rezerv tizimlari tarmoqda uzulishlar bo‘lgan vaqtarda muzlatgichlarni ham energiya bilan ta’minalash mumkin. YUklanmani zaruriy oziqlantirish uchun, ayniqsa tez-tez tarmoqda uzulishlar bo‘lgan vaqtida fotoelektrik tizim katta quvvatga ega bo‘lishi zarur.

Agar tarmoq mavjud bo‘lsa, tizim odatdagidek u bilan bog‘langan holda ishlaydi.

Tizim quyosh paneli, kontroller, akkumulyator batareyasi, kabellar, invertor, yuklama va tayanch strukturadan iborat (3-rasm.).



3-rasm. Rezerv fotoelektrik tizimlar

1 – quyosh paneli; 2 – invertor; 3 – AB; 4 – elektr tarmoq; 5 – yuklama

Zaryad-razryad kontrollerlari: Avtonom fotoelektrik tizimlarda zaryad-razryad kontrollerlari ortiqcha energiya sarfi bo‘lganda akkumulyator batareyasini (AB) chuqur razryaddan himoya qilish va AB to‘liq zaryad holatida quyosh paneli elektr energiya generatsiya vaqtida AB ni qaytadan zaryadlanish holatidan asraydi. (4-rasm). Zaryad-razryad kontolleridan foydalanishda afzalliklaridan biri shuki, AB razryad holatida yuklamani darhol uzadi.



4-rasm. Zaryad-razryad kontrolleri

Odatda fotoelektrik tizimlar zaryad-razryad kontrollerlari bilan ta’minaladi. Shuning uchun yuklama hech qachon to‘g’ridan to‘g’ri AB ga ulanmaydi, bunda AB ishdan chiqishi mumkin.

Keng –impulslı modulyasiyalı zaryad tokiga ega kontrollerlar: Oddiy kontollerlar AB kuchlanish 14,4 V ga etganida energiya manbai (quyosh batareyasi) ni uzadi (AB nominal kuchlanish 12 V). AB da kuchlanish \approx 12,5– 13 V ga kamayganida quyosh paneli qaytadan ulanadi va zaryad AB da tiklanadi. Shuning uchun AB maksimal razryadlanish darajasi 60–70% ni tashkil etadi. Muntazam ravishda to‘liq zaryalanish bajarilmasa, AB ning yaroqlilik muddati kamayadi.

Zamonaviy kontrollerlar zaryadning tugash bosqichida keng impuls modulyasiyalı zaryad toki (KIMZT) deb nomlanadigan jarayondan foydalaniladi. Bunda AB zaryadi 100% gacha zaryadlanadi. 5-rasmda quyosh paneli yordamida AB zaryadlashning 4 ta bosqichi ko'rsatilgan.

1). Maksimal tok bilan zaryadlash. Bu bosqichda AB quyosh panelidan kelayotgan hamma tokdan foydalanadi.

2). KIMZT dan foydalanish. AB da kuchlanish aniq sathga chiqqanida kontroller doimiy kuchlanish bilan KIMZT hisobiga ta'minlay boshlaydi. Bu AB da gaz ajralib chiqishi va o'ta qizishni oldini oladi. AB zaryadlanish sathiga qarab tok kamayib boradi.

3). Tenglashish. Ko'pgina suyuq elektrolitga ega AB gaz hosil bo'lishigacha davriy zaryadlanish davomida ish jarayoni yaxshilanadi, elektrolit aralashib plastinalar tozalanadi, AB har xil bankalarida kuchlanish tenglashadi.

4). Tayanch zaryad. AB to'liq zaryad holatida bo'lsa ham, zaryad kuchlanishi batareyada gaz ajralib chiqqanda yoki uning qizishi vaqtida kamayadi, bu vaqtida AB zaryad holatida ushlab turiladi.



5-Rasm. Quyosh panelidan akkumulyatorni zaryadlashdagi bosqichlar

Maksimal quvvat nuqtasini kuzatishga mo'ljallangan kontrollerlar: Quyosh batareyalari ishlab chiqarayotgan energiya miqdorini oshirish kerak bo'lsa, qo'shimcha quyosh panellari qo'shmasdan ham oddiy kontrollerni maxsus «Maximum Power Point Tracker» (MPPT) deb nomlanadigan quyosh batareyasida maksimal quvvatni (TMM) kuzatishga mo'ljallangan kontroller bilan almashtirish kerak.

MRRT-kontroller quyosh batareyasidagi kuchlanish va tokni doimo kuzatib boradi, uning qiymatlarin kupaytirib, quyosh batareyasi quvvati maksimal bo'lgandagi tok kuchlanish juftligini aniqlaydi. O'rnatilgan protsessor AB ning zaryad bosqichini kuzatadi (to'lishi, o'ta to'yinishi, tenglashish, tayanch) va shu asosida unga qanday miqdordagi tok berilishini aniqlaydi. Protsessor bir vaqtida tablodagi parametrlar indikatsiyasiga ham komanda beradi (ma'lumotlarni saqlash va boshq.)

Maksimal quvvat nuqtasi har xil usullar bilan ham hisoblanishi mumkin. TMM ni qidiruv usullari ham har xildir.

1). Odatda «Perturb and Observe» usulidan foydalaniladi. YA'ni quyosh batareyasining volt-amper xarakteristikasini TMM bilan davriy ravishda to'liq skanerlash (2 soatda 1 marta) olib boriladi. Navbatdagi skanerlash jarayonigacha kontroller qidirishda davom etib, quyosh batareyasining quvvat tebranishini hisoblaydi va agar unda quvvat katta bo'lsa yangi ishchi nuqtaga, yangi kuchlanishga siljitaldi. Amaliy jihatdan hamma kontrollerlarda ushbu usul qo'llaniladi.

Uning kamchilikli shundan iboratki, doimo o'lhash ishlarini olib borish va bu vaqtida paneldan kelayotgan energiyaning uzilishi hisoblanadi. Har xil ishlab chiqaruvchilar quyosh batareyasi maksimal quvvat nuqtasini optimal kuzatish uchun Quyoshdan kelayotgan optimal miqdordagi energiyani chastota iteratsiyalari, to'liq skanerlash davriyligi va qidiruv chuqurligi parametrlarini tanlashadi.

2). Ikkinci usul. – «Scan and Hold». Birinchi skanerlash jarayonidan so'ng topilgan nuqta darajasida kuchlanish aniqlanadi va navbatdagi to'liq skanerlash holatigacha ushlab turiladi. Bunday usul quyosh panelida soya va bulutlar paydo bo'lmaganda yaxshi hisoblanadi. Afzalliklari – ishning yuqori tezligi, o'lhash jarayonida generatsiya vaqtida uzilishlar bo'lmaydi.


3). Uchinchi usul – «Percentage of open circuit voltage». Salt yurish kuchlanishi va ($U_{xx \cdot k}$) darajasidagi ishchi nuqta o‘lchanadi. Bu erda $k = 0$ dan 1 gacha bo‘lishi mumkin ($k=0.8$). Nuqta navbatdagi skanerlash jarayonigacha ushlab turiladi. Bunday usul panellarda soya tushishi va bulut bo‘lmagan holatlar uchun yaxshidir. Afzalliklari – ishning yuqori tezligi, o‘lchash vaqtida generatsiyada uzilishlar bo‘lmaydi.

4). To‘rtinchi usul – ishchi nuqtani qat’iy ravishda tanlash. Kontroller qo‘llab turadigan istalgan kuchlanish belgilanadi. U hech qanday o‘lchash va hisoblashlarni bajarmaydi, doimo ishlab turadi. Kamchiliklari – tanlangan kuchlanish haqiqiy TMM dagidan uzoq bo‘lishi mumkin. Ammo, aniq ma’lum bo‘lsa qanday kuchlanishda batareya maksimal quvvat ishlab chiqaradi va quyosh batareyasi amaliyotda doimo ochiq havoda ishlaganda usuldan foydalangan ma’qulroq.

Tizim ishga tushirilganda kontroller qo‘llab turadigan kuchlanish beriladi, ya’ni u quyosh batareyasining aniq parametrlari bo‘yicha hisoblanadi.


